


Sh.Zaynutdinov,
J.To'rayev, V.Toshboyev

TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Sh. ZAYNUTDINOV, J. TO‘RAYEV,

V. TOSHBOYEV

TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
oily o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o‘quv yurtlarining
iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti
Toshkent — 2005

SH. Zaynutdinov, J. To'rayev, V. Toshboyev. Tavakkalchilikni boshqarish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, -T.: 2005. 128 b.

Bozor sharoitida universitet va institutlarda bir qator yangi fanlar o'qitiladi. Shu fanlar jumlasiga «Tavakkalchilikni boshqarish» fani kiradi. O'quv qo'llanmada tavakkalchilikni boshqarishga oid nazariy, amaliy va uslubiy masalalar o'rganiladi. Masalan, tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari, ishlab chiqarishni rivojlantirishda tavakkalchilik, tavakkalchilikning turlari va elementlari, moliyaviy tavakkalchilik, sug'urtalash tavakkalchiligi, tavakkalchilikda qaror qabul qilish, tavakkalchilikni o'lchash va uning koeffitsiyentlari, tavakkalchilikni boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, tavakkalchilikning samaradorligi va boshqalar.

O'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrantlari, aspirant va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Sh.G'. Yo'ldashev,
i.f.d., prof. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Oliy biznes maktabi "Menejment" kafedrasini mudiri;

D.T. Sagdullayev,
i.f.d. TDIU "Menejment" kafedrasini dotsenti.

Ekspertlar:

N.Q. Yo'ldashyev,
i.f.d., prof. TDIU "Menejment" kafedrasini mudiri;

B. G'oyibnazarov,
i.f.n., dotsent. TDIU o'quv-uslubiy bo'limini mudiri.

© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

Ш. Зайнутдинов, Ж. Тураев, В. Тошбоев. Управление риском. Учебное пособие. -Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2005, 128 с.

В условиях рынка в университетах и институтах читаются ряд новых дисциплин, к числу которых относится курс "Управление риском". В предлагаемой читателю книге изложены теоретические основы управления риском, риск в развитии производства, разновидности и элементы риска, финансовый риск, риск страхования, принятие решения в риске, измерение риска и его коэффициенты, зарубежный опыт управления риском, эффективность риска и др.

Учебное пособие может быть полезным для студентов, магистрантов, аспирантов и преподавателей высших учебных заведений.

Рецензенты:

Ш. Г. Юлдашев,
д.э.н., проф. Академия Государственного и
общественного строительства при Президента
Республики Узбекистан, Высшая школа бизнеса,
заведующий кафедрой «Менежмента»;

Д. Т. Сагдуллаев,
д.э.н., ТГЭУ, доцент кафедры «Менежмента».

Эксперты:

Н. К. Юлдашев,
д.э.н., проф. ТГЭУ, заведующий кафедрой
«Менежмента»;

Б. Гойибназаров,
к.э.н., доцент. ТГЭУ, заведующий учебно-
методическом отделом.

tavakkalchilikni kuchaytiradi. Demak, bundan tadbirkor tavakkalchilikdan qochmasligi, balki uning darajasini baholay bilishi va tavakkalchilikni pasaytirish maqsadida uni boshqara bilishi lozimligi kelib chiqadi.

Tadbirkorlikning bosh xislati tavakkalchilikdan qochmaslikda, balki uni oldindan ko'ra bilishda va uni eng past darajagacha pasaytira olishda namoyon bo'ladi. Ta'kidlanganlardan kelib chiqib mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsad va vazifalari kelib chiqadi. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

-zamonaviy iqtisodiyotga xos bo'lgan omillardan biri - tavakkalchilikni hisobga olgan holda iqtisodiy jarayonlarni sifat va miqdoriy xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;

-tavakkalchilikni inobatga oluvchi iqtisodiy matematik modellarni tuzish, tahlil qilish hamda foydalanish usul va uslublarni o'zlashtirish;

-qarorlarni qabul qilish jarayonida iqtisodiy tavakkalchilikni hisobga oluvchi va modellashtiruvchi bir qator namunaviy uslublarni o'rganish, xilma-xil muammolarning yechimini topish uchun amalda qo'llash maqsadida tegishli jihatlarni o'zlashtirish.

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy qismlarini bayon etishdan oldin, uning mazmun va mohiyatiga izoh beramiz. Tavakkalchilikni boshqarish, baholash va tahlil qilish bo'yicha shu kungacha o'zimizdagi mavjud va xorijiy adabiyotlarni har tomonlama keng o'rganish hamda ularni bir tizimga keltirib tahlil qilish, ayni paytda quyidagi muammolarning mavjudligini ko'rsatadi:

- "Risk" tushunchasining hamma uchun bir xil qabul qilingan ta'rifi mavjud emas;

- har qanday amaliy va nazariy tasodiflar, holatlar uchun qo'llaniluvchi tavakkalchilikning kengaytirilgan ko'rsatkichlarini aniq hisoblash uslublari ishlab chiqilmagan;

- aniq vaziyatga ma'lum tavakkalchilik darajasining "mos kelishi"ni aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan qo'llanmalar mavjud emas;

- tavakkalchilikning holatini miqdoriy baholashga asoslanuvchi qoida va me'yorlarni shakllantirish imkonini beruvchi me'yoriy-huquqiy konsepsiya ishlab chiqilmagan.

Shuni ham nazarda tutish lozim-ki, tavakkalchilikning ahamiyatini belgilash, aniq vaziyatlarda qabul qilinishi zarur bo'lgan qarorlarga bog'liq bo'ladi.

O'quv qo'llanmaning asosiy bo'limlarini bayon etish jarayonida imkon qadar iqtisodiy tavakkalchilikning mavjud muammolariga qarashlar va yondashuvlar hamda ularning o'lchash uslublari bayon etiladi. Shu bilan bir qatorda iqtisodiy tavakkalchilikning ilmiy nazariyasidagi ba'zi bir tushuncha va ta'riflar mazkur qo'llanmada keltirilgan adabiyotlardagi sharhlardan keskin farq qilib, unda mualliflarning o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z qarashlarini bayon etadi.

Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarning qiyosiy tahlili. M. A. Rogov tomonidan yozilgan monografiya bozor risklarini boshqarishga bag'ishlangan bo'lib, u Rossiyadagi zamonaviy amaliyot va nazariyani hisobga olgan holda Financial Risk Meneger (Moliyaviy risk menejmenti) kvalifikatsiyasi bo'yicha GARP dasturi materiallarini qamrab oladi.

A.V.Melnikov tomonidan yaratilgan kitobda zamonaviy moliya va sug'urtalashda miqdoriy risk – menejmentining asosini tashkil etadigan moliyaviy va aktual matematikaning g'oyalari, faktlari (ma'lumotlari) va usullari kompleksini soddalashtirilgan tarzda ifodalashga e'tibor qaratilgan. Unda moliya va sug'urtalashda yuzaga keladigan risklarni hisob-kitob qilish va boshqarish uslubiyati keltirilgan, risklarning modellar, tamoyillar va sug'urta pullarini hisob – kitob qilish usullari bilan birgalikda aktual fan va sug'urtalash iqtisodiyotidagi innovatsion yo'nalishni ifodalovchi materiallar o'z ifodasini topgan.

L. N. Tepmanning asarida risklarning paydo bo'lishi, ularning tasnifi, har bir risk turining xususiyatlari alohida tushintirilgan, risklarni oldindan aniqlash, ularni neytrallashtirish, qisqartirish va nihoyat tadbirkorlik faolyati samaradorligini oshirish maqsadida risklarni boshqarish usullaridan foydalanish yo'llari xususida yozilgan.

A.S. Shapkin tomonidan yozilgan kitobda iqtisodiy riskning mohiyati ochib berilgan, risk darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rib chiqilgan, iqtisodiy riskning miqdoriy baholanish usullari bayon etilgan. Risk sharoitida konkret iqtisodiy vaziyatlar uchun samarali qarorlarni qabul qilish bo'yicha amaliy misollar keltirilgan.

Shuningdek, moliyaviy risklarning tasnifi ko'rib chiqilgan, riskli jarayonlar moliyaviy matematikasining asosiy usullari ifodalangan, iqtisodiy risk darajasini kamaytirishga nisbatan yangi yondashuvlar ko'rsatib o'tilgan hamda qimmatli qog'ozlarning optimal portfelni shakillantirish masalalari ko'rsatilgan. Zamonaviy portfel nazariyasi va kapital bozori nazariyasiga ta'rif berilgan, investitsiyalar portfelini boshqarishning asosiy usullariga sharhlar keltirilgan, turli xil portfel nazariyalari tahlil qilingan va o'zaro qiyoslangan.

Yuqorida tahlil o'tkazilgan adabiyotlardan ko'rinib turibdiki, ularda asosan sug'urta, moliya, qimmatli qog'ozlar, aktual matematika, risk modellari, risk turlarining xususiyatlari, qarorlar qabul qilish masalalariga qayta ahamiyat berilgan.

Shu bilan birga ishlab chiqarish tavakkalchiligi, tavakkalchilik turlari, ularni baholash va huquqiy jihatlari kam o'rganilgan. Shu sababdan ushbu va boshqa masalalarni o'quv qo'llanmaga kiritishni lozim topdik.

I BOB

FANNING MAQSADI VA MAZMUNI. ASOSIY TUSHUNCHALAR. TAVAKKALCHILIKNI TURLARGA AJRATISH

1.1. Fanning mazmuni va maqsadi

Umumjahon amaliyotida qabul qilingan tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida tadbirkorlikka mulkiy mas'uliyat va o'zining tavakkalchiligi bilan amalga oshiriluvchi, daromad olishga yo'naltirilgan fuqarolar va ular guruhlarining mustaqil, tashabbuskor faoliyati deb ta'rif beriladi.

Ko'p hollarda tadbirkorlik mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlik, faol izlanuvchanlik, jo'shqinlik va chaqqonlik kabi xislatlar bilan tavsiflanadi. Bu xislatlarning yagona jamlanmasi iqtisodiy faoliyatga xos bo'lib, to'liq asosli holda tadbirkorlik yoki biznes deb ataladi. Tadbirkor uzluksiz ravishda mehnat yutuqlarini ta'minlash uchun o'z xatti-harakatlarini takomillashtirib boradi, chunki yutuqlar ishlab chiqarish texnologiyalari va tovar sifatini o'zgartirishga, narx, iste'molchilar doirasi va boshqa ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi.

Muammolar yechimining turli yo'llarini topish, tanlash va o'zgartirish faqat muqobil variantlar mavjudligidagina mumkin bo'ladi. Shu sabab tadbirkorlikning zaruriy sharti izlanishda va turli-tumanlik holatida iqtisodiy faoliyatning usullarini tanlash erkinligida namoyon bo'ladi. Biznesni tavakkalchiliksiz tasavvur etish mumkin emas.

Tavakkalchilikning kuchayishi — bu mohiyatan tadbirkorlik erkinligining aksi bo'lib, buning uchun o'ziga xos to'lov hamdir. Bozor munosabatlari sharoitida yashab qolish uchun texnikaviy yangilanish, dadillik va jo'shqin harakatga tayaniladi, bu esa o'z navbatida tavakkalchilikni kuchaytiradi. Demak, bundan tadbirkor tavakkalchilikdan qochmasligi, balki uning darajasini baholay bilishi va tavakkalchilikni pasaytirish maqsadida uni boshqara bilishi lozimligi kelib chiqadi.

Ishlab chiqarishning barcha sohalarida, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda tavakkalchilik holatini o'rganish foydani oshirishga keng imkoniyat yaratadi. Sobiq ittifoqda boshqarish va iqtisodiyot nazariyasida tavakkalchilik voqeligiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Shu sababli iqtisodiyot katta yo'qotishlarga uchragan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, bozor munosabatlariga o'tishi iqtisodiyotga oid fanlar turkumiga "risk" – tavakkalchilik tushunchasining kirib kelishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda, respublikamiz universitet va institutlarida umumiy "risk menejmenti" bilan bir qatorda tarmoq va soha tavakkalchiliklari ham alohida fan sifatida o'qitilmoqda.

Tavakkalchilikni boshqarish fanining mazmuni keng qirrali bo'lib nazariy, metodologik, amaliy va uslubiy jihatlarni qamrab oladi. Ular fanni o'rganish jarayonida o'rganiladi. Bundan tashqari fanning asosiy mazmunini uning boshqarish tamoyillari, qonuniyatlari, o'lchov usullari va koeffitsiyentlarini hisoblash uslubiyoti tashkil etadi.

Fanning maqsadi – tavakkalchilikni nazariy jihatlarni o'rganib uni amaliyotga joriy etish bilan birga boshqarishni takomillashtirib borishdir.

Tavakkalchilikni boshqarish fanini o'rganish ishlab chiqarishni va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga asos bo'ladi, iqtisodiyotda mablag'larning behudaga sarflanishini oldini oladi.

1.2. Tavakkalchilikning asosiy tushunchalari, elementlari va xususiyatlari

Mavjud adabiyotlarda tavakkalchilikning xislat, xususiyat va elementlari obyektiv va subyektiv jihatlari, o'zaro munosabatlari va mazmunini anglash turlicha tavsiflangan.

Tavakkalchilikning mohiyati to'g'risidagi xilma-xil fikrlar ko'p hollarda bu hodisaning serqirraligi, amalda mavjud xo'jalik faoliyati qonuniyatlarida uning to'liq tan olinmasligi, shuningdek real iqtisodiy amaliyotda va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo'llanilmasligi bilan sharhlanadi.

Bundan tashqari tavakkalchilik - bu bir-biriga mos kelmaydigan, ba'zida hatto qarama-qarshi real holatlar yig'indisidan iborat murakkab jarayondir. Tavakkalchilik tushunchasi rus tilidagi "risk" so'ziga ekvivalent sifatida olinadi. Endi "risk" toifasidagi tushunchaga nisbatan mavjud ba'zi-bir yondashuvlarni qarab chiqamiz.

"Risk" atamasi yunoncha "ridsikon", "ridsa" so'zlarida "tik qoya, qoyatosh" mazmunini anglatadi, italyanча "risiko" so'zida "xavfli, xavf-xatar" mazmunini, "risicare" so'zida bo'lsa "qoyalarga chap bermoq" mazmunini anglatadi.

Fransuzcha “risdoe” soʻzi “tahlika, xavf-xatar, qoʻrqinch” (tik qoyadan aylanib oʻtishda goʻyoki tavakkal qilish) mazmunini anglatadi.

Vebster lugʻatida “risk” - zarar yoki ziyon koʻrish imkoniyati, xavf-xatari deyilsa, Ojegov lugʻatida “risk” soʻziga “xavf-xatar holati imkoniyati” yoki “muvaffaqiyatli harakat” deb taʼrif beriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, maxsus lugʻatlarda (falsafa, harbiy, iqtisodiy va h.k.z.) “risk” tushunchasi umuman uchramaydi. U hatto Katta sovet entsiklopediyasi va Sovet entsiklopedik lugʻatining oxirgi nashrlarida, besh tomli falsafiy ensiklopediya va falsafiy ensiklopedik lugʻatda hamda “Ilmiy-texnik taraqqiyot lugʻati” va boshqalarda ham uchramaydi. Tahlillar adabiyotlarda “risk” toʻgʻrisidagi tushunchaga omadsizlik yoki xavf-xatarga (xavf-xatar holati) imkoniyat degan taʼrif keng tarqalganligini koʻrsatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ham shunday hol kuzatiladi.

“Moliyaviy menejment” kitobida unga quyidagicha taʼrif beriladi: “Risk - tavakkalchilik - bu bashorat qilinayotgan variantlarga nisbatan daromad olinmaslik yoki zararlarning paydo boʻlish ehtimoliyatidir. “Zamonaviy biznesda tavakkalchilik” kitobida: tavakkalchilikka maʼlum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish natijasida qoʻshimcha xarajatlarning paydo boʻlishi yoki daromadning olinmasligi hamda tashkilot tomonidan oʻz resurslarini yoʻqotish ehtimoliyatini anglash tushuniladi deb taʼrif beriladi.

Yuqorida keltirilgan barcha taʼriflardan: “tavakkalchilikni xavf-xatar, zarar koʻrish holati” - degan xususiy xislatini ajratib koʻrsatish mumkin boʻladi. Lekin keltirilgan taʼriflar tavakkalchilikning barcha mazmuni va mohiyatini toʻliq ifodalay olmaydi.

“Tavakkalchilik” taʼrifini toʻliq belgilash uchun, oldin “tavakkalchilik vaziyati” tushunchasiga taʼrif berishimiz kerak, chunki bu bevosita “tavakkalchilik” atamasi mazmuni bilan uzviy bogʻliqdir.

Biz rus lugʻatida qabul qilingan “risk” soʻzini “tavakkalchilik” deb tarjima qildik. Bu terminga yana ekvivalent oʻzbek tilida «qaltislik» va «risk»ni oʻzini ishlatish kerak degan fikrlar bor. Chunki «Tavakkalchilik» soʻzi «Risk»ni toʻla mazmunini oʻzbek tilida ifodalay olmaydi. Kelajak oʻzbek tilida qaysi soʻzni tanlashni koʻrsatib berar. «Vaziyat» tushunchasi u yoki bu faoliyat uchun imkoniyat yaratuvchi turli holat va shart-sharoitlar jamlamasining birikuvini deb taʼrif berish mumkin. Bunday

holda vaziyat mazkur faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin.

Har xil vaziyat turlari ichida, tavakkalchilik vaziyati alohida o'rin tutadi.

Aksariyat iqtisodiy jarayonlarni amal qilish va rivojlanishi noaniqlik ya'ni mavhumlik elementlarga tayanadi. Bu esa bir xil yechimi bo'lmagan vaziyatlarni yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Agar u yoki bu vaziyatni ehtimoliyati darajasini miqdor va sifat jihatdan aniqlash imkoniyati mavjud bo'lsa u tavakkalchilik vaziyati bo'ladi. Bu yerda tavakkalchilik vaziyati statistik jarayonlarga bog'liq bo'lib, unga mavjud bo'lgan uchta shart hamrohlik qiladi: degan xulosa kelib chiqadi. Ularga:

- noaniqlikning (mavhumlikning) mavjudligi;

- muqobil (alternativ) tanlovning zarurligi (bu holda, shuni ham nazarda tutish kerakki, tanlovdan voz kechish bo'yicha tovlash ham tanlov xilma-xilligiga doir bo'ladi).

- tanlangan muqobil variantni amalga oshirish ehtimoliyatini baholash imkoni borligi kiradi.

Shuni qayd etish lozimki, tavakkalchilik vaziyati sifat jihatdan noaniqlik (mavhumlik) vaziyatidan keskin farq qiladi.

Noaniqlik vaziyati-amalda o'rnatish imkoni bo'lmagan hodisa va qarorlar natijalarini hosil bo'lish ehtimoliyatidir.

Shunday qilib, tavakkalchilik vaziyatini aniqlanishi mumkin bo'lgan va amalga oshuvchi hodisalar ehtimoliyatidagi noaniqliklar xilma-xilligi deb tarif berish mumkin.

Ya'ni bu holda taxminan sheriklarning ishlab chiqarishdagi hamkorligidagi faoliyati, raqiblarni qarshi harakati, iqtisodiyot taraqqiyotiga tabiiy muhitning ta'siri, ishlab chiqarishga ilmiy texnik yutuqlarni joriy etish natijasida paydo bo'luvchi hodisalar ehtimolini obyektiv baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Tavakkalchilikni bir necha turlarga bo'lish mumkin:

- ixtiyordagi bir necha muqobillikdan tanlovchi subyekt, bashorat qilinayotgan natijalarni olish uchun obyektiv ehtimoliyatiga (statistik tadqiqotlar natijalariga asoslanuvchi) ega bo'ladi.

- kutilayotgan natijalarni ro'yi berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya'ni subyektiv ehtimollik bilan ish ko'radi.

-alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimollikka ega bo'ladi.

-kutilayotgan natijalarni ro'y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya'ni subyekt, subyektiv ehtimollik bilan ish ko'radi.

-alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimolliklarga ega.

Tavakkalchilik vaziyatlardan «chiqish uchun», subyekt tanlov o'tkazadi va uni amalga oshirishga harakat qiladi. Tavakkalchilik tushunchasini anglash aynan shu jarayonda o'z ifodasini topadi. Subyektning faoliyat rejasi esa bu jarayon tavakkalchilik tushunchasini anglashda uz ifodasini topadi. Amalga oshirishga harakat qilish uchun qaror tanlovi bosqichida bo'lganidek, amalga oshirish bosqichida ham mavjud bo'ladi.

Bu va boshqa hollarda tavakkalchilik konkret ziddiyatlarni noaniq vaziyatda rivojida qarama-qarshi intilishlari orqali amaliy yechimini topish usuli bilan subyekt tomonidan noaniqliklarni olish modelini ifodalaydi. Bunday sharoitda «Bozor va tavakkalchilik» kitobida keltirilgan «tavakkalchilik» tushunchasining ta'riflari ancha to'liq ifodalanadi. Tavakkalchilik - bu omadsizlik holatida vaqtincha tanlovga qadar bo'lgan holdan ham yomon vaziyatda bo'lish imkoniyati mavjud bo'lganida tanlov sharoitida amalga oshiriluvchi faoliyat (xatti-harakat)dir. Bu tarifda omadsizlik xavf-xatar holati bilan bir qatorda, alternativlik (muqobillik) kabi xislat ham ishtrok etadi.

Bizning fikrimizcha tavakkalchilikning ancha to'liq tarifi «Tavakkalchilik va uning jamiyat hayotidagi roli» kitobida berilgan.

(Tavakkalchilik - bu muqarrar tanlov vaziyatidagi noaniqliklarni bartaraf etish bilan bog'liq jarayonda ko'zlangan natijalarga erishish omadsizlik va maqsaddan chekinish ehtimolini miqdor va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud holdagi faoliyatidir.

«Tavakkalchilik»-hodisasida uning mohiyatini tashkil etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-tanlangan muqobillikni (alternativni) amalga oshirish maqsadida ko'zlangan maqsaddan chekinish mumkinligi;

-ko'zlangan natijaga erishishning ehtimolligi;

-ko'zlangan maqsadga erishish uchun ishonchsizlik (ishonchning yo'qligi);

-muqobillikni noaniq sharoitdagi tanlovni amalga oshirish bilan bog'liq moddiy, ma'naviy va boshqa yuqotishlarning mavjudligi.

Tavakkalchilikning muhim elementlaridan biri bu tanlangan maqsaddan chekinish ehtimolini borligidir. Bunday holdagi farqlanish ijobiy va salbiy xislatda bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan elementlar, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirchanligi tavakkalchilikning mazmun mohiyatida namayon bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda tavakkalchilikga uning mohiyatini anglash imkonini beruvchi bir qancha xislatlar xosdir. Unga quyidagi xislatlar kiradi.

-qarama-qarshilik (zidlik)

-alternativlik (muqobillik)

-noaniqlik (mavhumlilik)

Qarama-qarshilik-tavakkalchilikning muhim xislatlaridan biri bo'lib u turli qarashlarda namoyon bo'ladi.

Tavakkalchilik-faoliyatining xilma-xilligini ifodalar ekan, bir tomondan tanlov muqarrarlik vaziyatida va noaniqlik sharoitidaligi murakkab uslublar bilan umum ahamiyatga moyil natijalarni olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda u konservatizm, dogmatizm, qoloqlik kabi jamiyat taraqqiyotga ruhiy to'siqlarni bartaraf etadi. Tugamoq bo'luvchi ruhiy to'siqlarni bartaraf etadi va yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga qarshilik jamiyat taraqqiyotiga tormoz qiluvchilarga qarshi muvoffaqiyatni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga tashabbuskor ijtimoiy eksperimentlarni, yangi g'oyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tavakkalchilikning bu xususiyati muhim iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy ruhiy oqibatga sabab bo'ladi chunki u jamiyat va texnika tarakiyotini ta'minlaydi, jamoatchilikning fikrlash doirasiga ijobiy ta'sir etadi. Ikkinchi tomondan, tavakkalchilik avaiyurizm, valyuntarizm, subyektivizmga, ijtimoiy taraqqiyotni tormizlashga olib keladi.

Tavakkalchilikning qarama-qarshi tabiati mavjud tavakkal harakatlarning to'qnashuvida namoyon bo'ladi. Masalan u yoki bu harakatni amalga oshirish uchun makbul yo'lni tanlagan kishi o'zini tavakkal ish qilgan deb hisoblasa, boshqa odamlar tomonidan u ehtiyotkorlik, har qanday tavakkalchilikdan xolis yoki aksincha deb baholash mumkin.

Tavakkalchilikning muqobillik xususiyati ikki va undan ortiq variantdagi imkoniyatlar yo'nalishlar harakatlar orasidan o'ziga mos - keluvchi variantni tanlash zaruratidan kelib chiqadi. Tanlov imkoniyatining mavjud bo'lmashligi, tavakkalchilik holatini inkor etadi. Qayerdagi tanlov bo'lmasa u yerda tavakkal harakatdagi vaziyat yuzaga kelmaydi, demak tavakkalchilik mavjud bo'lmaydi.

Tavakkal vaziyatning aniq mazmuniga bog'liq holda alternativlik turli darajada murakkablikga ega bo'ladi va u turli usullarda hal etiladi. Agar oddiy vaziyatlarda tanlov amalga to'plangan tajriba va ichki xis tuyg'uga asoslansa, murakkab vaziyatlarda qo'shimcha maxsus usul va uslublardan foydalanish zarur. Tavakkalchilikni mavjudligi bevosita o'z mazmun shaklining xilma-xiligi bilan farqlanuvchi noaniqliklar bilan bog'liq.

Tavakkalchilikning bu xislatiga tavakkalchilik manbaalarini o'rganayotganimizda batafsil to'xtalamiz. Bu yerda biz faqat «tavakkalchilik»ni ishonchsiz va birxillikni inkor etuvchi noaniqlikni «bartaraf etish»usullari sifatida qarab chiqamiz.

Tavakkalchilikni bu xislatiga e'tiborni qaratishimizning muhimligi shundan iboratki u noaniqlikning obyektiv va subyektivmanbaalarini inkor etadi va boshqaruv jarayonlarini amalda optimallashtiradi qolaversa, gap qandaydir noaniqliklarni to'liq bartaraf etish ustida emas (amalda mumkin bo'lmagan), balki ratsional muqobillikni tanlash maqsadida tavakkalchilikni hisobga olish zarurati ustida ketmoqda.

1.3. Tavakkalchilikni turlarga ajratish

Tavakkalchilik-bu mumkin bo'lgan noaniqliklarda ma'lum hajmdagi faoliyatni bajarish, ya'ni bajariladigan ishlar natijasiga zarar yetkuzuvchi har xil ziyonlar yoki katta hajmda daromad olish imkoniyatidir.

Ko'p hollarda tadbirkor ma'lum bir tavakkal asosida ishlab chiqarishga majbur. Majburiy tavakkalchilikda tavakkalchilikni boshqarish uchun mumkin bo'lgan noaniqliklarni bartaraf etishga intilinadi.

Qarorlar qabul qilishda biz 2 turdagi tavakkalchilikni o'rganishni taklif etamiz:

- tavakkalchilikni hisobga olgan holda umumdavlat qarorlarini qabul qilish;
- mahalliy ahamiyatga molik qarorlar qabul qilish.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishida talab va taklif munosabatlari orasida ham ma'lum bir tavakkalchilikga tayaniladi.

Noaniq karshiliklar natijasida yuzaga keluvchi tavakkalchilik «Vis major» deyiladi. Ko'p hollarda noaniqliklar va tavakkalchilikni sinash tushunchalar deyiladi. Lekin (tavakkalchilik uchun) noaniqliklar ba'zi hollarda tavakkalchilik sifatida ko'rinadi yoki ba'zi bir noma'lum hodisalarni paydo bo'lishida yoki paydo bo'lishi bizga noaniq vaziyat ehtimoli ko'rinishida namoyon bo'ladi. Amalda uzoq muddatli va qisqa muddatli tavakkalchilik mavjud.

Uzoq muddatli tavakkalchilik qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlarini rivoji bilan bog'liq bo'lib ko'p hollarda butun xalq xo'jaligi darajasida qabul qilinadi.

Qisqa muddatli tavakkalchilik kon'yunkturali hisoblanadi, ya'ni ma'lum vaqt davomida bajariladigan ma'lum turdagi ishlarni bajarishda qabul qilinadi.

Bundan tashqari tavakkalchilik o'zining mazmun va mohiyatidan kelib chiqib quyidagi turlarga bo'linishi mumkin; tarmoqlar bo'yicha tavakkalchilik va sohalar bo'yicha tavakkalchilik.

Tarmoqlar bo'yicha; sanoat tavakkalchiligi, qishloq xo'jaligi tavakkalchiligi, qurilish tavakkalchiligi, aloqa vositalari tavakkalchiligi, transport vositalari tavakkalchiligi. Bo'larni umumlashtirgan holda ishlab chiqarish tavakkalchiligi deb ham atash mumkin.

Sohalar bo'yicha; bank tavakkalchiligi, moliya tavakkalchiligi, sug'urta tavakkalchiligi, tijorat tavakkalchiligi, innovatsion tavakkalchilik, biznes tavakkalchiligi, foiz tavakkalchiligi va hokazo.

Suni ta'kidlab o'tish lozimki, tarmoqlar bo'yicha tavakkalchilik, ya'ni ishlab chiqarish tavakkalchiligidan boshqa tavakkalchilik turlariga nisbatan ko'proq zarar ko'rish mumkin.

1.4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tavakkalchilikni boshqarish

Rivojlanish yo'lini tanlash sohasidagi tavakkalchilik to'g'risidagi masalalar ichki va tashqi bozor muammolari bilan bog'liq holda qarab chiqiladi.

Mamlakat iqtisodiyotini ko'zlangan masalalarida uni bajarayotgan korxonalar maqsadga erisha olmasa, bu yuqori organlarning rejalashtirishdagi

xatosi bilan emas, balki shu korxonaning rejalashtirishdagi kamchiliklar tufayli sodir bo'лади, deb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yondoshilganida rejalar qanchalik puxta ishlangan bo'lsa, tashkilot uchun tavakkalchilik shunchalik kam bo'лади. Shunday qilib, ilmiy asoslangan rejalashtirish – bu tavakkalchilikning xatarli oqibatlarini kamaytirish usulidir. Shu bilan bir qatorda maxsus adabiyotlarda, rejalashtirish tavakkalchilikga qarshi kurash vositasi deb qaralmasligi lozim, - degan nuqtai nazar mavjud. Ilmiy asoslangan rejalashtirish – noaniqlarni kamaytiruvchi ishonchli omil hisoblansa-da, eng yaxshi reja ham, ijtimoiy iqtisodiy vaziyatdan yuzaga keluvchi noaniqliklarning barcha unsurlarini o'zida mujassamlashtira olmaydi.

Ichki va tashqi bozor bilan bog'liq tavakkalchilik turlari bir-biri bilan mustahkam aloqada bo'lgan, bir biriga ta'sir etuvchi ko'plab umumiy unsurlarga ega. Shuning uchun tavakkalchilikning bu ikki turini birinchi navbatda ichki va tashqi bozor uchun xarakterli bo'lgan xislatlarini inobatga olib qarab chiqamiz. Ichki bozor bilan bog'liq tavakkalchilikning tashkil etuvchi muhim unsurlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- eski va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va strukturasi aniqlash bilan bog'liq tavakkalchilik (Biz bu masalani yangi va eski mahsulotlarni paralel ishlab chiqarishning afzalligi va kamchiliklari to'g'risida gapirganimizda ko'rib chiqqan edik);

- mahsulot ishlab chiqarishda yangi mahsulot ulushini sezilarli darajada ortishini ilmiy tadqiq qilishni moliyalashtirish to'g'risida bir qarorga kelish bilan bog'liq tavakkalchilikni o'sishi (bu yerda yangi ishlab chiqarilgan mahsulot talab darajasidagi sifatga javob bera oladimi, degan masalaga befarq bo'lolmaydi).

O'zini oklagan yangi texnologiya importi rivojlanish sohasidagi tavakkalchilikni pasaytiradi, shuningdek u ortiqcha foyda qismini saqlab qolish imkonini yaratadi (baho tarkibidagi tavakkalchilik ulushini kamaytirish hisobiga), chunki mahsulot bozorga baho egri chizig'ini ancha yuqori nuqtasida ekanlichidagi narxda boradi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq tavakkalchilik (ya'ni tashkilot ixtiyorida ma'lum bir davr davomida oldindan nazarda tutilgan sifat va miqdordagi ishlab chiqarish zahiralari bo'ladimi?)

- bozor bilan bog'liq tavakkalchilik (ya'ni yangi va eski mahsulot

taklifi to'lovga qobil talab miqdoriga mos keladimi?)

Xarajat va narx bilan bog'liq tavakkalchilik (ya'ni oldindan hisoblangan yoki past narxda sotilganda to'lovga qobil talab mahsulotga bo'lgan ehtiyoj xarajatlarini qoplaydimi? Haqiqiy xarajatlarni hisobga olganda daromad olish mumkin-mi?)

Korxonani rivojlantirish sohasiga oid qaror qabul qilishda ko'proq darajada xalqaro mehnat taqsimoti va uning ehtiyojiga tayanish lozim bo'ladi. Buning mazmuni shuki, nafaqat bizdagi mavjud moddiy resurslar birinchi navbatda ichki ehtiyojlarni qoldirish zaruratidan kelib chiqqan holda balki xalqaro iqtisodiy tendensiyalarini, ulardan foydalanish, nisbatan qulaylik darajasini hisobga olib taqsimlanishi lozim.

Boshqacha qilib aytganda mavjud resurslarimiz ma'lum darajadagi noaniqlikda baholanuvchi tashqi omillarni o'rganish asosida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi lozim.

Demak doimo umumjahon iqtisodiyotidagi iste'mol (talab) va ishlab chiqarish strukturasi (taklif) o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish kerak. Biror yangi ishlab chiqarish obyektini ishga tushirish to'g'risida qaror qabul qilishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim.

- jahon bozorida yangi mahsulotga talab darajasi va taklif holati qanday bo'lishi kutilayotganiga;

- jahon bozorida qanday narxlarda mahsulot sotilishi mumkinligiga;

- xalqaro darajada olganda mahsulot tannarxi qanday bo'lishiga (raqobatdagi o'xshash mahsulotlar tannarxi);

- mazkur mahsulot sotilishi mexanizmi qanday bo'lishiga (monopol, raqobatli);

- mahsulotimiz sotilishi rejalashtirilayotgan bozorda raqobatdagi import va mahalliy mahsulotlarga nisbatan tamojnya (bojxona) himoyasi tadbirlari qanday darajadaliqiga.

Barcha bu dalilsiz baholar o'z ichiga xilma-xil tavakkalchilik elementlarini oladi: aynan: kutilgan va kutilmagan hodisalarni kelgusida sodir bo'lish yoki bo'lmasligi bilan bog'liq tavakkalchilik, (har xil teng sharoitda) oldindan baholash tizimidagi o'zgarishlar imkoniyati bilan bog'liq tavakkalchilik; foydalanilayotgan oldindan baholash davomidagi axborotlarning aniqligi bilan bog'liq tavakkalchilik.

Agar ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarilsa va u yangi mahsulot bo'lsa u holda bu mahsulot iste'molchi tomondan faqatgina ishlab

chiqarishda texnologik qayta ko'rishdan so'nggina foydalanilishini hisobga olish lozim. Shuning uchun yangi uskunalarni olish, uni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kapital quyilmani qo'shimcha xarajatlar va iste'molchi tomonidan bu xarajatlarni qoplash manbaalarini hisobga olish zarur.

Agar gap an'anaviy mahsulotlar ustida borsa, u holda texnologiyani yangilash, ancha zamonaviy yoki ancha arzon mahsulot ishlab chiqarishga sabab bo'ladi.

Kundalik ehtiyoj mollari ustida gap borsa (tekstil, tamaki, oziq-ovqat va kiyim-bosh tovarlari), yangi mahsulotni bozorda paydo bo'lishi va bozorni bu tovar bilan to'yinishi, ularni sotishda qiyinchilik tug'diradi.

Eski mahsulot ishlab chiqarilgan holatda bunga qo'shimcha iste'mol strukturasi o'zgarishi ham qo'shiladi.

Raqobatchilarning ishlab chiqarishni rivojlantirishlari yo'nalishidagi imkoniyatlari to'g'risidagi axborotlardan doimo xabardor bo'lib turish lozim va bu axborotlarni quyidagi uch manbaadan olish mumkin:

- chet ellardagi ilmiy tadqiqotlar axborotidan;
- kapitallar trisidagi axborotlardan (qimmatli qog'ozlar va aksiyalar chiqarishga yo'naltirilgani);
- dotatsiya, imtiyoz va davlat subsidiyalari to'g'risidagi ma'lumotlardan (davlat tomondan kullab kuvvatlanuvchi ilgor mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq tadqiqotlar).

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni boshqarish fanini o'rganish bevosita bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqadi.
2. Tavakkalchilik tushunchasi keng ma'noli tavsifga ega bo'lib iqtisodiyotni deyarli barcha sohalarida foydalaniladi.
3. Tavakkalchilik turlarini o'rganish natijasida ularning mohiyati va ahamiyati aniqlanadi.
4. Tavakkalchilik elementlari orqali uni samarali boshqarish ta'minlanadi.
5. Tavakkalchilikda noaniq holatlarni tahlil qilish tavakkalchilikni eng muhim jihati hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilik va noaniqlik, hamda ular orasidagi farqni tariflang.
2. Tavakkalchilik turlari sinflarini ayting.
3. Tadbirkorlikdagi tavakkalchiliklarni ayting.
4. Tavakkalchilikni ijtimoiy – iqtisodiy jihati nimada nomoyon bo‘ladi?
5. Tavakkalchilik deyilganida nima tushunasiz?
6. Tavakkalchilik elementlariga nimalar kiradi?
7. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tavakkalchilikni o‘rmini belgilang.
8. Noaniqlikni o‘rganish xo‘jalik faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Tavakkalchilik qanday jihatlari bilan ajralib turadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: «Ўзбекистон», 2003.
2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. -Т.: Адолат, 1999-2005.
3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. -М.: Финансы и статистика, 2004.
4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.
5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.
6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.
7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.
8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. -М.: 2003.
9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

II BOB

TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Tavakkalchilikni boshqarishning asosiy tamoyillari

Tavakkalchilikni boshqarishning asosiy prinsiplari sharoitidahamda u bilan bog'liq moliyaviy, ma'naviy boshqa yuqotishlarda ma'lum bir mexanizm yordamida talab paydo bo'ladi, uning natijasida tadbirkor (firma) erishishi mumkin bo'lgan maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay imkoniyatdagi usulda xo'jalik qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish uchun tavakkalchilik xavf-xatarini hisobga oladi.

Bu mexanizm tavakkalchilikni boshqarish deyiladi. Tavakkalchilikni boshqarish bu qandaydir darajada tavakkal vaziyatlar sodir bo'lishi imkoniyatini bashorat qiluvchi hamda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish imkonini beruvchi tadbirlar, usullar va uslublar jamlamasi deb tarif beriladi. Tavakkalchilikni boshqarish bir tizim sifatida 2 kichik tizimdan tashkil topadi. Unga boshqariluvchi quyi tizim (boshqaruv obyekti) va boshqaruvchi quyitizim (boshqaruv subyekti) kiradi.

Tavakkalchilikni boshqarish tizimida boshqaruv obyekti bo'lib kapital kiritishning tavakkalchiligi va tavakkalchilikni amalga oshirish jarayonida xo'jalik subyektlari (tadbirkor va raqiblar, raqobatchilar, qarz oluvchi va qarz beruvchilar, sug'urtachi va sug'urtalovchilar) orasidagi iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

Tavakkalchilikni boshqarish tizimida boshqaruv subyekti bo'lib o'z faoliyatlari vositasida boshqaruv obyektiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi maxsus odamlar guruhi (tadbirkor, moliyaviy menejer, tavakkalchilik bo'yicha menejer, sug'urtalash bo'yicha mutaxassis va bosh) gavdalanadi.

Tavakkalchilikni boshqarish iqtisodiy faoliyatda maxsus soha bo'lib, u xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili, psixologiya, sug'urta ishlari xo'jalik qarorlarini optimallashtirish usullari sohasida chuqur bilim talab qiladi.

Bu sohada tadbirkorning asosiy vazifasi - loyiha qanchalik daromadli bo'lsa, uni amalga oshirishda tavakkalchilik darajasi shunchalik yuqori bo'lishidan kelib chiqib, mazkur loyiha uchun daromad va tavakkalchilikning birikuvini optimal darajada ta'minlovchi harakat variantini topishdan iborat bo'ladi. Bu yerda shuni qayd etish lozim.

Iqtisodiy jarayonning ajralmas bo'lagi bo'lgan tavakkalchilikning mavjudligi, shuningdek, bu sohada qo'llanilayotgan boshqaruvga ta'sir vositalari shunga olib kelmoqdaki, tavakkalchilikni boshqarish qator hollarda maxsus mustaqil kasbiy faoliyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu turdagi faoliyatni ixtisoslashgan institutlar mutaxassislari, sug'urta kompaniyalari, shuningdek, moliyaviy, tavakkalchilik bo'yicha menejerlar sug'urta mutaxassislari amalga oshiriladi.

Tavakkalchilik bo'yicha mutaxassislarning bosh vazifasiga;

-kuchaygan tavakkalchilik sohalarini aniqlash;

-tavakkalchilik darajasilarini baholash;

-tashkilot (firma) uchun mos keluvchi tavakkalchilik darajasini tahlil qilish;

-zarur vaziyatlarda tavakkalchilik darajasini pasaytirish yoki undan himoyalash tadbirlarini ishlab chiqish;

-tavakkalchilik hodisasi sodir bo'lganida undan ko'rilgan zararni maksimal darajada ko'plab bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish kabilar kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatining xususiyatiga qarab, tavakkalchilik sharoitida qaror qabul qilish yoki uni amalga oshirish bo'yicha aniq usul va uslublar ma'lum darajada farq qiladi, hamda firmaning maqsadga erishish uchun tanlangan strategiyasi, aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda boshqaruv subyektlari uchun qo'llanma sifatida tavsiya etiluvchi tavakkalchilik nazariyasi va amaliyotini boshqarish bo'yicha bir qator asosli prinsiplari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- o'z kapitalingiz imkoniyatidan ortiq xavf-xatarga yo'l qo'ymang;

- tavakkalchilik oqibati to'g'risida o'ylab ko'ring yoki yetti o'lchab bir kesing;

- arziyas narsa uchun katta xatarga bormang.

Birinchi prinsipni amalga oshirishning ma'nosi shuki tadbirkor qaror qabul qilishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

-agar ishi aksiga sodir bo'lsa ko'radigan zararini maksimal hajmini hisobga olishi;

-agar ishi aksiga sodir bo'lsa ko'radigan zararini maksimal hajmini hisobga olishi;

-uni kirayotgan kapitali va boshqa xususiy moliyaviy resurslar bilan taqqoslab kelgusida ko'rilgan zarar bankrotga olib kelmasligini hisobga olish lozim.

Ikkinchi prinsipni amalga oshirish esa tadbirkor ko‘rinish mumkin bo‘lgan zarar miqdorini bilgan holda tavakkalchilik ehtimoli qanday uning oqibati nimaga olib kelishni aniqlashini hamda bu ma‘lumotlar asosida tadbirkor tavakkalchilik xatari uchun mas‘uliyatini o‘z zimmasiga olish yoki shu mas‘uliyatni o‘zgalar (sug‘urtalash orqali) zimmasiga yuklanish yoki shu tadbirni bajarishdan voz kechish to‘g‘risida qaror qabul qilishni talab qiladi.

Uchinchi prinsipni amalga oshirishda tadbirkor xatarga borishni tavakkal qilishda uning nazarida tutayotgan natijalarni, yuqotish hajmini hisobga olish lozim.

2.2. Tavakkalchilik tushunchasi va terminlariga nazariy yondoshish

Tadbirkor uchun tavakkalchilikdan ko‘rilgan zarar va foyda nisbatan qoniqarli bo‘lsagina tavakkal qilish to‘g‘risida bir qarorga kelish mumkin. Bu yerda shuni ta‘kidlash lozim-ki, har bir yuqorida qayd etilgan nisbatni mos kelgan har bir aniq vaziyati xilma xil bo‘lib u ko‘plab omillarga ya‘ni mulkiy holatga tadbirkorning tavakkalchilik xavf-xatari sohasidagi siyosati, taktika va strategiyasi loyiha vazifa va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Vaholanki, mas‘uliyatining bu masalasi ham iqtisodiy va huquqiy jihatlar mavjud. Xo‘jalik qarorlari bilan bog‘liq tavakkalchilikdagi mas‘uliyat masalalari, amaliy tajribalar va bu sohada to‘plagan tajribalar to‘g‘risida batafsil to‘xtalamiz.

Tavakkalchilik tushunchasi tabiiy fanlarda aniqlab o‘z ta‘rifini topgan hamda matematik formulalarda ifoda etilgan. Ammo iqtisodiyot o‘ziga xos xislat va xususiyatga ega. Shuning uchun «xo‘jalik tavakkalchiligi» degan maxsus atamani ta‘rifini berishimiz zarur.

Keyingi yillarda ko‘plab maqola va ilmiy ishlarda mualliflar tashkilotning xo‘jalik faoliyati, rejalashtirish, bozor mexanizmi, talab va taklif munosibatlarni qarab chiqishda xo‘jalik tavakkalchiligi masalalariga katta e‘tiborni qaratmoqdalar.

Biz ko‘plab hollarda, ilmiy xulosalarda yuqorida aytib o‘tilgan sohalarda qarorlar qabul qilishda tavakkalchilik elementlarini hisobga olish zarurligini va hatto uni maqsadga muvofiqligini qayd etilganini kuzatdik. Aksariyat mualliflar texnikaviy va xo‘jalik qarorlarini qabul

qilishni tavakkalchiliksiz amalga oshirib bo'lmaydigan g'oyani ilgari surmoqdalar chunki tavakkalchilikni tan olmaslik, rivojlanishga sun'iy to'siq kuygan bilan barobardir. Biz ishlari bilan tanishgan yana bir guruh mualliflar: tavakkalchilikning mohiyati-maqсадga erishishda ko'riladigan zararda emas. Balki maqsadga erishish uchun yo'nalishni o'zgartirish to'g'risida qabul qilingan qarorlar uchun yaratilgan imkoniyatda degan g'oyani ilgari suradilar. Tavakkalchilik tushunchasini ko'rinishi mumkin bo'lgan zarar imkoniyati darajada tor ma'noda talqin qilinishi uni iqtisodiy sohada to'g'ri qo'llanilishini ancha cheklab qo'yadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, ba'zi iqtisodchilar so'zma-so'z «tavakkalchilik» va «noaniqlik» terminlar tushunchalari orasidagi farqni izlashadi. Noaniq vaziyatlardan tavakkalchilik vaziyati sifatida sodir bo'lishi ehtimol bo'lgan va hatto baholangan noma'lum hodisalar qaraladi. Ayni paytda sodir bo'lishi ehtimolini oldindan bilmagan noaniq, an'anaviy usullar bilan bartaraf etolmagan vaziyatlarni - «noaniqlik» deb ataymiz. Bundan ancha mashhur bo'lgani «vis major» (yengilmas to'siq) bo'lib uning sodir bo'lishi hamma vaqt to'la tasodifdir.

Rejalashtirilgan kelgusi natijalardan chekinish hamma vaqt zarar ko'rish bilan bog'liq bo'lmay, goho qo'shimcha daromad ham keltiradi. Shunga ko'ra daromad tavakkalchiligi ham mavjud bo'lib, u xarajatlar qilish tavakkalchiligi bilan bir qatorda namoyon bo'ladi va qo'shimcha daromad (foyda) olishdagi tavakkalchilik darajasini baholash imkonini beradi.

2.3. Tavakkalchilikni turlar va elementlarga bo'linishining nazariy asoslari

Iqtisodiy o'sishda tasodifiy omillar ta'sirini tan olinishi, kutilgan vaziyatni sodir bo'lishini orqaga surishi, yoki uni mazmun - mohiyatini o'zgartirishi mumkinki, u o'z-o'zidan kun tartibiga, xo'jalik tavakkalchiligi muammolarini qo'yadi. Iqtisodiyotni davlat boshqaruvi sharoitida 2 turdagi xo'jalik tavakkalchiligi mavjud, aynan xalq xo'jaligi tavakkalchiligi (global, umumiy) va tashkilot doirasidagi tavakkalchilik (loaqal, mahalliy) bo'lib, ular dialektik yagona qarama-qarshilikda turadi, bir-birini to'diradi, bir-biriga ta'sir etadi, ayni paytda ma'lum

darajada avtonom holda uchraydi. Ular shuningdek, o'zaro qarama-qarshi mayl, rag'batlarni tashuvchi hamdir, ayniqsa u iqtisodiy muhit ikkala tavakkalchilik vaziyatini vujudga keltirish uchun bir xil imkoniyat yaratganda yaqqol namoyon bo'ladi. Tavakkalchilik elementlarini paydo bo'lish imkoniyatlari nafaqat yirik yuqotishlarda ifodalanadi, balki birinchi navbatda katta daromad olishda ham gavdalanadi, shuning uchun ham barcha xo'jalik rahbarlari tavakkalchilikga borishadi. Bir xil sharoitda olinadigan katta daromad-jadval rivojlanish natijasidir.

Tavakkalchilikni hisobga oluvchi rejalashtirilgan tadbirda ijobiy natijaga erishishni ta'minlovchi sharoit yaratish-murakkab ish. Bu sharoit birinchi navbatda iqtisodni boshqarish tizimi bilan belgilanadi.

Davlat tomonidan boshqariluvchi iqtisodiyotni boshqarish tizimida katta rol (katta hajmda) tashkilotlar o'ynaydi. Ular nafaqat o'zlari ishlab chiqaruvchi mahsulotlar miqdorini belgilaydi, ya'ni kelgusida ularni sotilishga tavakkalchilikga boradi va shuning uchun ham tashkilot rivoji uchun yo'naltirilgan bir qism mablag' ularning xususiy qarorlari ixtiyorida bo'ladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy shart sharoit tashkilot darajasida, shuningdek xalq xo'jaligining barcha darajasida, shuningdek xalq xo'jaligining barcha darajasida jadval rivojlanish bilan bog'liq tavakkalchilikni qabul qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Tavakkalchilikning ikki (global va loaqal) turini yana ikkiga ajratish mumkin:

- uzoq muddatli (rivojlanish bilan bog'liq tavakkalchilik):
- qisqa muddatli (kon'yunkturali) tavakkalchilik.

Uzoq muddatli tavakkalchilik (ya'ni rivojlanish bilan bog'lik tavakkalchilik) hammadan oldin xalq xo'jaligining barcha darajasida qarorlar qabul qilish uchun xarakterli bo'lsa, qisqa muddatli (kon'yunkturali) tavakkalchilik bosh darajada loaqal tavakkalchilikga xosdir, ya'ni tashkilot darajasidagi qarorlar tavakkalchiligidir. Lekin bunday xulosa bizni o'ta noto'g'ri yo'nalishga olib borishi mumkin. Bir tomondan u xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirishda kon'yunktur imkoniyatlardan foydalanish va uni tarifini o'z ichiga olmaydi, ikkinchi tomondan tashkilot oldida istiqbolli rivojlanishni maqsad qilqib qo'yadi. Xalq xo'jaligining barcha tarmog'i, alohida tashkilot rivoji uchun bunday xulosaning naqadar salbiy ekanligini quyidagi misolda aniq ko'rish mumkin.

Tashkilot ishlab chiqarishdagi o'zining tutgan o'rnidan kelib chiqib, kon'yunkturaviy o'zgarishlarga jadal moslashadi. Lekin u faqatgina barqaror kon'yunkturaviy intilishlardan o'zining joriy rejalarini amalga oshirishda foydalanadi.

Qaror qabul qilishning bu jarayoni nafaqat o'z imkoniyatlarini hisobga olishga tayanishi, balki shunday strategiyani ishlab chiqishi kerakki, u «hamkor»lar, hamda raqiblarning xatti-harakati va qabul qilishi mumkin bo'lgan qarorlarini ham hisobga oladi. Faqat bunday mp'ljallarni obyektiv baholash orqali tashkilotni kelgusi muvaffaqiyatini ta'minlash mumkin.

Maxsus adabiyotlarda tavakkalchilik turlarini boshqacha tasniflash usullari keltiriladi. Ular uch yirik guruhdan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik tavakkalchiligi;
- insonning o'zini tabiati bilan bog'liq tavakkalchilik;
- tabiiy omillar bilan bog'liq tavakkalchilik.

Bu tavakkalchilik eng sodda qarordan tortib eng murakkab qarorgacha barchasini ajralmas xislati ekanini yaqqol namoyon etadi.

Qolaversa, «xo'jalik tavakkalchili»gi tushunchasi uz tarkibiga bevosita tabiat omillari bilan bog'liq tavakkalchilikni hamda keyingi 2 turdagi tavakkalchilikni iqtisodiy oqibatlarini biriktiradi.

Ayni paytda jamiyatning iqtisodiy hayoti inson tabiati va tabiiy omillar bilan bog'liq tavakkalchilikga aks ta'sir ko'rsatadi va ularning mazmunini uzgartiradi. Bu o'zaro bog'liqlikda bir qancha ta'sir etuvchi omillar shakllanadi masalan «inson tabiati bilan bog'liq tavakkalchilikda quyidagi elementlarini (masalan: kasallik, baxtsiz hodisa, o'lim, qobiliyat, xayrixohlik va boshqalar), «iqtisodiy» elementlarini (masalan: ish kuchini qo'nimsizligi, kamomad, o'zlashtirish, ishchilarni malaka darajasi, iqtisodiy manfaatdorlik) kabilar.

Qayd etib utilgan tavakkalchilik turlaridan xo'jalik tavakkalchiligi uchun ancha muhimi bu tabiat omillari bilan bog'liq tavakkalchilik bo'ladi, tabiiyki u ishlab chiqarishi kimiyoviy biologik va boshqa tabiiy jaryonlar bilan bog'liq bo'lsa.

Xo'jalik tavakkalchiligi ham 2 turga: muvaqqat va obyektiv (hududiy)ga bulinadi.

Masalan: Muvaqqat tavakkalchilik mahsulot ishlab chiqarish

jarayonida keraksiz bo'lib qolganda paydo bo'ladi, u holda ishlab chiqarish to'g'risidagi qaror mahsulot uchun talab barqaror bo'ladi deb hisoblanadi.

Obyektiv tavakkalchilik mazkur hududda, aniq bozorda ishlab chiqarilgan mahsulot sotilmay qolganida paydo bo'ladi. Bu hol asosan tashqi savdo muammolari, xalqaro bozor kon'yunkturasiga ta'sir oqibatida vujudga keladi. Biz endi xo'jalik tavakkalchiligini ta'kidlab utilgan yuqoridagi turlarining alohida holda xiyolat va xususiyatlariga to'xtalamiz.

Xo'jalik tavakkalchiligi kategoriyalari noaniq sharoitlarda ishlab chiqarishni rejalashtirish, iqtisodiy qonunlar tavsifi, ishlab chiqarish jarayonlari, tadbirkorlik daromadi kabi siyosiy, iqtisodiy tushuncha va masalalar bilan bog'liq, uning tahlili nafaqat ta'kidlangan kategoriyalarni tadqiq etish uchun balki mustaqil kategoriya sifatida ham zarur.

Tadbirkorlik daromadini tadqiq etishdagi tavakkalchilik to'g'risida klassik nazariyotchilar (Senior, Mill) boshlanishda tadbirkorlik daromadi strukturasi foiz (kiritilgan kapitalga nisbatan xissa sifatida), tadbirkorning ish haqi, va nihoyat tavakkalchilik uchun to'lov (tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilik imkoniyatlarini koplasi misolida) kabi bo'laklarga ajratdilar. Natijada ko'pchilik xorijiy iqtisodchilar (Samyuel Rod, Seligman, Sey, Klark va boshqalar) tadbirkorlik daromadini bevosita tavakkalchilik nuqtai nazaridan turib ya'ni tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni baholay olishda deb ifodalamoqda.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni boshqarishni nazariy asoslari uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.
2. Tavakkalchilik prinsiplari uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.
3. Tavakkalchilikka oid yozilgan adabiyotlar va olimlarni bilish uning nazariy asoslarini rivojlantiradi.
4. Tavakkalchilikni ilmiy jihatlarini farqini o'rganish uni boshqarishda noaniqlikga chek qo'yadi.
5. Tavakkalchilikni nazariy asoslarini bilish tadbirkorlikni rivojlantirishni asosiy yo'li hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchiligining nazariy asoslari nima?
2. Loqaal va global tavakkalchilik to'g'risida ayting.
3. Tavakkalchilik turlarini asoslab bering.
4. Tavakkalchilikni asosiy xususiyatlarini izohlab bering.
5. Tavakkalchilikni nazariy jihatlarini o'rganishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?
6. Tavakkalchilik fanidan qanday olimlarni bilasiz, ularni ilmiy izlanishlari nimadan iborat?
7. Tavakkalchilikni boshqarishda qanday nazariy jihatlarini bilish zarur?
8. Tavakkalchilikni ilmiy kategoriyalarini aytib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2003.
2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. Т.: Адолат, 1999-2005.
3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. М.: Финансы и статистика, 2004.
4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.
5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.
6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.
7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.
8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.
9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

III BOB

TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH STRATEGIYASI

3.1. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining mohiyati

Strategik menejmentning asosiy yoʻnalishlardan biri tashkilot rivojlanishining bosh yoʻnalishini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish dasturlarini tayyorlash va amalga oshirish kabilarni oʻz ichiga qamrab oladi.

Menejment nuqtai nazaridan qaraganda, strategiya tashkilotning uzoq muddatli raqobatdagi ustivorligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan istiqboldagi chora-tadbirlar tizimidir. Strategiyani ishlab chiqish tashkilot rivojlanishining eng optimal rivojlanishini tanlashdan iboratdir. Dastlab strategiya deganda resurslarni va katta hajmdagi tovarlarni boshqarish tushunilgan. Biroq, 70- yillarning oʻrtalarida Gʻarb mamlakatlari ortiqcha taklif davrini boshidan kechira boshlashdi. Shuning uchun ham uzoq muddatli raqobatdagi ustivorliklarga erishishga yoʻnaltirilgan strategiya birinchi darajali ahamiyatga ega tushuncha sifatida talqin etila boshlandi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining asosiy maqsadi boʻlib tavakkalchilikni boshqarish sohasida muhim darajadagi raqobat ustivorligiga erishish hisoblanadi.

Tavakkalchilikni boshqarish nuqtai nazaridan olib qaraganda, raqobat ustivorligi deganda – tavakkalchilik sharoitida firmaning raqobatchi tashkilotlarga nisbatan yanada foydali mavqeni egallashi tushuniladi. Bunday ustivorlik ikkita asosiy variantda oʻz ifodasini topishi mumkin. Birinchi variant tavakkalchilikni yuzaga kelishining potentsial imkoniyatlarini minimallashtirish, bunga mos ravishda, boʻlishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlar darajasini kamaytirish bilan bogʻliq boʻladi. Ikkinchi variant tavakkalchilik sharoitida qoʻlga kiritilishi mumkin boʻlgan potentsial manfaatlarni maksimallashtirish bilan bogʻliq boʻladi. Boshqacha aytganda, tavakkalchilik sharoitida yuzaga keladigan yoʻqotishlarning hajmi qanchalik darajada past boʻlsa va daromadlar darajasi qanchalik darajada yuqori boʻlsa, u holda bozorda firmaning raqobatchilarga nisbatan egallagan mavqei shunchalik darajada foydali va barqaror boʻladi.

Yuqoridagilarni umumilashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi doirasida firmaning uzoq muddatli raqobat ustivorliklariga tavakkalchilikni yanada samarali boshqarish hisobidan erishish mumkin. Bu yangi bozorlarni o'zlashtirish, yangi mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va tovar aylanmasining noan'anaviy usullarini joriy etish jarayonida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatli tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining asosini bozorda kuchli pozitsiyani egallash hamda kutilmagan holatlar, kuchli raqobat va ichki muammolar bo'lishiga qaramasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish holatida bo'lgan tashkilotni shakllantirish tashkil etadi.

Strategik tavakkalchilikni boshqarish vazifalari doirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) firmaning faoliyat sohasini aniqlash (shu jumladan, ko'rsatilgan sohada tavakkalchilik darajasini baholash) va uning rivojlanishini asosiy yo'nalishlarini shakllantirish;

2) tavakkalchilikni boshqarish strategiyasini (strategik rejani) ishlab chiqish;

3) strategik rejani amalga oshirish;

4) tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha faoliyat natijalarini baholash hamda strategik rejani amalga oshirish usullariga o'zgartirishlar kiritish.

Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasini tanlash jarayoni o'z ichiga quyidagi asosiy bosqichlarni qamrab oladi: joriy strategiyani aniqlashtirish; mahsulot tahlilini o'tkazish; firma strategiyasini tanlash va tanlangan strategiyani baholash.

Joriy strategiyani aniqlashtirish juda muhim hisoblanadi. Chunki tashkilotning qanday holatda ekanligi va tashkilot tomonidan qanday strategiyalar amalga oshirilayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib, kelajak to'g'risida qaror qabul qilish mumkin emas. Bunda joriy strategiyani aniqlashtirishning turli xil sxemalaridan foydalanish mumkin. A. Tompson va A. Striklandlarning fikricha, amalga oshiriladigan strategiyani aniq tushunish uchun beshtadan tashqi va ichki omillarni baholash zarur.

Tashqi omillar: firmaning faoliyat ko'lami va ishlab chiqariladigan mahsulotning turli-tumanlik darajasi, firmaning diversifitsiyalashganligi,

firma tomonidan so'nggi paytlarda sotib olingan ashyolarning hamda o'z mulkining bir qismini sotishning umumiy xarakteri va tabiati; oxirgi davrda firma faoliyatining strukturasi va yo'nalganligi; so'ngi paytlarda firma ixtisoslashgan imkoniyatlar; tashqi xavf-xatarlarga munosabat.

Ichki omillar: firmaning maqsadlari; resurslarni taqsimlash mezonlari va ishlab chiqariladigan mahsulot bo'yicha kapital qo'yilmalarning mavjud strukturasi; ham rahbariyat va ham real amaliyotga mos ravishda amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosat tomonidan moliyaviy tavakkalchilikka nisbatan munosabat; Ilmiy – tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari sohasida harakatlarni mujassamlashtirish darajasi; alohida funksional sohalarning strategiyalari (marketing, ishlab chiqarish, kadrlar, moliya, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar).

Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatadigan tashkilotda strategik menejment bilan tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik ta'minlansa, u holda ushbu tashkilotni bozordagi muvaffaqiyati ma'lum darajada ta'minlanadi. Chunki, sifatli ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi tashkilotning kelajakda ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni samarali bartaraf etish imkoniyatini yaratadi.

3.2. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi turlari

Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining o'ziga xosligi va mazmuniga boshqaruv darajasi muhim ta'sir ko'rsatib, ushbu ta'sir doirasida tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bugungi kunda, xorij tajribasida boshqaruv darajasiga bog'liq ravishda strategiyaning uchta asosiy turini ajratib olish qabul qilingan bo'lib, ular quyidagilardir: portfel strategiya, tadbirkorlik strategiyasi va funksioanal strategiya.

Portfel strategiya - bu strategiyaning yuqori darajasidir. Portfel strategiyani boshqarish korporatsiya tarkibiga kiruvchi barcha korxonalar va tashkilotlarni qimmatli qog'ozlar yordamida boshqarishni nazarga to'tadi.

Biznesda portfel deganda bosh kompaniyaga tegishli bo'lgan sho'ba korxonalarining qimmatli qog'ozlari to'plami tushuniladi.

Portfel ikki turda bo'ladi: sinergetik (markaziy, birlashtirilgan) va diversifikatsion (nomarkazlashgan).

Sinergetik portfellarni shakllantirish yo'llari:

1. Yangi korxonalarni sotib olish;
2. Korxonalar portfeli bo'lgan korxonalar va ularning keyingi rivojlanishini mustahkamlash;
3. Portfel asosida eski korxonalarni likvidatsiya qilish;
4. Boshqa korporatsiyalar tomonidan yaxshiroq boshqarilishi mumkin bo'lgan kompaniyalarni sotish;
5. Moliyaviy resurslarni markazlashgan tarzda taqsimlash va boshqarish;
6. Korporatsiya tarkibiga kiradigan barcha kompaniyalarning aniq strategik yo'nalganligi;
7. Korporativ missiyalarning yagonaligini ta'minlash maqsadida sinergizm ustivorliklaridan foydalanish.

Diversifikatsion portfellarni shakllantirish yo'llari:

1. Biznesni rivojlanish dinamikasining o'zi tadbirkorlik faoliyatining boshqa sohasida ixtisoslashgan firmalarning bosh kompaniyalardan ajralishiga imkon yaratadi;
2. Texnik taraqqiyot bosh liniya bilan faqatgina texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga imkon yaratadi;
3. Korporatsiya yoki holding doirasida alohida kompaniyalarga keng xo'jalik mustaqiligi taqdim etiladi.

Umuman olganda portfel startegiya quyidagilarni nazarga to'tadi:

1. Yangi kompaniyalarni sotib olish;
2. Korporatsiya tarkibidagi kompaniyalarni mustahkamlash va kengaytirish;
3. Noloyiq kompaniyalarni likvidatsiya qilish;
4. Moliyaviy resurslarni joylashtirish va nazorat qilish;
5. Korxonalar portfelinin tarkibida mavjud bo'lgan hamkorlikdagi xatti-harakatlarning yagonalik samarasidan foydalanish.

Ishbilarmonlik strategiyasi — bu korporatsiya tarkibiga kirgan yoxud bozorda mustaqil faoliyat ko'rsatadigan alohida firmalar darajasidagi strategiyadir.

Ishbilarmonlik strategiyasining asosiy vazifasi o'z firmasining uzoq muddatli raqobat ustivorligini ta'minlash hisoblanadi.

Ishbilarmonlik strategiyasini amalga oshirish uchta bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Sifatli korporativ missiyani ishlab chiqish;
2. Korporatsiyaning maqsad va missiyalarini ishlab chiqish;
3. Strategik ustivorliklarga erishish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Funksional strategiya bu firmaning alohida bo'linmalari darajasidagi strategiyadir.

Funksional strategiyada quyidagi vaziyatlar muhimdir:

1. Strukturaviy bo'linmaning aniq mazmunini aniqlash;
2. Bo'linmaning barcha xodimlari tomonidan ishbilarmonlik strategiyasining maqsad va vazifalarini aniq o'zlashtirish;
3. Har bir ishchi tomonidan uning bo'limda egallagan o'rnini va bo'limning firmada egallagan o'rnini aniq anglanishi;
4. Firmaning barcha bo'linmalari funksiyalarini aniq ajratish;
5. Funksiyalarni muvofiqlashtirish va bo'limlarning xatti-harakatlarini birlashtirish.

Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasini amalda tadbiq etish doirasida raqobat strategiyasi birinchi o'ringa chiqadi. Chunki, firma raqobatchi tashkilotlarga nisbatan qanchalik foydali mavqega ega bo'lsa, u shunchalik kam darajada tavakkalchilikning salbiy ta'siriga duch keladi. Keyingi paragrafda tavakkalchilikni boshqarishda raqobat strategiyasining tutgan o'rnini xususida to'xtalib o'tamiz.

3.3. Tavakkalchilikni boshqarishda raqobat strategiyasi

Raqobat strategiyasi mijozlarni jalb etish, raqobat kurashini olib borish va bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida firma tomonidan tadbiq etiladigan biznesga bo'lgan yondashuvni o'z ichiga oladi.

Raqobat strategiyasini ikkita tarkibiy segmentlar guruhiga bo'lish mumkin:

- qisqa muddatli taktik usullar (tashqi muhitning o'zgarishiga qisqa ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan usullar);
- uzoq muddatli xatti-harakatlar (kompaniyaning kelgusidagi raqobat imkoniyatlarini yaratishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar).

Raqobat strategiyasi ishbilarmonlik strategiyasiga qaraganda nisbatan tor darajadagi yo'nalganlikka ega. Ishbilarmonlik strategiyasi nafaqat

raqobat siyosatini o'tkazish masalasiga e'tiborni qaratadi, balki uning funksional imkoniyatlarini ifoda etadi.

O'z yo'nalganligiga bog'liq bo'lmagan tarzda raqobat strategiyasi hamma vaqt ikkita asosiy savolni ko'rib chiqadi:

1. Bozorda kompaniyaning faoliyat maqsadi;
2. Kompaniya shug'ullanishga intilayotgan raqobat ustivorligining ko'rinishi.

Kompaniya raqobat strategiyasining uchta asosiy turi mavjud bo'lib, ular quyida o'z ifodasini topgan:

- quyi xarajatlar strategiyasi;
- keng differensiallashuv strategiyasi;
- optimal xarajatlar strategiyasi.

Biz quyi xarajatlar strategiyasi xususida to'xtalib o'tmoqchimiz. Quyi xarajatlar strategiyasi xaridorlarni jalb etish maqsadida ishlab chiqariladigan tovarning to'liq xarajatlarini kamaytirishni nazarga tutadi.

Xarajatlar bo'yicha ustivorlikka erishish uchun barcha qadriyatlar tizimidagi firmaning umumiy xarajatlari raqobatchilarning ja'mi xarajatlaridan kam bo'lishi kerak. Bunga quyidagi ikkita usul yordamida erishish mumkin:

1. Qadriyatlar tizimining muayyan bo'g'inlarini takomillashtirish, ya'ni ishni raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq qilish. Ichki qadriyatlar tizimi bo'yicha operatsiyalarni samarali amalga oshirish va qadriyatlar tizimi xarajatlari darajasini aniqlaydigan omillarni samarali boshqarish.

2. Alohida operatsiyalarning birlashuviga qadar kompaniya qadriyatlari tizimini tuzatish yoki qadriyatlar tizimidagi yuqori xarajatli xatti-harakatlardan voz kechish.

Xarajatlar bo'yicha liderlikning raqobat strategiyasi asosan quyidagi holatlarda kuchlidir:

- sotuvchilar orasidagi kuchli baho raqobati;
- tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulot standart bo'lib uning xususiyatlari barcha doiradagi iste'molchilarning talablariga javob beradi;
- xaridorlarni jalb etish maqsadida mahsulotni differensiallashtirishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, bunda xaridorlar uchun bahodagi narx muhimdir;

- ko'pchilik xaridorlar mahsulotdan bir xil tarzda foydalanishadi. Bunday holda tovarning xususiyatlari yoki sifati emas, balki aynan

narxning o'zi iste'molchining afzalliklarini belgilab beradigan asosiy omil hisoblanadi;

-o'z shartlarini iste'molchilarga o'tkazish kuchiga ega bo'lgan katta miqdordagi iste'molchilarning mavjudligi.

Tavakkalchilikni boshqarishdagi raqobat strategiyasi tashkilotning bozordagi raqobat ustivorligini ta'minlashga qaratilgandir. Biroq, raqobat strategiyasi boshqa turdagi boshqaruvlarda ham mavjud bo'lib, tavakkalchilikni boshqarishdagi raqobat strategiyasining ulardan farqli jihati asosan tavakkalchilik darajasini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuida o'z ifodasini topadi.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi bozor sharoitida kutiladigan tavakkalchilik darajasini pasaytirish nuqtai-nazaridan tashkilotning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: firmaning faoliyat sohasini aniqlash va uning rivojlanishini asosiy yo'nalishlarini shakllantirish; tavakkalchilikni boshqarish strategiyasini (strategik rejani) ishlab chiqish; strategik rejani amalga oshirish; tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha faoliyat natijalarini baholash hamda strategik rejani amalga oshirish usullariga o'zgartirishlar kiritish.

3. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi quyidagi uchta asosiy turga bo'linadi: portfel strategiya, tadbirkorlik strategiyasi va funktsioanal strategiya.

4. Tavakkalchilikni boshqarishda raqobat strategiyasining uchta asosiy turi mavjud bo'lib ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan: quyi xarajatlar strategiyasi, keng differensiallashuv strategiyasi, optimal xarajatlar strategiyasi.

5. Quyi xarajatlar strategiyasi xaridorlarni jalb etish maqsadida ishlab chiqariladigan tovarning to'liq xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarga tutadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilikni boshqarish nuqtai-nazaridan boshqaruv strategiyasi deganda nima tushuniladi?

2. Qanday qilib tavakkalchilikni boshqarish jarayonida uzoq muddatli

raqobat ustivorligiga erishish mumkin?

3. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining asosini nima tashkil etadi?

4. Tavakkalchilikni strategik boshqarishning asosiy vazifalarini sanab bering?

5. Tavakkalchilikni boshqarish strategiyasining turlari, ular o'rtasidagi bog'liqlik va farqlarni tushuntirib bering.

6. Tavakkalchilikni boshqarish tizimida raqobat strategiyalari qanday ahamiyatga ega?

7. Quyi xarajatlar strategiyasining mohiyatini tushuntirib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2003.

2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. Т.: Адолат, 1999-2005.

3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. М.: Финансы и статистика, 2004.

4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.

5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.

6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.

7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.

8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.

9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

IV BOB TAVAKKALCHILIK CHEGARALARI, IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

4.1. Tavakkalchilikning huquqiy chegaralari

Xo'jalik rahbarlari to'liq mas'uliyat bilan boruvchi oqilona tavakkalchilik deb biz nimani ataymiz. Bu savolga turli qarashlardagi javoblar mavjud.

Masalan: polshalik iqtisodchi Bronislav Miits oqilona tavakkalchilikni asosiy fondlar, ishlab chiqarish hajmi, rentabellikda daromadlilik darajasi, xo'jalikning moliyaviy holati kabi parametrlar bilan bog'liq holda tadqiq etadi. Korxonada ishlab chiqarish nomenklaturasi xilma-xil bo'lib, moliyaviy holati qanchalik barqaror bo'lsa, tavakkalchilik xavfi shunchalik past bo'ladi. «Demak, bu korxonada qanchalik ko'p turdagi mahsulot ishlab chiqarib, katta kapitalga ega bo'lsa u tavakkalchilikka shunchalik kam darajada ta'sirchan bo'ladi». Bunday xo'jalik rahbarlari, dadil holda «tavakkalchilik vaziyat»larda qaror qabul qila oladi. Bizning mulohazalarimiz bo'yicha xo'jalik rahbarning tavakkalchilik sharoitidagi mas'uliyati faqat aniq qarorlar darajasi bilan tadqiq etilishi mumkin.

To'liq faoliyatni bunday parametrlar bilan tahlil qilish va uning asosida umumiy xulosaga kelishi bizning fikrimizga maqsadga muvofiq emas.

Vengriyada fuqarolik huquqi bekorga hozirgacha tavakkalchilik sohasidagi mas'uliyatni tartibga solish to'g'risida o'ylamaydi. Biz bu yerda tavakkalchilikning tartibga solishni huquqiy muammolarini muhokama qilmaymiz, lekin bunga doir ba'zi bir o'z mulohazalarimizni aytib o'tmoqchimiz: aniq xo'jalik sharoitidan kelib chiqqan holda, tavakkalchilikka oid muammolarni xal qilishda xo'jalik rahbariga zarur bo'lgan, u asoslanuvchi obyektiv protsessual holatlar va tashkiliy prinsiplarni bayon etish zarur.

Bizning fikrimizcha, tavakkalchilikning iqtisodiy chegaralari quyidagicha aniqlanadi:

-xo'jalik rahbari qaror qabul qilish jarayonida, agar korxonada ixtiyoridagi fondlar korxonani rivojlantirish masalalari o'lchamiga mos kelsa tavakkalchilikka borishi mumkin. Bu uchun asos bo'lib mahsulotlarni sotish va ishlab chiqarishni uzluksizligi, daromadli xo'jalik yuritish,

iste'molchilar va transportchilar bilan bir maromdagi aloqalar, to'lovga qobillikning yuqori darajasi, aniq buxgalteriya hisobi va moliyaviy tizim rivojlanishi va boshqalar xizmat qilishi mumkin.

Xo'jalik rahbari agar mavjud fondlarni tegishli tartibda boshqara olsagina, qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilikka borishi mumkin ya'ni:

-rivojlanish muammolari xal etilayotganida zarur asosiy va oborot fondlar tizimi saqlanadi. Shunday qilib, yangi kapital quyilmalarda mahsulot sifati va boshqaruv tizimi talab etiladigan darajasi hisobga olinadi. Ortiqcha zahiralar (na xomashyo zahirasi, na sotilmay qolgan mahsulot) jamg'arilmaydi;

-tashkilot rivojlanishi muvozanatini buzmaslik uchun ba'zi-bir yuqotishlar o'rmini to'ldirish maqsadida mos ravishda rezerv sug'urta fondi yaratiladi. (Keyin bu sug'urta fondi tashkilotning umumiy xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi, va amaliyotda aksariyat hollarda u tavakkalchilik oqibatlarini kam yoki ko'p darajada ko'ringan, nazarda tutilmagan xarajatlarni qoplashga sarflanadi);

-sug'urta fondi va undan foydalanish bandlari o'lchami chegaralari oldindan aniq belgilanish lozim.

Qarorlar qabul qilish jarayonida ekspertlarni tanlash, zarur informatsiyalarni to'plash va qayta ishlash, kabi masalalarning zarur vakolatiga erishish baholash mezonini muammolari va real nuqtai nazarni yuzaga keltiradi.

Yuqorida qayd etilganlar javobgarlikga tortish va mas'uliyatni zimмага olish nuqtai nazaridan baholanib va ko'rsatiluvchi talablarni keltirib chiqaradi. Lekin ular quyidagi aniq miqdoriy bahoga jalb etilmovchi muhim omillar: tavakkalchilik bilan bog'liq qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratuvchi vaziyat, rahbar didi, qaror va tanlovni belgilovchi rahbarning shaxsi moddiy axvoli, uning vazifasi, bevosita xodimlarni to'plash bo'yicha xo'jalik rahbarlarning huquq va imkoniyati va h.z) bilan to'ldirilishi lozim.

4.2. Tavakkalchilikning huquqiy jihatlari

Tavakkalchilik bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish-bu huquq nuqtai nazaridan ikki tomonlama qarab chiqiluvchi masaladir. Bir tomondan-u o'ta muhim fuqarolik huquqiy javobgarlik holati ikkinchidan u vakolat to'g'risidagi masaladir. Umuman maxsus yuridik adabiyotlarda

tavakkalchilik bilan bog'liq qarorlar qabul qilish va bunday qarorlar uchun javobgarlik mas'uliyatini huquqiy tartibga solish, tartibga soluvchi iqtisodiy manfaatdor xo'jalik obyektlari bo'limida qarab chiqiladi.

Bu bo'limga xo'jalik hisobi sharoitida ko'rilgan zararlarni qoplash masalalari ham kiritilgan, lekin xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish natijasida yuqori tashkilotlar rejalarini barbod etgani uchun qo'llaniluvchi jarimalar bundan mustasno.

Agar tashkilotning xo'jalik manfaatlari davlat manfaatlari bilan mos kelsa, u holda jamoatchilik manfaatlariga zid holatlar vujudga keladi. Shuning uchun xo'jalik rahbarlarini jinoiy javobgarlikka tortish usuli kam qo'llaniladi. Ko'p hollarda qandaydir huquqiy manfaatlarga zid xatti-harakat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash usulidan foydalaniladi.

Xo'jalik tavakkalchiligi bilan bog'liq harakatlar uchun javobgarlik masalasini biz fuqarolik huquqi pozitsiyasidan turib tadqiq qilamiz.

Bu uchun birinchi navbatda tavakkalchilikni huquqiy tushunchasiga tarif berishimiz lozim. Yuqorida keltirilgan tavakkalchilikni iqtisodiy va matematik tavsifi faqatgina huquqiy tarif uchun asos bo'la oladi holos.

Tavakkalchilikning zamonaviy huquqiy tushunchalarida qaror qabul qiluvchi shaxs xatti harakatidagi noaniq omillarni mavjudligi ifodalanadi, bu esa huquqiy adabiyotlarda xukmron bo'lgan tavakkalchilikka salbiy munosabatga olib keladi: huquqiy nuqtai-nazardan olib qaraganda tavakkalchilik shartnoma bo'yicha zararning qoplanishidan boshlanadi. Tavakkalchilikdan ko'riladigan zarar tushunchasini qarab chiqar ekanmiz, uni xavf-xatar soluvchi vaziyat oqibatlariga qiyoslash mumkin. Xavf-xatar soluvchi holatni biz qandaydir yuqotishga imkon yaratuvchi holat deb ta'riflaymiz. Amalda bunday holatlarning hammasi ham zararli oqibat bilan tugamaydi. Bunday zararning qandaydir bir ulushi uchun hech kim javobgar bo'lmaydi. Shunga o'xshash vaziyat tavakkalchilik holatida ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, keyingi holatiga nisbatan quyidagi muammo yuzaga keladi: kishi zarar ko'rsa-yu, zararni hech kimdan undirib bo'lmasa va buning uchun hech kim moddiy javobgarlikka tortilmasa, bunday holat noto'g'ri hisoblanadi.

Tavakkalchilik manbai boshqacha so'z bilan aytganda ko'rilgan zarar manbai (sababi)-bu xo'jalik rahbari tomonidan xo'jalik faoliyatini kelajagi uchun qilingan hisob-kitoblarni amalga oshmay qolishi oqibatida ko'riladigan zarar miqdori yoki daromad ololmaslik, olganda ham juda

oz miqdorda foyda ko'rishga aytiladi.

Zarar xo'jasizlik oqibatida ham sodir bo'lishi mumkin, lekin uni aniqlashning aniq chegarasi mavjud emas.

Huquqiy adabiyotlarda uzoq muddat xukmronlik qilgan mulohazalar «xo'jasizlik» tushunchasi har xildagi faoliyat turlariga nisbatan bir mazmunga ega emas va amaliyotda bir xil ma'noda ishlatilishi mumkin emas degan g'oyani ilgari surgan.

Shuning uchun bu tushunchaga tabaqalashtirish yuzasidan yondoshamiz.

Qaror qabul qilish kabi alohida hollar oqibatida yuzaga keluvchi yuqotishlarga tabaqalashgan holda yondashuv ayniqsa muhimdir. Bu sohada xo'jasizlik tushunchasi xo'jalik qarorlari; ularni bajarilishi va baholanishi orasida na muvaqqat, na hududiy uzilish bo'lmaganida, tashkilotni boshqarish uchun shu sohani mo'taxasisi bo'lish kifoya bo'lgan paytda unchalik ahamiyat kasb etmas edi. Rivojlangan sotsialistik xo'jaliklarida xususiy mas'uliyat va tavakkalchilik boshqaruv funksiyasining yangi alomatiga aylanadi. Davlat bir qatorda tashkilot sohibi sifatida keltirilgan zarar uchun va tavakkalchilik uchun mas'uliyat boshqaruv funksiyasini bajarib turgan direktor zimmasiga yuklatiladi. Qandaydir qabul qilingan qaror oqibatida ko'rilgan zarar voqea sodir bo'lgan zahotiyoq sezilmaydi. Uni aniqlash uchun uzoq muddatli tahlil talab etiladi. Qayd etib o'tganimizdek, tavakkalchilik bilan xo'jasizlik orasidagi aniq chegarani ko'rsatish juda qiyin. Olingan natijalar birgina alohida qaror oqibati bo'lmay, balki barcha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat natijasi bo'lishi mumkin. Shunday vaziyat ham bo'ladi-ki, uning natijasida avtomatik tarzda olinadigan foydaning kamayishi yoki qaror natijalari ijobiy bo'lsa daromad aniq o'sishi bilan bog'liq bo'ladi.

Lekin bu, boshqacha xo'jalik faoliyatlari «natijalari» uchun jinoiy va mehnat huquqi bo'yicha javobgarlikka tortishga asos yuk degani emas.

Agar lavozim yo'riqnomasi talablari buzilsa, rahbarning o'z lavozimiga noloyiqligi, uquvsizligi, savodsizligi oqibatida o'tkazilgan biror tadbir, yoki qabul qilingan qaror moddiy, ma'naviy zarar keltirsa, yoki xodimni sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatsa, u rahbarni javobgarlikka tortilishi muqarrar.

Keyingi muhim va muammoni murakkablashtiruvchi muhim xususiyat bu boshqaruv qarorlari oqibatida qoidaga ko'ra zarar ko'rilmaydi-yu,

qabul qilinmagan boshqa qaror oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan natijaga nisbatan past ko'rsatkichga erishiladi.

Qabul qilingan va qilinmagan natijasida ko'rilgan zarar yoki olinmagan daromadni baholash shu qadar noaniq-ki, unda ko'rilgan yaqqol namoyon bo'lmay mavhum tavsifga ega bo'lmaydi, hamda uni qator hollarda pulda baholash imkoni bo'lmaydi.

Tavakkalchilikni huquqiy tartibga solish alohida xo'jalik qarorlari oqibatida yuzaga keluvchi zararlarni qoplash uchun korxonada o'z daromadi hisobida rezerv fondini shakllantirish lozimligidan kelib chiqadi. Tashkilot keltirilgan zararni toki o'z rezerv fondi hisobidan qoplab turgan ekan hech qanday sanksiya to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Rezerv fondini asossiz ko'p sarflab yuborish yuqori tashkilotlar aralashuvi kabi ma'lum sanksiyalarni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Shunga o'xshash bizda ham quyidagicha nuqtai nazar paydo bo'ladi, ya'ni korxonada direktori rezerv fondi summasiga teng miqdordagi ko'rilgan zarar summasi bilan bog'liq tavakkalchilikka borishi mumkin, holos. Rezerv fondi chegarasidan yuqori tavakkalchilik edi. Biz uchun ortiqcha bo'ldi. Juda katta miqdordagi tavakkalchilik uchun mas'uliyatni rahbar vakolati doirasidan ortiq darajada mustaqil holda o'z zimmasiga ololmaydi, chunki rezerv fondi o'lchamidan katta zarar bilan bog'liq tavakkalchilikka borish-yuqori organ huquqiga kiradi. Sanksiya to'g'risidagi masalaga qaytar ekanmiz, shu narsani qayd etishimiz lozimki, hamma vaqt ham yuqori tashkilot korxonada mulkiga yetkazilgan moddiy zararlar yoki rezerv fondi ortiqcha sarflash uchun jazo chorasini qo'llash shart emas. Jazo choralarini qo'llash masalasida berilgan bahoga bog'liq bo'ladi. Agar tashkilot o'z hisobidan yoki hech bo'lmaganda bankdan olingan qisqa mudatli kredit hisobidan ko'rilgan zarar (olinmagan daromad)ni qoplash imkoni bo'lsa u holda sanksiya qo'llanmasligi mumkin. Tashkilot rejasida tavakkalchilik elementlari to'g'risidagi qaror uz ifodasini topishi zarur. Bu qaror yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanmaydi, uning bajarilishi yuqori organ tomonidan nazoratga olinmaydi, ammo uni rejaga kiritilishi unga qonuniy tus berish va qabul qilingan bunday qaror natijasi uchun mas'uliyatni nazorat qilish maqsadini nazarda tutadi. Mabodo kutiladigan xavf-xatar va ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar miqdori tavakkalchilik elementlariga oid qarorlar qabul qilish sohasi va vakolatidan yuqori bo'lsa, u holda yuqori tashkilot bilan kelishi zarur.

4.3. Tavakkalchilikni turlarga ajratishning umumiy tamoyillari

O`z faoliyatlari jarayonida tadbirkor bir-biri bilan vujudga kelish vaqti va joyi, tashqi hamda ichki omillari to`plami, omillarni ta`sir darajasi tahlil usullari va bayon etish uslublari bilan farq qiluvchi xilma-xil turdagi tavakkalchilik jamlamasi bilan duch keladi.

Qoidaga ko`ra barcha turdagi tavakkalchiliklar o`zaro bog`liq bo`lib ular tadbirkor faoliyatiga bevosita ta`sir etadi. Bu holat tavakkalchilikni optimallashtirish bo`yicha bir to`xtamga kelishni chigallashtiradi va uning vujudga kelishi omillari sabablari, aniq tavakkalchilik tarkibini chuqur tahlil qilishin talab etadi.

Tadbirkorlik muammolariga bag`ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik tavakkalchilikni aniq tuzilgan sinflari tizimi mavjud emas. Tavakkalchilikning sinflarga ajratish vazifasi va maqsadidan kelib chiqqan holda uni sinflash uchun ko`plab yondashuvlar mavjud.

Tavakkalchilikni turlarga ajratish asoslari bo`lib xizmat qiluvchi muhim elementlarni quyidagilar tashkil etadi:

- vujudga kelish vaqti;
- vujudga kelish uchun asosiy omillar;
- hisobga olish xarakteri;
- keltirib chiqaradigan oqibatlari xarakteri;
- vujudga kelish sohasi va boshqalar.

Vujudga kelish vaqtiga qarab tavakkalchilik retrospektiv, hozirgi va perepektiv xillarga ajratiladi. Retrospektiv tavakkalchilikning xususiyati, uni pasaytirish usullarining tahlil qilish hozirgi va perspektiv tavakkalchilikni aniq bashorat qilish imkonini beradi.

Vujudga kelishini omillariga qarab tavakkalchilik siyosiy va iqtisodiy (tijorat) turlariga ajratilgadi. Siyosiy tavakkalchilik bu tadbirkorlik faoliyatiga ta`sir etuvchi siyosiy vaziyatni o`zgarishiga asoslangan tavakkalchilik (chegaralarni yopilish, boshqa mamlakatlarga tovarlarni kiritishni man` qilinishi, mamlakatda harbiy holatni joriy qilinish va h.z.).

Iqtisodiy tavakkalchilik - bu mamlakat yoki tashkilot iqtisodiyotidagi noxush salbiy o`zgarishlar oqibatida yuzaga keluvchi tavakkalchilik. Ancha keng tariqalgan, hamda xususiy tavakkalchiliklar o`z e`tiborlarini yunaltirgan iqtisodiy tavakkalchilik bu bozor kon`yukturasi o`zgarishi to`lovga qobillik muvozanatini buzilishi boshqaruv darajasidagi

o'zgarishlar bilan bog'liq tavakkalchilikdir. Bu turdagi tavakkalchiliklar bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib aksariyat hollarda ularni amalda bir-biridan farqlab bo'lmaydi.

Hisobga olish xarakteriga qarab tavakkalchilik ichki va tashqi turlarga ajratiladi. Tashqi tavakkalchilikga –bu korxonada faoliyatiga yoki uning kontakt auditoriyasiga bevosita bog'liq bo'lmagan tavakkalchilik (kontakt auditoriyasi-bu aniq tashkilot faoliyatiga real imkoniyat hamda manfaatdorlik bilan munosabatda bo'luvchi jismoniy va huquqiy shaxslar va ijtimoiy guruhlardir).

Tashqi tavakkalchilik darajasiga juda ko'plab, siyosiy, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, geografik va boshqa omillar ta'sir etadi. Ichki tavakkalchilikga – tashkilot va uning kontakt auditoriyasi faoliyati bevosita asoslashgan tavakkalchiliklar kiradi. Uning darajasiga tashkilot rahbarining ishbilarmonlik faoligi optimal tanlangan marketing strategiyasi, siyosati va taktikasi va boshqa omillar; ishlab chiqarish potentsili, texnik jihozlanganlik ixtisoslashuv mehnat unumdorligi mehnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi darajalari ta'sir etadi.

Keltirib chiqaradigan oqibatlariga qarab tavakkalchilik toza va spekulativga ajratiladi. Sof tavakkalchilik (adabiyotlarda u goho oddiy yoki statik deb nomlanadi)- hamma vaqt amalda tavakkalchilik faoliyatiga yuqotish olib kelishi bilan xarakterlidir.

Sof tavakkalchilikning asosiy sababi bo'lib tabiiy ofatlar, urushlar, baxtsiz hodisalar, jinoiy harakatlar va tashkilotlarni ishga layoqatsizligi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Spekulativ tavakkalchilik (ba'zida adabiyotlarda u dinamik yoki tijorat tavakkalchilik deb yuritiladi)-bu tadbirkor uchun kutilayotgan natijalarga nisbatan qo'shimcha daromad hamda yuqotish-zarar ham keltirishi bilan xarakterlanadi. Uning asosiy sabablari-soliq qonunchiligiga o'zgarishlar kiritishi valyuta kursi hamda bozor kon'yuk turlaridagi o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Sinfy guruhlariga ko'ra keng tarqalgan vujudga kelish sohasiga ko'ra tavakkalchilik bo'lib uning asosida faoliyat doirasi yotadi. Tavakkalchilikning paydo bo'lishini asosiy xususiyati nafaqat faoliyat doirasi qanday ilova qilinishi, qolaversa aniq subyekt tavakkalchilik faoliyatini qanday amalga oshirayotgani bilan bog'liq.

Aslida tadbirkorlik faoliyati quyidagi asosiy turlarga ajratiladi: Ishlab

chiqarish —unda tadbirkor, tadbirkorlik omillari sifatida mehnat qurollari va predmetlari, ishchi kuchidan bevosita foydalanib, keyinchalik iste'molchilarga sotish uchun-tovar, ish, xizmat, informatsiya hamda ma'naviy qimmatli mahsulotlarni ishlab chiqarish tijorat turi-unda tadbirkor vositachi sifatida bir shaxsdan tayyor tovarni sotib olib iste'molchiga sotadi. Unda daromad tovar narxiga qo'yilgan ustama narx hisobida vujudga keladi.

Moliyaviy turi — tijorat tadbirkorligining xususiy turi bo'lib unda oldi-sotdi predmeti sifatida tadbirkor tomonidan iste'molchiga sotiladigan pul yoki qimmatbaho yoki unga beriladigan kredit misolida qog'ozlar qatnashadi. Moliyaviy yoki (kreditni moliyaviy) tadbirkorlik-bu mohiyatiga ko'ra bir pul mablag'ni ikkinchisiga ma'lum haq evaziga - va muddatiga berib qo'yishida ifodalanadi. Moliyaviy tadbirkorning daromadi moliyaviy resurslarni sotish natijasida oladigan foiz stavkasi ya'ni qo'shimcha qiymatda shaqllanada. Bunday tarif hamma uchun keng qamrovli bo'la olmaydi. Masalan: Banklar faoliyati mazkur tarifga to'liq mos kelmaydi.

Vositachilik faoliyati — unda tadbirkor o'zi ishlab chiqarmaydi va o'zi sotmaydi, balki tovar ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi orasida tovar almashish va pul tovar operatsiyalari jarayonida boglovchi vazifasini bajaradi. Bu faoliyatining asosiy vazifasi va predmeti — o'zaro aloqada ikki manfaatdor tomonini uchrashtirishdan iborat. Bunday ko'rsatilgan xizmat uchun tadbirkor daromad foyda oladi.

Sug'urta faoliyati unda tadbirkor ma'lum bir miqdordagi to'lov evaziga iste'molchini (sug'urtalovchi) kutilmagan ofatlardan mol mulki hayoti va qimmatliklari ko'rishi mumkin bo'lgan zarar miqdorini qoplashni kafolatlaydi. Tadbirkor (sug'urtalovchi) faqatgina ma'lum hollardagina qaytariluvchi sug'urta badalini yig'adi. Bunday alohida hollarning yuzaga kelish ehtimoli juda past bo'lgani qismi tadbirkorlik daromadini tashkil etadi.

Tadbirkorlik faoliyati sohalariga mos ravishda tavakkalchilikni ham ishlab chiqarish tijorat moliyaviy va sug'urta tavakkalchiligiga ajratiladi.

Ishlab chiqarish tavakkalchiligi-tashkilotlar tomonidan mahsulot tovar xizmat va boshqa tadbirkorlik faoliyati bo'yicha rejalarini noqulay tashqi muhit shuningdek ishchi vaqti, xom-ashyo, asosiy

va aylanma fondlardan, yangi texnika va texnologiyadan tegishli tartibda foydalanmaslik oqibatida bajarilmaslik oqibatida yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish tavakkalchilikni yuzaga keltiruvchi ancha keng tarqalgan muhim sabablardan biri bu-kutilayotgan ishlab chiqarish hajmini qisqarishi, moddiy va boshqa xarajatlarni o'sishi yuqori stavkada soliq va ajratmalarni to'lash, past darajadagi intizom, uskunalarning eskirishi va ishdan chiqishi hamda boshqalar bo'lishi mumkin.

Tijorat tavakkalchiligi – tovar va xizmatlarning sotish jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilik tijorat tavakkalchiligining sabablari: bozor kon'yukturasi yoki boshqa hollardagi o'zgarishlar, tovarning xarid narxini oshishi muomala jarayonida tovarlarning buzilishi va yuqolishi muomala xarajatlarini oshishi mumkin.

Moliyaviy tavakkalchilik-firma o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog'liq. Uning asosiy sababi: valyuta kursi o'zgarishi munosibati bilan investitsiya moliyaviy portfelini qadrsizlanish; katastrofa, urush, tartibsizlik, to'lovlarni amalga oshmasligi va hokozolar bo'lishi mumkin.

Sug'urta tavakkalchiligi-u to'lov amalga oshirilishi zarur bo'lgan vaziyatlarni sodir bo'lishi mumkinligi shart sharoiti bilan bog'liq.

Tavakkalchilik natijalari sug'urta shartnomasini tuzish jarayonidan kelib chiqadigan samarasiz sug'urta faoliyatidan ko'riladigan zarar, qayta sug'urtalash hamda sug'urta rezervlarini shakllantirish bo'lishi mumkin. Sug'urta tavakkalchiligining asosiy sabablari; sug'urta tariflarini noto'g'ri belgilash, sug'urtachilik jo'shqin uslubiyoti, urush, tartibsizliklar, falokatlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni boshqarishda uning huquqiy asoslarini o'rganish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Har qanday iqtisodiy vakillikni asosiy jihatlardan biri huquq doirasida harakat qilishdir, ya'ni o'z faoliyatini chegarasini belgilashdir.

3. Tavakkalchilikni huquqiy asoslaridan kelib chiqib uning iqtisodiy asoslari rivojlantiriladi.

4. Tavakkalchilikni iqtisodiy mexanizmi deyilganda avvalambor ishlab chiqarishni iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi lozim.

5. Tavakkalchilikni samarali boshqarish uchun doimiy ravshda huquqiy iqtisodiy jihatlarni takomillashtira borish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilikni huquqiy chegarasi deyilganda nima tushuniladi?
2. Tavakkalchilikni huquqiy – iqtisodiy mexanizmini tushuntirib bering.
3. Tavakkalchilikni huquqiy chegarasi qanday jihatlardan iborat?
4. Tavakkalchilikni iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish korxonaga iqtisodiy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Tavakkalchilikni iqtisodiy mexanizmiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Tavakkalchilikni huquqiy – iqtisodiy mexanizmini qanday takomillashtirish yo'llarini bilasiz?
7. Tavakkalchilikni boshqarishda qo'llaniladigan huquqiy hujjatlar va me'yorlarni aytib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2003.
2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. Т.: Адолат, 1999-2005.
3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. М.: Финансы и статистика, 2004.
4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.
5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.
6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.
7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.
8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.
9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

V BOB

QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA TAVAKKALCHILIKNI BAHOLASH

5.1. Qaror qabul qilish jarayonida tavakkalchilik

Qarorlar loyihasini tayyorlashda chop etilgan rivojlangan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bashoratlarini o'rganish kerak. Lekin bu yerda ham o'ziga xos murakkablik mavjud. Chunki bu bashoratlarning asosiy maqsadi davlat va tadbirkorlar uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatgichlarni shakllantirish to'g'risida (jamoatchilik xarajatlari, zahiralar holati, shaxsiy iste'mol, eksport, import, narx, bandlik, sanoat ishlab chiqarish, ish haqidarajasi va uning dinamikasi) ma'lumot berishdan iboratdir.

Bashoratlarning ojiz tomoni to'lov balansi va xalqaro kapital harakati sohasida namoyon bo'ladi. Bashoratlash bilan shugullanuvchi barcha tashkilotlar nuqtai nazarida aytib o'tilgan bu parametrlarni kelgusidagi qiymatini aniqlash- hali to'liq ishlab chiqilmagan (unga turistik sayohatlar, xalqaro yuk tashishlar, xizmat ko'rsatish pul mablag'larini uzoq muddatli harakati kabilarda kapital harakatini jilovlab bo'lmasligi kiradi)

Ko'p hollarda u shunchaki gumon bo'lib qoladi. Agar gap kapitalni uzoq muddatli harakati to'g'risida boradigan bo'lsa, bir qancha hammaga ma'lum bo'lgan omillar e'tiborga olinadi, ammo ko'p hollarda bunday bashoratlar katta intuitsiyaga asoslangan bo'ladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish va sotish to'g'risidagi tadqiqotlarga oid xabarlar kabi kapital va investitsiyalar harakati to'g'risida ma'lumotlardagi noaniqliklar ham tavakkalchilikni bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun foydalanilayotgan xabarlardagi noaniqlikning bir xillilik xislati juda muhimdir. Oldindan baholanuvchi ekzogen ma'lumotlar ichidagi eng qiyin aniqlanuvchi ko'rsatgichlardan biri bu sotishdagi ko'zlanayotgan narx darajasi hisoblanadi. Aniq belgilanuvchi narx ko'plab omillarga bog'liq. Ulardan eng muhimlariga ishlab chiqarish xarajatlari hajmi; mahsulot sifati, taklif o'lchami, o'xshash mahsulotga almashtirish imkoniyati, ehtiyojni to'lovga qobillik hajmi va h.z) kiradi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmini asossiz baholashda, o'ziga nisbatan raqib tashkilotlardagi ishlab chiqarish xarajatlari hajmini tahlil qilishga intilish lozim. Ayni paytda o'zining mahsulotini tannarxi, zarur axborot bo'lmaganida, konkurent mahsulot tannarxini hisoblashda asos qilib olish mumkin. Bunday qiyosiy tahlil xarajatlar strukturasi umumiy hajmni tashkil etish darajasiga qarab, muhim baidlarga ajratib o'rganishdan boshlanadi. Tavakkalchilikga tayanib qabul qilingan qarorlar kaorlarni qabul qilinishi bir muhim obyektiv mezon ya'ni rahbarni qarorlar qabul qilishda qanday chegaradagi tavakkalchilikga borish mumkin degan muhim obyektiv mezonga bog'liq bo'ladi. Oqilona tavakkalchilikni asosiy fondlar, ishlab chiqarish hajmi, rentabellikda daromadlilik darajasi, xo'jalikning moliyaviy holati kabi parametrlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqish kerak. Korxonada ishlab chiqarish nomeniklaturasi xilma-xil bo'lib, moliyaviy holati qanchalik barqaror bo'lsa, tavakkalchilik xavfi shunchalik past bo'ladi. Demak, bu korxonada qanchalik ko'p turdagi mahsulot ishlab chiqarib, katta kapitalga ega bo'lsa u tavakkalchilikka shunchalik kam darajada ta'sirchan bo'ladi. Bunday xo'jalik rahbarlari, dadil holda tavakkalchilik vaziyatlarda qaror qabul qila oladi. Mulohazalar bo'yicha rahbarning tavakkalchilik sharoitidagi mas'uliyati faqat aniq qarorlar darajasi bilan tadqiq etilishi mumkin.

Rahbar qaror qabul qilish jarayonida, agar korxonada ixtiyoridagi fondlar korxonani rivojlantirish masalalari o'lchamiga mos kelsa tavakkalchilikka borishi mumkin. Bu uchun asos bo'lib:

mahsulotlarni sotish va ishlab chiqarishni uzluksizligi, daromadli xo'jalik yuritish, iste'molchilar va transportchilar bilan bir maromdagi aloqalar, to'lovga qobillikning yuqori darajasi, aniq buxgalteriya hisobi, moliyaviy tizim rivojlanishi va boshqalar xizmat qilishi mumkin.

Rahbar agar mavjud fondlarni tegishli tartibda boshqara olsagina, qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilikka borishi mumkin ya'ni:

- rivojlanish muammolari xal etilayotganida zarur asosiy va oborot fondlar tizimi shakllantirish;

- yangi kapital quyilmalarda mahsulot sifati va boshqaruv tizimi talab etiladigan darajasi hisobga olish;

ortiqcha zahiralar (na xomashyo zahirasi, na sotilmay qolgan mahsulot) jarng'arilmaslik;

- tashkilot rivojlanishi muvozanatini buzmaslik uchun ba'zi-bir

yuqotishlar o'rnini to'ldirish maqsadida mos ravishda rezerv sug'urta fondi yaratish;

- sug'urta fondi va undan foydalanish bandlari o'lchami chegaralari oldindan aniq belgilanish lozim.

Qarorlar qabul qilish jarayonida ekspertlarni tanlash, zarur informatsiyalarni to'plash va qayta ishlash, kabi masalalarning zarur vakolatiga erishilish baholash mezonlari va real nuqtai nazarni yuzaga keltiradi.

5.2. Tavakkalchilikda iqtisodiyot bosqichlarda qarorlarni qabul qilish

Iqtisodiyotni hamma darajasidagi qarorlarini biz quyidagilarga ajratamiz:

- siyosiy xo'jalik qarorlari;
- aniq rivojlanish yo'nalishi bo'yicha qarorlar;
- kon'yunkturali qarorlari.

Siyosiy xo'jalik qarorlari hamma vaqt o'z oldiga asosiy iqtisodiy o'sish kontsepsiyasini shakllantirish, uni optimal rivojlanish sur'atini ta'minlash, ma'lum iqtisodiy strukturani yaratish, shuningdek barcha bu yo'l yuriqlarni amalga oshirishni bosh maqsad qilib oladi. Ayni paytda siyosiy xo'jalik qarorlari nafaqat iqtisodiy va ishlab chiqarishni anglashga ta'sir ko'rsatadi, balki tavakkalchilik bilvosita shaklda namoyon bo'luvchi siyosiy (ijtimoiy, mudofaa va h.z) omillar va sabablarga ham ta'sir ko'rsatadi, balki tavakkalchilik bevosita namoyon bo'ladi siyosiy (ijtimoiy mudofaa va h.z.) omillar va sabablarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu katta darajadagi tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan kichik natijalarni oldindan darak beruvchi zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish imkonini anglatadi. (Masalan; nisbatan katta qisim resurslarni keyingi rivojlanishga emas, balki butun jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yunaltirish zarur bo'ladi).

Rivojlanishning aniq yo'llari to'g'risida chiqarilgan siyosiy xo'jalik qarorlari bilan belgilangan sohalarda birinchi bosqichda rivojlanishning muhim yo'nalishlarini ancha aniq belgilovchi xo'jalik qarorlari (va tavakkalchilik munosabatlari) darajasida qoluvchi qarorlar tashkil etadi.

Ikkinchi bosqichga amaliyotda ko'zlangan rejadagi kontseptural limetetlarni aniq belgilovchi tashkilot darajasidagi qarorlar kiradi.

Yalpi xalq xo'jalik darajasida rivojlanishning aniq yo'nalishi bo'yicha qarorlarni va siyosiy xo'jalik qarorlarni qabul qilishda qanday tavakkalchilik mavjud bo'lishi mumkin?

Hammadan oldin butun xalq xo'jaligi darajasida iqtisodiy rivojlanishga rahbarlik qiluvchi organ butun xo'jalikning tegishli strukturasi uni sektorlari va tarmoqlarini shakillantirishga uning umumiy o'sish sur'atiga ayni payitda bu sohadagi tavakkalchilikga mas'ul bo'ladi.

Xususan qarorlar qabul qilishda bozorlar rolini o'sishi quyidagi kuzatishlarda to'g'ridan to'g'ri tasdiqlaydi:

-bir paytning o'zida texnik taraqqiyot sur'ati o'sadi, loyخالash va kapital qurilishni amalga oshirish muddati cho'ziladi. Bu toki mahsulot bozorga chiqquncha ishlab chiqarish texnologiyasi nuqtai nazaridan hamda shu mahsulotning xususiyati nuqtai nazaridan ma'naviy eskirishni anglatadi;

-ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi doimo o'sadi, lekin oldin ishlab chiqilgan mahsulotga nisbatan bular uchun bozor nisbatan kam darajada o'rganilgan bo'ladi;

-ilmiy tadqiqotlar va ularning hayotga tadbiqi uchun ajratiladigan mablag' ulushi o'sadi. Bu sohada ko'riladigan foyda sekin jarayonda, o'ta noaniq bo'ladi.

Butun dunyo bo'yicha bu omillarning ta'sirida tavakkalchilik rolini o'sish tendentsiyasi yuzaga keladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda masalan, narxlarni belgilangan va mahsulotni eskirishi bo'yicha tavakkalchilikdan sug'urtalanish maqsadida o'lchami tarmoqlar bo'yicha o'zaro farqlashuvchi zahira (rezerv) fondi tashkil etiladi.

Jihoz asbob uskunalarni ma'naviy eskirishiga tenglashtiruvchi ancha yuqori o'lchamdagi amortizatsiya ajratmasi qo'llaniladi.

Tavakkalchilik va zahira fondini tashkil etish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Bu o'zaro bog'liq bir tomondan material xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan hisob-kitob xarakteriga ega bo'ladi. O'zaro material bog'lanish - zahira foidalarini real yaratishni belgilaydi, hisob-kitob bog'lanish to'g'risida gap borsa shuni ta'kidlash joiz-ki, tez-tez tavakkalchilik koeffitsiyenti, samaradorlik hisob-kitobiga kiritilib boriladi. Tavakkalchilik xislatlarni qaysi bir tomonini tahlil qilmang unda tavakkalchilik xarajat omili shaklida bo'lib pirovard natijada u kutilayotgan foyda shaklini omili yaqqol namoyon bo'ladi. (Bu masalalarga biz tashkilot

darajasidagi tavakkalchilikni qarab chiqishda qaytamiz). Ma'lum-ki, xalq xo'jaligi darajasida barcha ko'rinishdagi tavakkalchilikni hisobga olish kerak, ayniqsa uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash bilan bog'liq tavakkalchilikni, shuningdek muvaqqat va hududiy (obyekt) tavakkalchilikni ta'sirini hisobga olish lozim.

5.3. Tarmoq (tarmoq ichidagi) qarorlari va tavakkalchilik

Tarmoq darajasida xo'jalikni boshqarish nafaqat tarmoq ichidagi xususiy ta'sirni his etadi, balki xalq xo'jaligi darajasidagi faoliyatni, shuningdek tashkilot darajasidagi faoliyatni ham his qiladi. O'z yo'lida uzatuvchi mexanizm hisoblangan tarmoq rahbariyati, bu faoliyat bilan bog'liq tavakkalchilikni (tavakkalchilik oqibatlarini o'z elkasida turgan, yoki hamma xalq xo'jaligi, yoki maqsadlari aniq cheklanmagan tashkilotlar sharoitida) o'z zimmasiga oladi.

Ancha past darajadagi ierarxiyaga mos keluvchi tarmoq rivoji, (xalq xo'jaligini rivojlantirishga qarashli, hamda ko'plab tavakkalchilik elementlarini o'zida mujassamlashtirgan)

Tarmoqlar qarorlaridagi asosiy mazmun bu nisbatlar muammosidir. Lekin bu holatda samaradorlik masalasi maqsadlar shkalasida ancha yuqori o'rinda turadi, chunki jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hisob kitoblarni davlat orgalari o'z zimmasiga oladi. Tavakkalchilik esa qanday darajada yuzaga kelgan nisbatda tarmoq samaradorligini oshirish mumkinligida ko'rinadi (ifodalanadi).

Bir qarashda bu muammo unchalik sodda ko'rinmaydi. Xalq xo'jaligi va tarmoq maqsadlari hamma vaqt ham ayniqsa xalq xo'jaligining umumiy hajmida mazkur tarmoqni solishtirma og'irligiga nisbatan o'sish sur'atini belgilash masalasida mos kelavermaydi. Tarmoqlar shubhasiz, jamg'arma fondan kattaroq ulushga ega bo'lish uchun, joriy ishlab chiqarish natijalarida o'zining ishtiroki darajasini oshirish uchun intiladi. Lekin bir maqsadli taraqqiyot rivojlanish (taraqqiyot rivojlanishining o'zi uchun rivojlanish) xalq xo'jaligining umumiy o'sish sur'atini sekinlashtiradi, oqibatda mazkur tarmoq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi disproportsiyani yuzaga keltiradi. Moddiy-texnik ta'minotdagi mahsulotni sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni va koorparatsiya muammolarini balanslashmagan rivojlanishning oqibati deb ko'rsatish mumkin. Tarmoqning rivojlantirishga oid q

xalq xo'jaligi qarorlarin ta'sirini ifodalaydi. Bunday qarorlarni qabul qilar ekanmiz, albatta tashkilotda hisobga olinuvchi noaniqliklar elementlarini nazarda tutishimiz lozim. Bu shundan ma'lumki, tarmoq strukturasi uning tarkibidagi tashkilotning tashkiliy strukturasi bog'liq. Shuning uchun tarmoq strukturasi o'zgartirar ekanmiz, korxonaning rivojlanish imkoniyatini hisobga olishimiz zarur.

Tarmoq bunday darajasida tavakkalchilik to'g'risida masalani qo'yish vakolatli emas, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo bunday fikrlar tarmoqqa oid qarorlar qabul qilish doirasida ularga ergashgan tavakkalchilik qarorlari mavjudligi to'g'risidagi holatlarga zid keladi.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni boshqarishda va umuman menejmentda to'g'ri qaror qabul qilish bozor iqtisodiyoti asosiy talablaridan hisoblanadi.

2. Qarorlar mazmuni jihatdan turlicha bo'ladi, ayniqsa ishlab chiqarish qarorlari. Ularni o'rganish har bir menejer uchun muhim vazifadir.

3. Qaror qabul qilishni tarmoq darajasida o'rganish tavakkalchilikni iqtisodiyotini turli bosqichlarda qabul qilishni amalga oshirdi.

4. Tavakkalchilikni boshqarishda qaror qabul qilish jarayoni ancha murakkab chunki bu jarayonda noaniqlik vaziyati mavjuddir.

5. Qarorlarni boshqarishni nazorat qilishda zamonaviy usullarda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilikni boshqarishda qaror qabul qilish va uning ahamiyati nimadan iborat?

2. Qaror qabul qilish bosqichlarini tushuntirib bering.

3. Tavakkalchilikni boshqarishda qarorlarni turlarini tuzohlab bering.

4. Qarorni bajarilishini nazorta qilish usullarini aytib bering.

5. Noaniqlik vaziyatida qarorlar qanday qabul qilinadi?

6. Tavakkalchilikni boshqarishda qarorlarni qaysi jihatiga ko'proq e'tibor qaratiladi?

7. Tavakkalchilikni boshqarishda qaror qabul qilishni xorijiy tajribasini tushuntirib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2003.
2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. Т.: Адолат, 1999-2005.
3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. М.: Финансы и статистика, 2004.
4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.
5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.
6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.
7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.
8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.
9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

VI BOB

MOLIYAVIY TAVAKKALCHILIK, MOLIYAVIY TAVAKKALCHILIK CHEGARALARI VA XEDJIRLASH

6.1. Moliyaviy tavakkalchilik mezonlari va turlari

Har qanday xo'jalik faoliyatida hamma vaqt xo'jalik operatsiyalarining u yoki bu xususiyati oqibatida pul mablag'larini yuqotish xavf xatar mavjud bo'ladi. Ana shu xavf-xatar moliyaviy tavakkalchilikni tashkil etadi.

Moliyaviy tavakkalchilik bu tijorat tavakkalchiligidir. Tavakkalchilik toza va spekuliyativ bo'lishi mumkin. Toza tavakkalchilik-zarar yoki pullashgan natijalarga erishish imkoniyatini bildiradi. Spekuliyativ tavakkalchilik-ham ijobiy, ham salbiy natijaga erishish imkoniyatini ifodalaydi.

Moliyaviy tavakkalchilik - demak bu spekuliyativ tavakkalchilikdir. Investor venchur moliyalashtirishni amalga oshirar ekan, u oldindan o'zi uchun ikki natija; foyda yoki zarar ko'rishini biladi. Moliyaviy tavakkalchilikning xususiyati shundaki; u moliyaviy kredit va birja sohalarida o'tkazilgan qandaydir operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar birjasidagi operatsiyalar natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar ehtimoliyatidir. Moliyaviy tavakkalchilikka: kredit, foiz, valyuta hamda boy berilgan moliyaviy foyda tavakkalchiliklari kiradi.

Kredit tavakkalchiligi: - qarzdorning kreditor hisobidagi asosiy qarz va foiz miqdorini to'lamaslik xavfi.

Foiz tavakkalchiligi - tijorat banklari, kredit korxonalarini, investitsiya fondlarini berilgan kredit stavkalari ustidan, jalb etilgan mablag'ga ular to'lashi kerak bo'lgan foiz stavkasini oshishi natijasida yuqotayotgan mablag'lar xavfi.

Valyuta tavakkalchilik - u o'zida bir mamlakat valyutasiga nisbatan ikkinchi mamlakat valyutasi kursini o'zgarishi bilan bog'liq xavf xatarni mujassamlashtiradi.

Boy berilgan moliyaviy foyda tavakkalchiligi-bu xo'jalik faoliyatini to'xtatish yoki boshqa qandaydir tadbirni amalga oshmasligi natijasida sodir bo'luvchi qo'shimcha moliyaviy zarar tavakkalchiligidir.

6.2. Moliyaviy tavakkalchilik darajasini pasaytirish usullari

Moliyaviy tavakkalchilikni turli vosita va usullari yordamida oldini olish mumkin. Unday vositaga, tavakkalchilikdan saqlanish, boshqalar

zimmasiga o'tkazish, tavakkalchilik darajasini pasaytirish kiradi. Tavakkalchilikdan saqlanish-bu tavakkalchilik bilan bog'liq ishlarni qilishdan voz kechish demakdir. Lekin tavakkalchilikdan voz kechish investor uchun bulg'usi daromadidan voz kechish demakdir. Tavakkalchilikni saqlab qolish-bu tavakkalchilik xatarini investorda ya'ni investor zimmasidan mas'uliyatni qoldirish demakdir. Investor venchur moliyalashtirishni amalga oshirar ekan, u venchur moliyalashtirishdan ko'riladigan zarar o'rmini o'z mablag'i hisobidan qoplanishini oldindan biladi.

Tavakkalchilik xatarini boshqa shaxs zimmasiga o'tkazish-bu investor barcha xatar uchun mas'uliyatni o'zini sug'urtalash orqali sug'urta idorasi zimmasiga o'tkaziladi.

Tavakkalchilik darajasini pasaytirish-yuqotish hajmi va sodir bo'lish ehtimoliyatini qisqartirishni bildiradi.

Investor moliyaviy tavakkalchilik xatarini pasaytiruvchi aniq vositalarini tanlar ekan quyidagi prinsiplardan kelib chiqishi kerak:

- o'z mablag'idan ortiq miqdordagi xatar bilan tavakkalchilik qilmaslik kerak.

- tavakkalchilik xatarini oqibatini o'ylash kerak.

- o'z daromadi ishtiyoqida katta xatarga bormaslik kerak.

Birinchi prinsip amalga oshirishning mazmuni shuki, kapital kiritishdan oldin, investor:

- maksimal darajada ko'rishi mumkin bo'lgan zarar hajmini aniqlashi;

- «uni kiritiladigan kapital hajmi bilan taqqoslashi»;

- uni o'zining barcha xususiy moliyaviy resurslari bilan taqqoslanish agar bu kapitaldan ajralib qolsa, bankrot bo'lmasligini aniqlashi kerak.

Kiritiladigan kapitaldan ko'riladigan zarar hajmi shu kapital hajmiga teng, yoki undan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashda zarar hajmi qoidaga ko'ra venchur kapital hajmiga teng bo'ladi.

Masalan: Investor tavakkalchilik ishiga 100 ming so'm qo'ydi.

Ish amalga oshmadi va investor 100 ming so'mni yo'qotdi. Ammo pulning xarid narxini pasayishini inobatga olsa, ayniqsa inflyatsiya sharoitida, ko'rilgan zarar miqdori, quyilgan puldan ko'p bo'ladi. Bunday vaziyatda ko'riladigan zarar hajmini inflyatsiya indeksni hisobga olib aniqlanadi.

Investor 2005 yilda 500 ming so'm olish maqsadida tavakkalchik

ishiga 100 ming so'm qo'ydi. Ammo ish amalga oshmadi va unga bir yildan keyin pulni qaytarmadilar. Bunday holda ko'rilgan zarar hajmi inflyatsiya indeksini hisobga olib aniqlanadi. 2005 yildan inflyatsiya indeksi 2200 % ni tashkil etdi, ya'ni ko'rilgan zarar hajmi 2200 ming so'm (22 4100 ming so'm) ni tashkil etdi.

Portfel investitsiyada, ya'ni ikkinchi bozorda sotiluvchi qimmatli qog'ozlarni sotib olishda, aslida zarar hajmi sarflangan kapital summasidan kam bo'ladi.

Ikkinchi prinsipi amalga oshirish, investor ko'rish mumkin bo'lgan maksimal zarar miqdorini bo'lgan holda, uning oqibati nimaga olib kelishin, tavakkalchilik ehtimoli qanday, tavakkalchilik qilishdan voz, kechish kerak-ki, mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi-mi yoki boshqa kishi zimmasiga qo'yadi-mi aniqlanish lozimligini talab etadi.

Uchinchi prinsipga amal qilish, ayniqsa molyaviy tavakkalchilikni boshqa shaxs zimmasiga o'tkazishda namoyon bo'ladi. Bu holat shuni anglatadi-ki, investor o'zi uchun qulay bo'lgan sug'urta badali va sug'urta summasi orasidagi munosabatni aniqlaydi.

Sug'urta badali (yoki sug'urta mukofoti) - bu amaldagi qonun yoki sug'urta shartnomasiga asosan sug'urtalanuvchiga sug'urtaga tomonidan sug'urta tavakkalchiligi uchun to'lanadigan to'lov.

Sug'urta summasi-bu sug'urtalangan moddiy qimmatliklar (yoki sug'urtalanuvchining fuqarolik mas'uliyati, hayoti va sog'ligi)ni puldagi summasi.

To'liq ma'lumot qiymati-to'liq ma'lumot natijasidan kutilayotgan daromaddan, to'liq bo'lmagan ma'lumotdan kutilayotgan daromadning farqiga teng.

Masalan: tadbirkor 100 dona yoki 200 dona tovar olish kerak?

Agar tadbirkor 100 dona tovar olsa, har bir tovarga to'g'ri keladigan xarajat miqdori 120 so'mni tashkil etadi. 200 dona olsa 100 so'mga to'g'ri keladi. Tadbirkor har bir dona tovarni 120 so'mdan sotmoqchi, lekin u bozordagi talabdan xabari yo'q. O'z muddatida sotilmagan tovar keyin 90 so'm va undan kam bahoda sotilish ehtimoli 50 – 50 ga teng, ya'ni 100 dona tovarni sotish uchun ehtimollik koeffitsiyenti 0,5% ga barobar bo'ladi. 100 dona tovarni sotishdan keladigan daromad 6000 so'mni $[200 \cdot (180 - 120)]$ tashkil etadi. Xuddi shuningdek 200 dona sotilganda 16.000 so'mni tashkil etadi. O'rtacha kutilayotgan daromad

11000 so'm $[(0,546000)+(0,5416000)]$ ga barobar bo'ladi. Ma'lumotlar aniq bo'lganida uning kutilayotgan qiymati 11000 so'mga teng bo'lsa, noaniq ma'lumot bo'lganida uning qiymati 8000 so'mga teng bo'ladi (200 dona tovarni sotib olishda $0,541600=8000s$). To'liq ma'lumot qiymati bo'lsa $11000-8000=3000s$ ga teng bo'ladi. Demak, talab to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi uchun yana 3000so'm to'lab qo'shimcha ma'lumot olish kerak va hatto bashorat unchalik aniq bo'lmasada, kelajakda savdoni yaxshi yo'lga quyilishini ta'minlashni bashorat qilish maqsadida, savdo bozori va talabni o'rganish uchun mazkur mablag'ni qo'yish ancha foydali bo'ladi.

Limitlash-bu limitlar o'rnatish, ya'ni savdo, kapital, xarajat summalariga ma'lum bir chegara qo'yishdir. Cheklashlar, limitlash-tavakkalchilikni pasaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. U banklar tomonidan ssudalarning berilishida, xo'jalik subyektlari tomonidan tovarlarning (kredit kartochkalari orqali) kreditga sotilishida, investorlar tomonidan ma'lum bir miqdor kapitalni aylantirishda qo'llaniladi.

Sug'urtalashning mohiyati shundaki, investor tavakkalchilik xatarini oldini olish uchun bir qism daromadidan kechishga tayyor turadi, ya'ni u tavakkalchilik darajasini nolga tenglashtirish uchun to'lovga tayyor bo'ladi. Aslida, agar sug'urta qiymati kutilayotgan zarar bilan teng bo'lsa, (ya'ni, 200 ming so'm ko'rilishi kutilayotgan zararining sug'urta polisi 200 ming so'm bo'lsa), u holda investor tavakkalchilikni qabul qilmaslikka harakat qiladi. Chunki, u aniqlangan moliyaviy yo'qotishlarning o'rmini to'ldirish uchun o'zini sug'urtalaydi.

Moliyaviy tavakkalchilikni sug'urtalash uning darajasini pasaytiruvchi keng tarqalgan usullardan biridir.

6.3. Sug'urtalash va xedjirlash

Sug'urtalash-xo'jalik subyektlari va fuqarolar mulkiy manfaatdorligini ma'lum bir baxtsiz hodisalar (sug'urtalovchi vaziyatlar)dan o'zlari to'lagan a'zolik badallari hisobiga shakllangan pul fondi hisobidan himoyalash bo'yicha munosabatdir.

Sug'urtalash quyidagi turlarga bo'linadi shaxsiy sug'urta, mulkiy sug'urta mas'uliyatini sug'urtalash, oldindan sug'urtalash.

Shaxsiy sug'urta - fuqarolarni sug'urtalash shakli bo'lib, u hayotni baxtsiz hodisalar va kasalliklardan sug'urtalash hamda tibbiy sug'urtalash

kabilarni o'z ichiga oladi. Xo'jalik subyektlarini sug'urtalash mulkiy sug'urta va mas'uliyatni sug'urtalash bilan bog'liq.

Mulkiy sug'urta tarkibiga - yer ustki qismidagi transportlar mablag'larini sug'urtalash:

-«Xavo» transportlar mablag'larni sug'urtalash:

-suv transporti mablag'larini sug'urtalash, moliyaviy tavakkalchilik, har xil yuklar va boshqa mulk turlari sug'urtalash kiradi.

Mas'uliyatni sug'urtalash:

-sug'urtalash kreditlarni to'lay olmagan uchun qarzdorlarni:

-avtotransport vositalari egalarini;

-boshqa turdagi mas'uliyatlarni sug'urtalashni o'ziga qamrab oladi.

Sug'urtalash majburiy va ko'ngilli tarzda amalga oshiriladi.

Majburiy sug'urtalash - qonun asosida amalga oshiriluvchi sug'urta. Majburiy sug'urta (mol-mulkni majburiy sug'urtalash, majburiy tibbiy sug'urta) xarajatlari mahsulot tannarxiga tenglashtiriladi.

Kungili sug'urtalash - sug'urtalovchi va sug'urtalashuvchi orasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Sug'urtalashuvchi — o'z obyektini sug'urtalaydi.

Sug'urtalovchi - bu sug'urta faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beruvchi maxsus litsenziyaga (ruxsatnoma) ega bo'lgan va uni amalga oshiradigan xo'jalik subyektidir. Sug'urtalash sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) orqali rasmiylashtiriladi.

Masalan: Tijorat faoliyatini sug'urtalashga misol keltirsak. Xaridor sotuvchidan 10mln so'mga tovar sotib olmoqchi. Ularga bu faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsat kerak. Buning uchun ular sug'urta jamiyatiga murojaat qiladilar. Sug'urta jamiyati ushbu faoliyatni sug'urtalaydi, ya'ni xaridorni 10mln so'mga tovarni xarid qilishi va sotuvchining 10mln so'mga tovarni sotishini sug'urtalaydi.

Sug'urta ta'rifi sotuvchi va xaridor uchun bir xil 10%dan bo'ladi. Demak, jamiyat tomonidan olingan sug'urta mukofotining umumiy summasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{10 \times 10}{100} \quad \frac{10 \times 10}{100}$$

Sug'urta shartnomasiga har xildagi shartlar va izohlarni kiritish mumkin. Ulardan biri - Franshiza.

Franshiza-bu ma'lum bir o'lchamdan ortiq bo'lmagan zararni qoplashdan sug'urtalovchini ozod etish. Franshiza o'lhash deb sug'urtalovchi tomonidan to'lanishi shart bo'lmagan ko'rilgan zarar qismiga aytiladi. Ko'rilgan zararining bu qismi sug'urta polisi orqali belgilanadi. Franshiza sug'urta summasiga va sug'urtalash obyektiga nisbatan absolyut yoki nisbiy qiymatda belgilanishi mumkin. Franshiza ko'rilgan zarar miqdoriga nisbatan foizlarda aniqlanishi mumkin. Franshiza 2 xilga ajratiladi: shartli va muqarrar. Shartli ya'ni hisoblab bo'lmaydigan franshiza deyilganda agar keltirilgan zarar miqdori franshiza miqdoridan ortiq bo'lgan holatda to'lov bilan qoplash va belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdordagi zarardan sug'urtalovchi mas'uliyatini ozod qilinishi tushuniladi. Shartli franshiza sug'urta polisida maxsus atama-klauzula ko'rinishida yuritiladi hamda «X foizdan ozod etilgan» - yozuv ko'rinishida ifodalanadi (bu yerda X-1,2,3 sug'urta summasidan foiz qiymati). Agar keltirilgan zarar belgilangan franshizadan oshib ketsa u holda sug'urtalovchi sug'urtalangan qoplanishni, berilgan izohga e'tibor qilmay to'liq to'lashga majbur.

Masalan: Sug'urta shartnomasi bo'yicha shartli franshiza «1 mln so'mdan ozod etiladi» deb ko'rsatilgan. Ko'rilgan haqiqiy zarar miqdori 0,8 mln so'mni tashkil etadi, ya'ni franshiza summasidan kichik bo'ladi, shuning uchun zarar qoplanmaydi. Agar ko'rilgan zarar miqdori 1,2 mln so'mni tashkil etsa, ya'ni franshiza summasidan ortiq bo'lsa, u zarar to'liq 1,2 mln so'm miqdorida qoplanadi.

Muqarrar, yoki hisobga olinuvchi franshiza, -mazkur franshiza hech qanday shartlarsiz, so'zsiz qo'llanilishini anglatadi. Muqarrar franshizda zarar har qanday sharoitda belgilangan franshiza miqdorida kamaytirilib qoplanadi. Muqarrar franshiza sug'urta polisidaklauzula yordamida «birinchi X foizdan ozod qilinadi» ko'rinishdagi matn bilan ifodalaniladi. (bu yerda X-foizlar hamma vaqt ko'rilgan zarar miqdoridan qat'iy nazar sug'urtalangan qoplash summasidan hisoblanadi). Muqarrar franshizada sug'urtalangan qoplash ko'rilgan zarar miqdoridan shu franshiza qiymatini farqiga ayirmasiga teng bo'ladi.

Sug'urtalash sug'urtalangan hodisa sug'urtalangan summa, sug'urtalangan qoplash, sug'urta badali(yoki sug'urta mukofoti)ga ajratiladi. Sug'urtalangan hodisa - shartnomada yoki qonun bo'yicha sodir bo'lishi bilan sug'urtalashuvchiga yoki qandaydir uchinchi shaxsga sug'urta to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha sug'urtalovchi mas'uliyatni

paydo qiluvchi hodisalarga ayotiladi. Sug'urta hodisalarida sug'urta to'lovlari sug'urtalanadigan shaxs ko'radigan zararlarni qoplash ko'rinishda beriladi.

Sug'urtalangan summa bo'lib aniq shartnoma yoki qonun asosida ko'rsatilgan sug'urtalanuvchi hayoti va sog'ligi fuqarolik mas'uliyati, qimmatliliklarini sug'urtalangan pul summasi ifodalanadi. Shundan kelib chiqqan holda sug'urta badali va summasi o'lchami belgilanadi.

Uchinchi shaxs oldida sug'urtalanuvchining keltirgan moddiy zararini fuqarolik mas'uliyati va mol-mulkini sug'urtalash orqali sug'urta fondi hisobidan zarar qoplash uchun ishlatilgan to'lov summasiga sug'urtalangan qoplash deyiladi. Sug'urtalangan qoplash sug'urta shartnomasi yoki aniq sug'urtalangan hodisa shart- sharoitidan kelib chiqqan holda sug'urta summasidan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Sug'urtalangan qoplash miqdori sug'urta sistemasidan kelib chiqqan holda turli usullarda hisoblanadi. Mol-mulkni haqiqiy qiymati bo'yicha sug'urtalashda, sug'urtalangan qoplash summasi shartnoma imzolangan kundan haqiqiy mulk qiymati bo'yicha aniqlanadi.

Sug'urta ta'minoti ko'rilgan zararga teng bo'ladi. Proportsional javobgarlik tizimi bo'yicha sug'urtani qoplash qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V = \frac{S \times U}{P}$$

Bu yerda: V-sug'urtani qoplash qiymati (so'm)

S-shartnoma bo'yicha sug'urta summasi.(so'm)

U-ko'rilgan zararining haqiqiy summasi (so'm)

P-sug'urtalangan obyektning baholangan narxi (so'm)

Misol: Sug'urtalangan obyektning baholangan summasi-10 mln so'm.

Sug'urta summasi-5 mln so'm. Suno'rtalovchini obyektini shikastlashidan ko'rilgan zarar-4 mln so'mni tashkil etadi. Bu holatda sug'urtalangan qoplash summasi.

$$V = \frac{S \times U}{P} = \frac{5 \times 4}{10} = 2 \text{ mln so'mni tashkil etadi.}$$

Birinchi tavakkalchilik tizimi bo'yicha sug'urtalashda, sug'urtalangan qoplash ko'rilgan zarar miqdorida, lekin sug'urtalangan summa chegarasida to'lanadi. Unda barcha ko'rilgan zarar sug'urtalangan summa chegarasida (birinchi tavakkalchilikda) to'liq qaytariladi, ammo sug'urtalangan summadan ortiq zarar miqdori. (ikkinchi tavakkalchilik) umuman qoplanmaydi.

Misol: Birinchi tavakkalchilik tizimi bo'yicha avtomobil 4 mln so'mga sug'urtalangan. Shikastlanish tufayli avtomobilga 2 mln so'mlik zarar yetdi. Sug'urtalangan qoplash miqdori 2 mln so'm bo'ladi.

Misol: Birinchi tavakkalchilik tizimi bo'yicha mol-mulk 40 mln so'mga sug'urtalangan. Ko'rilgan zarar 60mln so'mni tashkil etdi. Sug'urtalangan qoplam summasi 40 mln so'mga teng bo'ladi.

«Kasr qismi»(nisbat qisma) tizimi bo'yicha sug'urtalash holatida ikkita sug'urta summasi o'rnatiladi va ulardan birini ko'rsatilgan qiymat deyiladi.

Bu qiymat bo'yicha sug'urtalovchi foizlarda yoki natural kasrda ifodalangan tavakkalchilikni qoplash summasini oladi. Sug'urtalovchi mas'uliyati kasr qismlari o'lchami bo'yicha cheklangan bo'ladi. Shuning uchun sug'urta summasi ko'rsatilgan qiymatdan va uning kasr qismidan kam bo'ladi. Sug'urtalangan qoplash. Sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan hajmdagi ko'rilgan zarar miqdoriga teng bo'ladi.

Qiymatni tiklash bo'yicha sug'urtalashda obyekt uchun sug'urtalangan qoplash miqdori mos turdagi mulkni yangi bahosiga teng bo'ladi. Mulknin eskirishi hisobga olinmaydi.

Mulknin sug'urtalashda sug'urta summasi shartnoma imzolananayotgan vaqtdagi uning haqiqiy bahosida ortiq bo'lmasligi kerak.

Agar sug'urta shartnomasida to'lanishi lozim bo'lgan sug'urtalangan qoplashning aniq summasi ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta vaziyatda sug'urtalangan qoplash sug'urtalovchi yoki uchinchi shaxsning sug'urtalangan mulkiga yetkazilgan zarar miqdoridan oshmasligi kerak.

Agar sug'urtalovchi bir nechta sug'urta kompaniyasi bilan o'z mulki qiymatidan, bir necha barobar ortiq miqdordagi summaga sug'urta shartnomasi tuzsa (ikkilamchi sug'urtalash). U holda uning barcha sug'urtalangan kompaniyalardan oladigan sug'urtalangan qoplash miqdori shu mulknin sug'urtalangan qiymatidan ortiq bo'lmasligi kerak. Unda har bir sug'urta kompaniyasi ko'rsatilgan mulknin

sug'urtalash bo'yicha sug'urtalovchi bilan tuzilgan hamma shartnomalarning umumiy summasiga proporsional nisbatda sug'urtalangan qoplam summasini to'laydi.

Sug'urta shartnomasida ko'rilgan zarar summasini sug'urtalangan summasi chegarasida natura shaklida berish ham nazarda tutilishi mumkin.

Sug'urta badali. Xorijda sug'urta mukofoti bu sug'urta shartnomasi yoki qonun asosida sug'urtalovchini sug'urta qiluvchiga sug'urta uchun to'lash majbur bo'lgan to'lovi.

Tavakkalchilik ehtimoli quyidagi ko'rsatgichlar bilan aniqlanadi:

-sug'urtalangan hodisalar takrorlanishi bu bir sug'urta obyektidagi sug'urtalangan hodisalar takrorlanishi miqdori.

-tavakkalchilikni kumulyatsiya koef-ti-shikastlangan obyektlar sonini, sug'urtalangan hodisalar soniga nisbati bilan hisoblanadi.

-sug'urtalangan summaning ko'radigan zarari-bu to'langan sug'urtalangan qoplash summasini sug'urtalangan barcha obyektlarning sug'urta summasiga nisbati.

-shikastlanishining og'irligi.(U)-Bu sug'urta summasining qanday qismi yuk qilinganini ko'rsatadi. Quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$U=V \times n/c \times m$$

Bu yerda V- to'langan sug'urtalangan qoplash summasi.(so'm)

n-sug'urtalangan obyektlar soni (ta)

s-sug'urta summasi.(so'm)

m-sug'urtalangan zarar ko'rilgan sug'urtalangan obyektlar soni.(dona)

Sug'urta operatsichlarining moliyaviy barqarorligi to'liq sug'urta fondi bo'yicha ya'ni sug'urtalovchi (straxovhik) xarajatlari mablag'lari taqchiligi yoki daromadni xarajatdan ustunligini ifodalanadi.

Mablag'lar taqchilligining ehtimollikdarajasi.V Konipin koefitsyenti bilan aniqlanadi:

$$Kk = \frac{1-q}{n \times q}$$

bu yerda Kk -Konipin koef-ti q-portfeldagi barcha sug'urtalar o'rtacha tarif stavkasi, so'm.

n-sug'urtalangan obyektlar soni (ta) Xarajatga nisbatan daromadlarning ortishi sug'urta fondining moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentini ifodalaydi;

$$K_u = \frac{D+Z}{R}$$

bu yerda K_u -sug'urta fondining barqarorlik koeffitsiyenti.

D-tarif davri davomida sug'urtalovchining daromadi summasi so'm.

R-tarif davri davomida sug'urtalovchining xarajati summasi (so'm)

Z-zahira fondidagi mablag' summasi (so'm)

Sug'urtalovchi mumkin qayta sug'urtalashi imkoniyatiga ega.

Qayta sug'urtalash-bu alohida obyektlarni yoki sug'urtalashdagi tavakkalchilik xatarini bir qismini bir sug'urtalovchidan ikkinchisiga o'tkazish demakdir. Sug'urtalovchi sug'urtalash bo'yicha majburiyatini qoplashga o'z mablag'i va zahirasi yetarli bo'lmasa bu majburiyatni qayta sug'urtalash yo'li bilan qoplashni taminlashga majbur.

Xedjerlash-valyuta tavakkalchiligini sug'urtalash usulidir. Adabiyotlarda «xedjerlash» - iborasi har qanday tovar moddiy qimmatliklarni nomaqbul narxlar bo'yicha tavakkalchiligiga oid kontraktlarni sug'urtalash debam ma'noda keng qo'llaniladi. Sug'urtalashga oid kontrakt xedjer deyiladi. Xedjirlashni oshirish va pasaytirish deb nomlangan ikki operatsiyasi mavjud.

Oshirish xedjeri yoki xarid xedjeri deganda opsiyon yoki tezkor kontraktni xarid qilish bo'yicha birja operatsiyasi tushuniladi. Oshirish bo'yicha xedj kelgusida narx (valyuta kursi) oshishi imkoniyatidan sug'urtalash zarurati tug'ulgan hollarda qo'llaniladi. U real tovarni sotib olingan vaqtdan ancha oldin xarid narxini belgilangan imkonini beradi.

Pasaytirish xedjeri yoki sotish xedjeri bu tezkor kontrastni sotishga oid birja operatsiyasi. Pasaytirishga oid xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer kelgusida tovarni sotish imkonini beradi, shuning uchun birjada tezkor kontrakt yoki opsiyonni sotib, u kelgusida arxning pasayib ketishidan o'zini sug'urtalaydi.

Valyuta kursini oshirishga oid xedjer misolida xedjirlash texnologiyasini qarab chiqamiz:

Misol. Valyuta tavakkalchiligini xedjerlashdan xo'jalik subyektini yuz

o'g'irishi. Xo'jalik subyekti xedjerlashdan yuz o'g'irganda, tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi va valyuta kursining qulay dijamikasiga tayanib (yashirincha) o'zi bilmagan holda valyuta jallobiga (chaykovchisiga) aylanadi. Bu holda aktivlar qiymati valyuta kursi o'zgarishga to'g'ri bog'lanishda bo'ladi.

Qisqa xulosala:

1. Tavakkalchilikni asosiy turlaridan biri moliyaviy tavakkalchilik hisoblanadi.

2. Moliyaviy tavakkalchilikni o'ziga xos mezonlari va iqtisodiy ko'rsatkichlari mavjud.

3. Moliyaviy tavakkalchilikda xedjirlash tushunchasi keng tarqalgan tushuncha bo'lib uni o'rganish sug'urtalash amaliyotini rivojlantiradi.

4. Moliyaviy tavakkalchilik korxonalar rentabelligini oshiradi va korxonalar moliyaviy holatini yaxshilaydi.

5. Tavakkalchilikni huquqiy chegarasi bo'lgandek, moliyaviy chegara deyilganda moliyaviy resurslardan to'g'ri foydalanishni tushinish kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy tavakkalchilik deyilganda nimani tushunasiz?

2. Moliyaviy tavakkalchilikni qanday mezon va ko'rsatkichlarini bilasiz?

3. Moliyaviy xedjirlash tushunchasiga qanday ta'rif bera olasiz?

4. Moliyaviy tavakkalchilikni baholash qanday koeffitsiyentlarga asoslanadi?

5. Moliyaviy tavakkalchilikni iqtisodiy ko'rsatkichlari qanday usullarda hisob-kitob qilinadi?

6. Tavakkalchilikni boshqarishda moliyaviy ko'rsatkichlarni qanday usullar bilan tahlil qilinadi?

7. Moliyaviy tavakkalchilikni boshqarishni takomillashtirish qanday yo'llarini bilasiz?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2003.

2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари

ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. Т.: Адолат, 1999-2005.

3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. М.: Финансы и статистика, 2004.

4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.

5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.

6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.

7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.

8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.

9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

VII BOB

TAVAKKALCHILIKNING IQTISODIY KO'RSATGICHLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARI

7.1. Tavakkalchilikning iqtisodiy ko'rsatgichlari

Tavakkalchilikni miqdoriy aniqlash uchun bir qancha usullar mavjud bo'lib, biz ularni 2 katta guruhga ajratamiz: 1) dalilsiz (oldindan) xulosa berish guruhi; 2) tajribaga tayanib yondashilgan guruh.

Dalilsiz xulosa berish birinchi navbatda nazariy qoidalarga tayanadi va ma'lum bir qaror natijalari talablarini ifodalaydi. Tavakkalchilik bunday vaziyatda tajribadan kelib chiqib emas, mantiqiy xulosaga tayanib hisoblab chiqiladi. Axborotlarni qayta ishlash asosida ommaviy omillar va hodisalarni umumlashtirib, o'tgan holatlarini o'rganish asosida ekstrapolyatsiyalab, bashorat qilinayotgan tavakkalchilikni qarab chiquvchi-tajribaga tayanib yondoshilgan guruh keng tarqalgan. Bu yerdan, axborotlarni muhim roli, uni qayta ishlash, sistemalashtirish qarorlarni qabul qilishda asos sifatida qo'llanilishi ko'rinadi. Tavakkalchilikni miqdoriy baholashda tavakkalchilikka jalb etiluvchi real narx o'lchami va kutilayotgan foyda va zarar o'lchamini farqlash lozim. Chunki tavakkalchilikka real narx o'lchami qaror qabul qilish paytidayoq ma'lum bo'ladi, ammo kutilayotgan foyda yoki zarar o'lchami esa ma'lum bir noaniqlik darajasi asosida aniqlanadi. Tavakkalchilik va kon'yunkturani tadqiq etish usullari qanchalik takomillashtirilgan bo'lsa, noaniqlik omillari shuncha katta darajada kamaytirilgan bo'ladi.

Yalpi xalq xo'jalik darajasida rivojlanishning aniq yo'nalishi bo'yicha iqtisodiy rivojlanishga rahbarlik qiluvchi organ butun xo'jalikning tegishli strukturasi uni sektorlari va tarmoqlarini tashkillantirishga uning umumiy o'sish sur'atiga ayni payitda bu sohadagi tavakkalchilikga mas'ul bo'ladi.

Xususan iqtisodiy rivojlanishga bozorlar rolini o'sishi quyidagi kuzatishlarda to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi:

-bir paytning o'zida texnik taraqqiyot sur'ati o'sadi, loyخالash va kapital ko'rilishni amalga oshirish muddati cho'ziladi. Bu toki mahsulot

bozorga chiqquncha ishlab chiqarish texnologiyasi nuqtai nazaridan hamda shu mahsulotning xususiyati nuqtai nazaridan ma'naviy eskirishni anglatadi;

-ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi doimo o'sadi, lekin oldin ishlab chiqilgan mahsulotga nisbatan bular uchun bozor nisbatan kam darajada o'rganilgan bo'ladi;

-ilmiy tadqiqotlar va ularning hayotga tadbir'i uchun ajratiladigan mablag' ulushi o'sadi. Bu sohada ko'riladigan foyda sekin jarayonda, o'ta noaniq bo'ladi. Butun dunyo bo'yicha bu omillarning ta'sirida tavakkalchilik rolini o'sish tendentsiyasi yuzaga keladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda masalan, narxlarni belgilangan va mahsulotni eskirishi bo'yicha tavakkalchilikdan sug'urtalanish maqsadida o'lchami tarmoqlar bo'yicha o'zaro farqlashuvchi zahira (rezerv) fondi tashkil etiladi;

-jihaz asbob uskunalarni ma'naviy eskirishiga tenglashtiruvchi ancha yuqori o'lchamdagi amortizatsiya ajratmasi qo'llaniladi.

Tavakkalchilik va zahira fondini tashkil etish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu o'zaro bog'liq bir tomondan material xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan hisob-kitob xarakteriga ega bo'ladi. O'zaro material bog'lanish - zahira foidalarini real yaratishni belgilaydi, hisob-kitob bog'lanish to'g'risida gap borsa shuni ta'kidlash joiz, tez-tez tavakkalchilik koeffitsiyenti, samaradorlik hisob-kitobiga kiritilib boriladi. Tavakkalchilik xislatlarni qaysi bir tomonini tahlil qilmang unda tavakkalchilik xarajat omili shaklida bo'lib pirovard natijada u kutilayotgan foyda shaklini omili yaqqol namoyon bo'ladi. (Bu masalalarga biz tashkilot darajasidagi tavakkalchilikni qarab chiqishda qaytamiz). Ma'lum-ki, xalq xo'jaligi darajasida barcha ko'rinishdagi tavakkalchilikni hisobga olish kerak, ayniqsa uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash bilan bog'liq tavakkalchilikni, shuningdek muvaqqat va hududiy (obyekt) tavakkalchilikni ta'sirini hisobga olish lozim.

7.2. Tarmoq darajasida xo'jalikni boshqarish va tavakkalchilik

Tarmoq darajasida boshqarish nafaqat tarmoq ichidagi xususiy ta'simi, balki xalq xo'jaligi darajasidagi faoliyatni hamda tashkilot darajasidagi faoliyatni ham belgilaydi. Har qanday tarmoq rahbariyati bu faoliyat bilan bog'liq tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi.

To'g'ri ancha past darajadagi ierarxiyaga mos keluvchi tarmoq rivoji, xalq xo'jaligini rivojlantirishga qarashli, hamda ko'plab tavakkalchilik elementlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Tarmoqlar qarorlaridagi asosiy mazmun bu nisbatlar muammosidir. Lekin bu holatda samaradorlik masalasi maqsadlar shkalasida ancha yuqori urinda turadi, chunki jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hisob kitoblarni davlat orgalari uz zimmasiga oladi. Tavakkalchilik esa qanday darajada yuzaga kelgan nisbatda tarmoq samaradorligini oshirish mumkinligida ifodalanadi.

Bir qarashda bu muammo unchalik sodda ko'rinmaydi. Xalq xo'jaligi va tarmoq maqsadlari hamma vaqt ham ayniqsa mamlakat iqtisodiyotining umumiy hajmida mazkur tarmoqni solishtirma og'irligiga nisbatan o'sish sur'atini belgilash masalasida mos kelavermaydi. Tarmoqlar shubhasiz, jamg'arma fondan kattaroq ulushga ega bo'lish uchun, joriy ishlab chiqarish natijalarida o'zining ishtroki darajasini oshirish uchun intiladi. Lekin bir maqsadli taraqqiyot rivojlanish (taraqqiyot rivojlanishining o'zi uchun rivojlanish) mamlakat iqtisodiyotining umumiy o'sish sur'atini sekinlashtiradi, oqibatda mazkur tarmoq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi disproportsiyani yuzaga keltiradi. Moddiy-texnik ta'minotdagi mahsulotni sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni kooperatsiya muammolarini bu nesbalansirlashgan rivojlanishning oqibati deb ko'rsatish mumkin. Tarmoqning rivojlantirishga oid qarorlar, nafaqat xalq xo'jaligi qarorlarin ta'sirini ifodalaydi. Bunday qarorlarni qabul qilar ekanmiz, albatta tashkilotda hisobga olinuvchi noaniqliklar elementlarini nazarda tutishimiz lozim, bu shundan ma'lumki, tarmoq strukturasi uning tarkibidagi tashkilotning tashkiliy strukturasi bog'liq, shuning uchun tarmoq strukturasi o'zgartirar ekanmiz, tashkilotning rivojlanish imkoniyatini hisobga olishimiz zarur.

Tarmoq bunday darajasida tavakkalchilik to'g'risida masalani quyish vakolatli emas, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo bunday fikrlar tarmoqqa oid qarorlar qabul qilish doirasida ularga ergashgan tavakkalchilik qarorlari mavjudligi to'g'risidagi holatlarga zid keladi.

7.3. Tavakkalchilikni miqdoriy baholash usullari

Amaliyotda tavakkalchilikni taqsimoti loyiha ishtirokchilaridan mas'uliyatni tanlab, hammadan ko'ra tezroq tavakkalchilikni hisoblash va nazorat qilishni talab etadi. Biroq hayotda shunday bo'lishi mumkinki shu xodim partner moliyaviy tomondan yetarli ma'lumotga ega emasligi tavakkalchilik oqibatini yengib utsa. Maslahatchi firmalar, jihoz yetkuzuvchilar, va ko'pchilik-tavakkalchilikni kompensatsiyalash uchun mablag'lari bo'lib Tavakkalchilikni taqsimlanishi - moliyaviy reja loyihasini va kontrakt xujjatlarini tayyorlashda aniqlaniladi. Tavakkalchilik analizi kabi - loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi sifatli va miqdorli bo'lishi mumkin. Tavakkalchilikni loyihalarda taqsimlanishi uchun konsentual sifatli modeldan foydalanish tavsiya etiladi. Model standart metodlarga asoslangan bo'lib, uni asosi «Ehtimollar va qarorlar» daraxti bo'lib, qarorlarni ketma-ketligini aniqlash uchun foydalanishlar, bu muammo ikki xil xarakterga ega, investitsion loyihaagi ishtirokka asoslangandir. Ikki tomonni sotuvchi va xaridor, buyurtmachi va bajaruvchi. Bir tomondan buyurtmachi mumkin qadar kontrakt qiymatini kamaytirishga intiladi, bunda muddat va sifat bo'yicha barcha talablar bajarilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan bajaruvchi - buyurtmalar portfelini tashkil etilganda maksimal foyda olishga intiladi.

Bajaruvchini foydasi - buyurtmalar portfelini baholashda quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi mumkin.

$$Pq R(k + U_1)R(k+U_2)...R(k+U_p)$$

Bunda: P - firma foydasi, k - firmani boshlang'ich kapitali, U_i - firmani imkoniyatli foydasi, $(i=1,2,3,...,p)$ p-loyihani bajarishdagi hodisalar soni; $R(U_i)$ har bir tugallanishni ehtimolligi. Loyihalarni investirlash davomiyligi va o'lchovlarini o'sishi murakkablik va xilma-xillik, ularni tadbiq etishda muhitni yuqori dinamikligi, raqobatlilik inflyatsiya va boshqa salbiy faktorlar - loyihani ro'yobga chiqarishda - tavakkalchilik darajasini o'sishiga olib keladi.

Tavakkalchilikni sifatli taqsimlanishida loyiha ishtirokchilari qator qarorlar qabul qiladiki, ular investorlar diapazonini yo kengaytiradilar yoki qisqartiradilar.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni boshqarishda iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish, ularning tahlilini o'tkazish, ayniqsa tavakkalchilikning noaniqlik darajasini belgilashda foydalaniladigan ko'rsatkichlarni aniq o'rnatish korxonalar mihyosidagi zarur ishlardan hisoblanadi.

2. Iqtisodiy ko'rsatkichlardan miqdoriy foyda, xarajat, rentabellik, investitsiya va boshqa ko'rsatkichlarni o'zgarishda tavakkalchilik vaziyatini hisobga olish, ularni koeffitsiyentlari bilan hisob-kitob qilish korxonada iqtisodiyotini nafaqat mustahkamlaydi, balki oshiradi.

3. Foyda korxonada uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababli foyda hajmini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ular asosida tavakkalchilikni pasaytirish holatlariga doimiy ravishda amal qilish kerak.

4. Korxonada iqtisodiy ko'rsatkichlari va tavakkalchilik o'rtasidagi bogliqlikni amaliyotda olib borish korxonada faoliyati samaradorligini oshirib boradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonada faoliyatidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilab va ta'riflab bering.

2. Iqtisodiy ko'rsatkichlardan qaysi biri to'gridan-to'gri tavakkalchilik bilan bogliqligi to'g'risida gapiring.

3. Tavakkalchilikning bevosita korxonada foydasiga ta'siri bormi?

4. Ishlab chiqarishni tashkil etishda va tavakkalchilik darajasini belgilashda qanday iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

5. Tavakkalchilikda iqtisodiy ko'rsatkichlardan hisob-kitob qilishda qanday usullardan foydalaniladi?

6. Amaliy jihatdan tavakkalchilik darajasini aniqlashda qanday iqtisodiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi?

7. Tavakkalchilikda iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish tartibini aytib bering.

8. Tavakkalchilikda iqtisodiy ko'rsatkichlar va tavakkalchilikni o'zaro aloqadorligini belgilab bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: «Ўзбекистон», 2003.
2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмни ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. -Т.: Адолат, 1999-2005.
3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. -М.: Финансы и статистика, 2004.
4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. -М.: Экономика, 2002.
5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. М.: Дело, 2004.
6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра – М, 2005.
7. Тепман М.Н. Риск в экономике. М.: ЮНИТИ, 2002.
8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.
9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

VIII BOB

TADBIRKORLIK VA ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHDA TAVAKKALCHILIK

8.1. Ishlab chiqarishda tavakkalchilik asoslari

Biz yuqorida xalq xo'jaligi va tarmoqlar qarorlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning iqtisodiy muammolarini qarab chiqdik. Bu tadqiqoblar endi tashkilot darajasida ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirish tavakkalchiligi bilan bog'liq yana bir katta muammolar guruhi bilan to'ldirilishi lozim. Bu muammolar doirasida biz oldingiga nisbatan ichki va tashqi bozor bilan bog'liq bo'lgan, tashkilot darajasidagi tavakkalchilikning xususiyatini hamda unga bog'liq ko'plab masalalarni chuqurroq o'rganishimizga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarish darajasidagi tavakkalchilik ikkita katta kategoriyaga ajratiladi:

Kundalik faoliyat sohasi qarorlari bilan bog'liq tavakkalchilik, unga isrofgarchilik, noto'g'ri xatti-harakat va tabiiy ofatlar bilan bog'liq tavakkalchiliklar kiradi. Biz bularni yuzaki qarab o'tamiz.

Iqtisodiy taraqqiyot muammolari bilan bog'liq tavakkalchilik, - bu guruhni biz betafsil o'rganamiz.

Kundalik faoliyat sohasi qarorlari bilan bog'liq tavakkalchilikning turlaridan birinchisi oddiy aksiyalarni sug'urtalash bilan bog'liq, yuqotishning paydo bo'lish klassik tavakkalchiligi hisoblanadi.

Real xavf-xatar ortishi bilan o'suvchi tavakkalchilikdagi vaziyatda sug'urta to'lovi, kapital quyilma samaradorligini hisoblashda hisobga olinuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uskuna-jihozlarning bekor turib qolganida joriy xarajatlarning ortishi tavakkalchiligi, boy berilgan foyda tavakkalchiligi sug'urtachi tomonidan qoplanmaydi.

Aynan shu ikkinchi ko'rinishdagi tavakkalchilik kundalik faoliyat bilan bog'liq. Ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda, doimo 2 jihatni chuqur tahlil qilishga to'g'ri keladi:

Birinchidan, ma'lum vaqt oralig'ida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar miqdori;

Ikkinchidan, mavjud ishlab chiqarish darajasini saqlab turish uchun rejalashtirilayotgan muddat.

Xuddi shuningdek, yangi zavod ko'rilishda kapital quyilma o'zini qanday darajada oqlay olishini aniqlash uchun albatta vaziyatning bu ikki tomoni tahlil etilishi lozim.

Yirik ishlab chiqarish maxsus mashina parkida qisqa muddatli ishlab chiqarishi jarayonida kapital quyilmalarni past darajada tutdiradi, kichik o'lchamli ishlab chiqarish, katta ishlab chiqarish jarayonida.

Maxsus mashina parki misolida yirik ishlab chiqarish, qisqa muddatli jarayonda, katta ishlab chiqarish jarayonidagi kichik o'lchamli ishlab chiqarishga nisbatan kapital quyilmalarni past darajada rag'batlantiradi.

Birinchi holatda, mavjud mashina parkini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi, bu holat esa ko'proq talabning kam davomiyligiga mos keladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish variantlari to'g'risida qarorlar qabul qilishda, ko'p holda bir turdan mahsulotdan ikkinchi tur mahsulotni ishlab chiqarishga tez moslanuvchi jihozlarni o'rnatishga e'tiborni qaratish lozim. Aslida haqiqiy vaziyatda ayrim sanoat tarmoqlarida masalan, ogir va kimyo sanoati ishlab chiqarishda qisqa muddatli maqsadlarga moslashtirilgan jihozlar yuqori samarali bo'ladi. Aynan shuning uchun ham talab tez o'zgarib turuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan sanoat tarmoqlarda, o'zini qisqa muddatda qayta tashkil etishga moslashuvchi tashkilotlar kamroq tavakkalchilikka boradilar.

8.2. Ishlab chiqarishda tavakkalchilik omillari

Ishlab chiqarish qanchalik ko'p ixtisoslashuvchi jihozdan foydalansa, shunchalik davr talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish maromini ta'minlaydi. Ammo talab barqaror keskin o'zgarganda u shunchalik qiyin moslashadi. Demak bunga shuncha ko'p xarajat ketadi.

Agar tashkilot keng nomli slaturodagi mahsulotni paralel yoki ma'lum bir ketma-ketlikda ishlab chiqarsa, tavakkalchilikni ma'lum darajada pasaytiradi. Unga yaqqol misol qilib, yangi mahsulot bilan bir qatorda, oldingi mahsulotini ham ishlab chiqarayotgan tashkilotlar misol bo'la oladi. Tavakkalchilikni pasaytiruvchi bu «usul»ning kamchiligi shundaki, o'zining barcha imkoniyatlari va boshqa resurslarini ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashish uchun texnologik va tashkiliy imkoniyatlarini boy beradi. (Aks holda jihozlarni qayta ko'rish muammolari yuzaga keladi).

Rivojlanish (taraqqiyot) yo'lini tanlash sohasidagi tavakkalchilik to'g'risidagi masalalar ichki va tashqi bozor muammolari bilan bog'liq holda qarab chiqiladi.

Xalq xo'jaligining ko'zlangan masalalarida uni bajarayotgan korxonalar maqsadga erisha olmasa, bu yuqori organlarning rejalashtirishdagi xatosi bilan emas, balki shu korxonaning rejalashtirishdagi kamchiliklar turayli sodir bo'ladi, deb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yondoshilganida rejalar qanchalik puxta ishlangan bo'lsa, tashkilot uchun tavakkalchilik shunchalik kam bo'ladi. Shunday qilib, ilmiy asoslangan rejalashtirish - bu tavakkalchilikning xatarli oqibatlarini kamaytirish usulidir. Shu bilan bir qatorda maxsus adabiyotlarda, rejalashtirish tavakkalchilikga qarshiko'rash vositasi deb qaralmasligi lozim, - degan nuqtai nazar mavjud. Ilmiy asoslangan rejalashtirish - noaniqlarni kamaytiruvchi ishonchli omil hisoblansada, eng yaxshi reja ham, ijtimoiy iqtisodiy vaziyatdan yuzaga keluvchi noaniqliklarning barcha unsurlarini o'zida mujassamlashtira olmaydi.

Ichki va tashqi bozor bilan bog'liq tavakkalchilik turlari bir-biri bilan mustahkam aloqada bo'lgan, bir biriga ta'sir etuvchi ko'plab umumiy unsurlarga ega. Shuning uchun tavakkalchilikning bu ikki turini birinchi navbatda ichki va tashqi bozor uchun xarakterli bo'lgan xislatlarini inobatga olib qarab chiqamiz. Ichki bozor bilan bog'liq tavakkalchilikning tashkil etuvchi muhim unsurlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- eski va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va strukturasi aniqlash bilan bog'liq tavakkalchilik (Biz bu masalani yangi va eski mahsulotlarni paralel ishlab chiqarishning afzalligi va kamchiliklari to'g'risida gapirganimizda ko'rib chiqqan edik);

- mahsulot ishlab chiqarishda yangi mahsulot ulushini sezilarli darajada ortishini ilmiy tadqiq qilishni moliyalashtirish to'g'risida bir qarorga kelish bilan bog'liq tavakkalchilikni o'sishi (bu yerda yangi ishlab chiqarilgan mahsulot talab darajasidagi sifatga javob bera oladimi; degan masalaga befarq bo'lib bo'lmaydi)

O'zini oqlagan yangi texnologiya importi rivojlanish sohasidagi tavakkalchilikni pasaytiradi, shuningdek u ortiqcha foyda qismini saqlab qolish imkonini yaratadi (baho tarkibidagi tavakkalchilik ulushini

kamaytirish hisobiga), chunki mahsulot bozorga baho egri chizig'ining ancha yuqori nuqtasiga boradi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq tavakkalchilik (ya'ni tashkilot ixtiyorida ma'lum bir davr davomida oldindan nazarda tutilgan sifat va miqdordagi ishlab chiqarish zahiralari bo'ladimi ?)

- bozor bilan bog'liq tavakkalchilik (ya'ni yangi va eski mahsulot taklifi to'lovga qobil talab miqdoriga mos keladimi ?)

Xarajat va narx bilan bog'liq tavakkalchilik (ya'ni oldindan hisoblangan yoki past narxda sotilganda to'lovga qobil talab mahsulotga bo'lgan ehtiyoj xarajatlarini qoplaydimi; va haqiqiy xarajatlarni hisobga olganda daromad olish mumkinmi?)

Korxonani rivojlantirish sohasiga oid qaror qabul qilishda ko'proq darajada xalqaro mehnat taqsimoti va uning ehtiyojiga tayanish lozim bo'ladi. Buning mazmuni shuki, nafaqat bizdagi mavjud moddiy resurslar birinchi navbatda ichki ehtiyojlarni qondirish zaruratidan kelib chiqqan holda balki xalqaro iqtisodiy tendensiyalarini, ulardan foydalanish, nisbatan qulaylik darajasini hisobga olib taqsimlanishi lozim.

Boshqacha qilib aytganda mavjud resurslarimiz ma'lum darajadagi noaniqlikda baholanuvchi tashqi omillarni o'rganish asosida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi lozim.

Demak doimo umumjahon iqtisodiyotidagi iste'mol (talab) va ishlab chiqarish strukturasi (taklif) o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish kerak. Biror yangi ishlab chiqarish obyektini ishga tushirish to'g'risida qaror qabul qilishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- jahon bozorida yangi mahsulotga talab darajasi va taklif holati qanday bo'lishi kutilayotganiga;

- jahon bozorida qanday narxlarda mahsulot sotilishi mumkinligiga;

- xalqaro darajada olganda mahsulot tannarxi qanday bo'lishiga (raqobatdagi o'xshash mahsulotlar tannarxi);

- mazkur mahsulot sotilishi mexanizmi qanday bo'lishiga (monopol, raqobatli);

- mahsulotimiz sotilishi rejalashtirilayotgan bozorda raqobatdagi import va mahalliy mahsulotlarga nisbatan tamojnya (bojxona) himoyasi tadbirlari qanday darajadaliqiga.

Barcha bu dalillarsiz baholar o'z ichiga xilma-xil tavakkalchilik elementlarini oladi: aynan: kutilgan va kutilmagan hodisalarni kelgusida

sodir bo'lish yoki bo'lmasligi bilan bog'liq tavakkalchilik, (har xil teng sharoitda) oldindan baholash tizimidagi o'zgarishlar imkoniyati bilan bog'liq tavakkalchilik; foydalanilayotgan oldindan baholash davomidagi axborotlarning aniqligi bilan bog'liq tavakkalchilik.

Agar ishlab chiqarish vositalari ishlab chikarilsa va u yangi mahsulot bo'lsa u holda bu mahsulot iste'molchi tomondan faqatgina ishlab chiqarishda texnologik qayta ko'rishdan so'nggina foydalanilishini hisobga olish lozim. Shuning uchun yangi uskunalarni olish, uni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kapital quyilmani qo'shimcha xarajatlar va iste'molchi tomonidan bu xarajatlarni qoplash manbaalarini hisobga olish zarur.

Agar gap an'anaviy mahsulotlar ustida borsa, u holda texnologiyani yangilash, ancha zamonaviy yoki ancha arzon mahsulot ishlab chiqarishga sabab bo'ladi.

Kundalik ehtiyoj mollari ustida gap borsa (tekstil, tamaki, oziq-ovqat va kiyim-bosh tovarlari), yangi mahsulotni bozorda paydo bo'lishi va bozorni bu tovar bilan tuyinishi, ularni sotishda qiyinchilik tug'diradi.

Eski mahsulot ishlab chiqarilgan holatda bunga qo'shimcha iste'mol strukturasi o'zgarishi ham ko'shiladi.

Raqobatchilarning ishlab chiqarishni rivojlantirishlari yo'nalishidagi imkoniyatlari to'g'risidagi axborotlardan doimo xabardor bo'lib turish lozim va bu axborotlarni quyidagi uch manbaadan olish mumkin:

- chet ellardagi ilmiy tadqiqotlar axborotidan;
- kapitallar to'g'risidagi axborotlardan (qimmatli qog'ozlar va aksiyalar chiqarishga yo'naltirilgani)
- dotatsiya, imtiyoz va davlat subsidiyalari to'g'risidagi ma'lumotlardan (davlat tomondan qo'llab quvvatlanuvchi ilg'or mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq tadqiqotlar)

Ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi va uning holati faqatgina ishonchli ilmiy-texnik xujjatlar yordamida aniqlanadi.

Bo'lmasa, bu tadqiqotlar natijasida - kapital harakatining hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzaga kelishni aniqlash mumkin bo'lar edi.

Ishlab chiqarishda yangi ilmiy progresni tadbiq etish qo'shimcha kapital kiritishni talab etadi.

Biz u yoki bu sanoat tarmog'idagi ishlab chiqarishga ko'p millatli va chet el korxonalarining investitsiyalarini ta'siri to'g'risida to'xtalmoqchimiz.

Ma'lumki ishlab chiqarish kundan-kunga baynalminallashmoqda, asosiy kapitalni jamg'arish jaraniyonda chet el manbaalarining ulushi uzluksiz ko'payib bormoqda, kelgusidagi takliflarni shakllanishida namoyon bo'lmoqda. Chunki tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalarda korxonalarining xususiy daromadlari uzoq muddatli rivojlanish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmaydi, biz raqobatdagi korxonalarimizning niyatlarini ularga berilgan imtiyozlar va yirik davlat dotatsiyalari yo'nalishlaridan aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

Qarorlar loyihasini tayyorlashda chop etilgan rivojlangan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bashoratlarini o'rganish kerak. Lekin bu yerda ham o'ziga xos murakkablik mavjud. Chunki bu bashoratlarning asosiy maqsadi davlat va tadbirkorlar uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatgichlarni shakllantirish to'g'risida (jamoatchilik xarajatlari, zahiralar holati, shaxsiy iste'mol, eksport, import, narx, bandlik, sanoat ishlab chiqarish, ish haqidarajasi va uning dinamikasi) ma'lumot berishdan iboratdir.

Bashoratlarning o'z tomoni to'lov balansi va xalqaro kapital harakati sohasida namoyon bo'ladi. Bashoratlash bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlar nuqtai nazarida aytib o'tilgan bu parametrlarni kelgusidagi qiymatini aniqlash - hali to'liq ishlab chiqilmagan (unga turistik sayohatlar, xalqaro yuk tashishlar, xizmat ko'rsatish pul mablag'larini uzoq muddatli harakati kabilarda kapital harakatini jilovlab bo'lmasligi kiradi)

Ko'p hollarda u shunchaki noaniq bo'lib qoladi. Agar gap kapitalni uzoq muddatli harakati to'g'risida boradigan bo'lsa, bir qancha hammaga ma'lum bo'lgan omillar e'tiborga olinadi, ammo ko'p hollarda bunday bashoratlar katta intuitsiyaga asoslangan bo'ladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish va sotish to'g'risidagi tadqiqotlarga oid xabarlar kabi kapital va investitsiyalar harakati to'g'risida ma'lumotlardagi noaniqliklar ham tavakkalchilikni bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun foydalanilayotgan xabarlardagi noaniqlikning bir xillilik xislati juda muhimdir. Oldindan baholanuvchi ekzogen ma'lumotlar ichidagi eng qiyin aniqlanuvchi ko'rsatgichlardan biri bu sotishdagi ko'zlanayotgan narx darajasi hisoblanadi. Aniq belgilanuvchi narx ko'plab omillarga bog'liq. Ulardan eng muhimlariga ishlab chiqarish xarajatlari hajmi; mahsulot sifati, taklif o'lchami, o'xshash mahsulotga almashtirish imkoniyati, ehtiyojni to'lovga qobillik hajmi va h.z) kiradi.

8.3. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va tavakkalchilik

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmini asossiz baholashda, o'ziga nisbatan raqib tashkilotlardagi ishlab chiqarish xarajatlari hajmini tahlil qilishga intilish lozim. Ayni paytda o'zining mahsulotini tannarxi, zarur axborot bo'lmaganida, konkurent mahsulot tannarxini hisoblashda asos qilib olish mumkin. Bunday qiyosiy tahlil xarajatlar strukturasi umumiy hajmni tashkil etish darajasiga qarab, muhim bandlarga ajratib o'rganishdan boshlanadi.

Shuni ham nazardan tutmoq lozim, xarajatlar elementlari qatorida o'z manbaalari hisobidan va faqatgina import hisobidan ta'minlanganlari bo'ladi. Import materiallar, energiya yoki mashina uskunalarni baholashda aniq qiymatni aniqlash valyuta kursidagi o'zgarishlar sababli o'ta qiyin. Importga olingan materiallar va boshqa resurslar uchun narxni shakllantirish uchun o'z materiallari va resurslariga narxni shakllantirishga nisbatan ko'p noaniq omillar ta'sir ko'rsatadi.

Agar azaliy ta'minotchi bilan raqobat hisobga olinsa, u holda xarajatlar nuqtai nazaridan raqobatlashuvchi ancha yaxshi holda, chunki u qulay yoki shunga yaqin darajada harakat qilmoqda deb tasavvur qilinsa to'g'ri bo'ladi. Kimki yangi bozorni egallamoqchi bo'lsa, qoidaga ko'ra raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun ishlab chiqarishni kichik hajmda boshlashi lozim bo'ladi. Narxlar shakllanishining kutilayotgan yo'nalishlari to'g'risida nafaqat qisqa muddatga, qolaversa ancha uzoq muddatga xabardor bo'lish zarur. Uning yordamida raqobat qanday bo'lishini aniqlash mumkin, (qancha miqdorda mahsulotni asosiy ta'minotchilar qanday baholarda sotishadi, baho darajasidagi o'zgarish va oborot hajmi orasida bog'lanish mavjudmi?) va nihoyat, raqib va o'z mahsulotlari sifati orasida qanday farq mavjud.

Maxsus adabiyotlarda tovarlar uchun narxlarni shaqlanishi tahlil qilinishida turt asosiy guruhga ajratiladi:

- barqaror yoki kariyb barqaror narxlardagi mahsulotlar
- qattiq to'lqinlanuvchi, va har xil yo'nalishli narxlardagi mahsulotlar;
- doimo narxi pasayib boruvchi mahsulotlar;
- uzoq muddat narxi doimo oshib boruvchi mahsulotlar (bu guruh tahlil qilishda ancha muhim urin to'tadi, chunki jahon savdosida uning ulushi hamma vaqt oshib boradi).

Baholar qanday muddatga barqaror bo'lishini va qachon uning

yangisiga o'zgarishini dalilsiz baholash uchun bozor kon'yunkturasi to'g'risida va texnik axborotlar zarur bo'ladi.

Hisob-kitoblarning oddiy tartibi:

1. *Ishlab chiqarish sharoitida informatsiya (axborotlar)ning o'zgarishi tahlil qilinadi.*

Ishlab chiqarishning texnik parametrlarining o'zgarishini (xomashyo va elektr energiyaning solishtirma sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish birligi o'lchamlarini ortishi, mehnat sarfini qisqartirish, ishlab chiqarishning kapital sijmini o'zgarishi), tannarxga qanday ta'sir etishini, shuningdek tannarx narxni shaqllanishiga qanchalik ta'sir etishini aniqlash uchun eksperimental hisob-kitob yuritiladi.

Ayni paytda ishlab chiqarish omillarida xususiy narx o'sishi mumkin.

2. *Mahsulot sotilayotgan bozor mexanizmiga doir axborotlar tahlil qilinadi.*

Agar biz monopol bozor mexanizmi bilan ishlasak u holda texnik taraqqiyot ta'sirida vujudga keluvchi narxni pasaytiruvchi omil sifatida qarab chiqamiz. Lekin aynan shu jarayonda noaniqlik elementlarini ko'ramiz. Haqiqatdan ham monopol mexanizm hukmron bo'lganida, mahsulotning sotilish narxi uzoq vaqt talab va taklif bilan tabiiy munosabatni, shuningdek, ishlab chiqarishdagi xarajatlar o'lchami bilan aloqani uzadi. Bu uzoq muddat texnika taraqqiyotiga asoslangan narxlar harakatini bir xilda saqlab turadi. Keyin narx sakrash yo'li bilan pasayadi.

Biz o'z mahsulotimizga kutilayotgan talab, shuningdek, raqibatchilarimizning o'xshash mahsulotlariga bo'ladigan talab miqdorini bashorat qilishda biz bir paytning o'zida o'z mahsulotimiz tannarxi bilan xalqaro darajadagi o'xshash mahsulotlar tannarxini taqqoslashimiz zarur, taqqoslashsiz asoslangan qaror qabul qilishimiz mumkin emas. Bu to'g'rida naxlarni shakllantirish omillari va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi muammolarini o'rganayotganimizda tanishgan edik.

Kutilayotgan mahsulot sotish mexanizmini biz «mustaqil o'zgaruvchi» sifatida qarab chiqamiz, chunki u biz uchun xalqaro bozordan go'yo tashqi zamin sifatida namoyon bo'ladi.

Monopol bozor mexanizmida bizda 2 variant: birinchisi, monopol narx bilan kelishish, ikkinchisi kelishmaslik tanlovi mavjud bo'ladi. Kelishmaslik tanlovida ham 2 imkoniyat mavjud, shunday vaziyatga tushib qolgan boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan birga mahsulot

sotishning xususiy mexanizmini yaratish; yoki mahsulot sotishning monopol mexanizmi tarqalmagan boshqa bozor topishdir.

Keyingi masala, biz tanlagan bozorning bojxona (tamojnya) himoyasi muammosidir. Bu masalada o'ta ehtiyotkorlik zarur, chunki tamojnya stavkalarini o'zgarishi, kutilayotgan natijalarni keskin o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu masalada quyidagilarni aniqlash muhimdir:

-bizning mahsulotimiz tamojnya tarifining qaysi sinfiga mansub (ya'ni qanday shaqlda u biz uchun eng qulay bo'lgan sinfiga mansub bo'la oladi)

-qandaydir maxsus kelishuv asosida doimiy yoki muvaqqat tamojnya imtiyozini olish imkoni mavjudmi?

-qanday tashkiliy shaqldagi mahsulot sotilishi tamojnya to'lovlari miqdorini pasaytira oladi.

-qandaydir ishlab chiqarish operatsiyasini bajarish uchun yoki chet el hududida qadoqlash operatsiyalarini o'tkazish maqsadida chet el korxonalarini bilan qo'shma korxonalar tuzish)

-hamkor davlatda tamojnya nizomiga kiritilishi kutilayotgan o'zgarishlar;

-o'z mamlakatimizda tamojnya shartnomasiga kiritilishi kutilayotgan o'zgarishlar.

Shunday qilib xo'jalik tavakkalchiligi iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq qarorlarda juda katta rol o'ynaydi. Tavakkalchilik elementlarini ko'p ekanligi, ularni miqdoriy baholashni murakkabligi keyinchalik iqtisodiy fan, hamda huquq sohalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini tug'diradi. Bunday tadqiqotlarning eng qulay usuli tajribaga asoslangan ma'lumotlarni yigish, qabul qilingan qarorlarni asoslovchi dastlabki hisob-kitoblarni hamda haqiqatda erishilgan natijalarni tahlil qilish va bu sohada to'plangan tajribalarni muntazam ravishda umumlashtirib borishdan iborat.

Qisqa xulosalar

1. Bozor sharoitida ishlab chiqarishni rivojlantirishda noaniqlikka bartaraf berish uni katta yo'qotishlardan asraydi.

2. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda noaniqlikka bartaraf berish uni katta yo'qotishlardan asraydi.

3. Yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurishda tavakkalchilikni e'tiborga olish korxonalarini faoliyatini yaxshilaydi.

4. Ishlab chiqarish obyektlarini qurishda ko'p variantli shaqllardan foydalanish kelajakda ularni daromadlarini oshiradi.

5. Tavakkalchilikni boshqarishni to'g'ri tashkil etish ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

6. Ishlab chiqarishni tashkil etishda tavakkalchilikni aniq usullaridan foydalanish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish darajasidagi tavakkalchilikni tushintirib bering.

2. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda tavakkalchilikni qanday turlaridan foydalaniladi?

3. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda ichki muhit bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikni ko'rsatib o'ting.

4. Tadbirkorlikni rivojlantirishda tashqi muhit bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikni aytib bering.

5. Ishlab chiqarishda tavakkalchilik qanday ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'ladi?

6. Rivojlanishni tanlash sohasidagi tavakkalchilik.

7. Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishdagi tavakkalchilik nimalardan iborat?

8. Nafs va xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikni qanday izohlash mumkin?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: «Ўзбекистон», 2003.

2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. — Т.: Адолат, 1999-2005.

3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. — М.: Финансы и статистика, 2004.

4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. М.: Экономика, 2002.

5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. — М.: Дело, 2004.

6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. — М.: Инфра — М, 2005.

7. Тепман М.Н. Риск в экономике. — М.: ЮНИТИ, 2002.

8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. М.: 2003.

9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

IX BOB TAVAKKALCHILIKNI O'LGHASH USULLARI

9.1. Tavakkalchilikni miqdoriy baholash

Tavakkalchilik — ehtimollik toifasiga kirgani uchun ham tavakkalchilik darajasini miqdordan aniqlash va noaniqlikni baholash jarayonida ehtimollik hisob kitoblardan foydalaniladi.

Oldin aytib o'tganimizdek, tavakkalchilikni miqdoriy baholashda ancha keng tarqalgan usullaridan biri — bu statistika usullaridir. Tavakkalchilikni hisoblashdagi statistika usulini quyidagilar kiradi:

— o'rgatayotgan tasodifiy miqdorni o'rtacha qiymati (qandaydir xatti-harakati oqibati masalan foyda, daromad va h.z.)

— dispersiya;

— standart (o'rta kvadratik) og'ish;

— variatsiya koeffitsiyenti;

— o'rganilayotgan tasodifiy miqdor uchun ehtimollikning taqsimoti statistika nazariyasidan ma'lumki, miqdorning chegaralangan (n) sonli sodir bo'luvchi qiymati uchun uning o'rtacha qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

Bu yerda X_i -tasodifiy miqdor qiymati P_i -tasodifiy miqdorni sodir bo'lish ehtimoli.

O'rtacha miqdor - kutilayotgan natijaning umumlashgan miqdoriy tavsifini ifodalaydi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan natijalar o'lchamini belgilovchi muhim tavsif-bu o'rtachadan haqiqiy natijalarning kvadratik og'ishini o'rtacha o'lchami bo'lgan dispersiyadir.

$$b^2 = m(x - \bar{x})^2$$

Shuningdek bunga juda yaqin bog'liq bo'lgan va quyidagi ifoda bilan aniqlanuvchi o'rta kvadratik og'ish-

$$B = \sqrt{b^2}$$

Dispersiya va o'rta kvadratik og'ishlar absolyut tarqoqlikning o'lchami bo'lib xizmat qiladi va variatsiyalangan belgilari o'lchanuvchi kattaliklar bilan o'lchanadi.

O'zgaruvchanlik darajasini tahlil qilish uchun ko'p hollarda (o'rta arifmetikdan o'rta kvadratik og'ishni ifodalovchi va olingan qiymatlardan og'ish darajasini ifodalovchi variatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi:)

$$V=m(x-mx)(u-\mu)$$

Variatsiya koeffitsiyenti nisbiy miqdori hsoblanadi. Shuning uchun ham uning yordamida turli xil o'lchov birliklarida ifodalangan belgilar tebranishini taqqoslash mumkin. Ma'lumki kutilayotgan natijalarni (masalan daromad miqdorini) shakllanishi uchun, juda ko'plab tasodifiy omillar ta'sir etadi, tabiiyki ular tasodifiy miqdor bo'ladi.

X tasodifiy miqdorning yana bir xislati uning ehtimoliyatining taqsimot qonunidir.

Taqsimot turining xislati o'rganilayotgan ko'rsatkichlar (ariatsiyasiga ta'sir etuvchi xususiyatlar hodisalar tabiati va mohiyatidan kelib chiquvchi umumiy sharoitlarni ifodalaydi.)

Tajribalar shuni ko'rsatmokkaqi ijtimoiy-iqtisodiy taqsimot tavsifi uchun ko'proq me'yoriy taqsimot qo'llanilmoqda.

Aksariyat xo'jalik faoliyatning natijalari (daromad, foyda va h.z.) tasodifiy miqdor sifatidan qandaydir me'yorga yaqin qonuniyatga buysunadi, iqtisodiy tavakkalchilikning miqdoriy baholash muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarda keng qo'llaniladi. (16, 38, 30)

Shu narsa ma'lum-ki, me'yoriy taqsimot qonuniyati sodir bo'lishi, bir qancha o'zaro bog'liq bo'lmagan omillar ta'sirida bo'lib va bu omillarning birorta ham ustunlik qiliuvchi ta'siriga ega bo'lmagan holatidagi hodisalar taqsimoti uchun xarakterlidir.

Haqiqatda iqtisodiy hodisalar, me'yoriy taqsimoti asl holda kam uchraydi, lekin, agar to'planish bir xilligiga rioya etilsa, ko'p hollarda haqiqiy taqsimot me'yoriga yaqin bo'ladi.

Amaliyotda qabul qilingan taqsimotning asosliliyigini tekshirish uchun kelishuvining turli mezonlari (empirik kuzatish va nazariy taqsimot aro) qo'llaniladi-ki, uning oqibatlarida taqsimot qonuniyatlari to'g'risidagi gepotezani qabul qilish yoki inkor etish mumkin bo'ladi. Ehtimoliyat nazariyasi va matematika statistika kursidan ma'lumki, normal tasodifiy miqdorning taqsimoti uzluksiz bo'ladi va uning taqsimlangan differensial funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Bu yerda $u=f(X)$ -har bir X nuqta uchun taqsimot ehtimoli zichligini aniqlaydi. Normal me'yoriy taqsimot funksiyasi grafigi normal egri chiziq bo'ladi. (Guasse egri chizig'i) normal taqsimot differensial funksiyasining grafigini muhim xossasi shuki, unda normal egri chiziq va X o'qi bilan chegaralangan maydon har doim birga teng. Normal

taqsimot zichligi funksiyasidan foydalanish tasodifiy miqdorni sodir bo'lish tebranish (ehtimoliyati)ni hisoblash imkoni paydo bo'ladi.

Ma'lum bir oralikda tasodifiy miqdoriga tushish ehtimoliyatini baholash uchun $F(X)$ ehtimoliy zichlikning integral funksiyasidan foydalaniladi.

$$F(X) = f(x)$$

Tasodifiy miqdori $[K; R]$ oralikga tushish ehtimoliyati quyidagicha aniqlanadi:

$$R(a < x < v) = F(v) - F(a)$$

bu yerda $f(x)$ -normal taqsimotning differensial funksiyasi:

Yuqorida aytib utilgan hollar statistik usullar bilan tavakkalchilikni miqdoriy baholash uchun asosli baza bo'lib hisoblanadi. Bundan keyin faraz qilamiz-ki, o'rganilayotgan miqdor normal taqsimot qonuniga buysunadi.

Ma'lumki miqdorni tashkil etgan, kutilayotgan natijaga maksimal tebranish berligna-deb faraz qilamiz. U holda bu natijada joylashuvchi chegara quyidagini tashkil etadi:

$$X^* = X_{oj} - X^{**} = X_{oj}$$

Umumiy holda X_{oj} va X^* va X^{**} o'zaro mos kelishi mumkin deyishga zarurat yo'q., demak kutilayotgan (rejalashtirilayotgan, istalayotgan) qiymat o'rtachadan farq qilishi mumkin. Umumiy holda chegaradagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar kutilayotgan rejalashtirilayotgan qiymatga nisbatan assimetrik joylashadi.

Taqsimot zichligi funksiyasi mohiyatidan kelib chiqib, oritiluvchi natijalar ehtimoliyati (R_1) faraz qilingan chegarada yotishi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$R_1 = R(X^* < X_{oj} < X^{**})$$

bu yerda $f(x)$ o'rganilayotgan karb chiqilayotgan miqdor taqsimot zichligining funksiyasi. Shunday qilib olingan ehtimoliyat R_1 ni kutilayotgan (rejalashtirilayotgan) natijasiga erishish ehtimoliyati darajisi deyiladi. Tabiiyki darhol faras qilingan R_2 chegaradan tashqariga X_{oj} qiymatni tushunish ehtimoliyati qanday bo'ladi degan savol tugiladi. Normal taqsimot egri chizig'i xarakteristikasi (xossasidan) kelib chiqib quyidagini taqsimlaymiz. Normal egri chiziq bilan chegaralangan, X o'qidagi intervalda qiymatlarni qabul qiluvchi tasodifiy qiymat aniq bo'ladi, ya'ni uning ehtimoliyati 1 ga teng bo'ladi. U holda:

$R_2 = R(X_{oj} < X^*) = R(X_{oj} > X^{**}) = 1 - R(X^* < X_{oj} < X^{**})$,
ya'ni R_2 q $1 - R_1$ bo'ladi. R_2 ehtimoliyat natijasining noaniqligini baholaydi.

Qoidaga ko'ra, kutilayotgan natijani chegrasi munosabat tomoniga (yo'nalishiga) o'gzarishi aniqlanmagan, shuning uchun R_2 tarifdan aksariyat hollarda suz faqatgina R_2 q $R(X_{oj} < X^*)$ qiymat ustida ketadi. Shunday qilib amaliyotda maydon figurasi (shakli) hamma vaqt nesimmetrik bo'ladi. Shuni qayd etish lozimki, ba'zi-bir mualliflar tavakkalchilikning bevosita o'lchami R_2 miqdor deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham nisbatan sodda hollarda tavakkalchilik darajasini baholash uchun manfiy natija (R_2)ni olish ehtimoli miqdoridan foydalanish mumkin.

Shuningdek biz qarab chiqqan tavakkalchilik tarifidan bu yerda tavakkalchilik tushunchasining muhim omillari hatto ko'tarilmaganligi kelib chiqadi.

Keyingi mulohazalarimizni tasdiklash va namoyon etish uchun quyidagi oddiy misolni keltiramiz: O'zimizni ma'lum bir enlikdagi ariqdan sakrovchi kishi deb faraz qilamiz. Agar ariq tor bo'lib sakrovchi kishi yaxshi sportchi bo'lsa, tavakkalchilik to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Agar ariq keng bo'lib, yaxshi sportchilarning 80% sakrash ehtimoli bo'lsa, vaziyat darrov o'zgaradi. Agar chuqurligi bir metrli ariqdan emas, balki chuqurligi yuz metrli jarlikdan sakrash to'g'ri kelsachi, u holda tavakkalchilik nuqtai nazaridan muammo yana o'zgaradi. Yana albatta tavakkalchilik tarifi nuqtai nazaridan shuni e'tiborga olish muhim-ki maqsadga erishish qanday mukofot bilan rag'batlantiriladi.

Bizning kundalik tavakkalchilikni baholashimiz hamma vaqt sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni sodir bo'lish holatlarini noqulay vaziyatlarda ko'rishimiz mumkin bo'lgan zararlarni taqqoslashga asoslanadi.

Endi biz yuqotish va yutuqlarni baholarini hisobga olgan holda tavakkalchilikni sonda ifodalash to'g'risidagi mulohazalarimizga qaytamiz.

9.2. Tavakkalchilikni miqdoriy baholash va uni aniqlash usullari

Oddiy amaliyotda - tavakkalchilikni taqsimlanishi - loyiha ishtirokchilaridan mas'uliyatni tanlab, hammadan ko'ra tavakkalchilikni

hisoblab va nazorat qilishdan iboratdir. Biroq hayotda shunday bo'lishi mumkinki shu xodim (partner moliyaviy tomondan yetarli ma'lumotga ega emaski tavakkalchilik oqibatini yengib utsa. Maslahatchi firmalar, jihoz yetkazuvchilar, va ko'pchilik tavakkalchilikni kompensatsiyalash uchun mablag'lari bo'lib

Tavakkalchilikni taqsimlanishi - moliyaviy reja loyihaini va kontrakt xujjatlarini tayyorlashda aniqlaniladi. Tavakkalchilik analizi kabi-loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi sifatli va miqdorli bo'lishi mumkin. Tavakkalchilikni loyihalarda taqsimlanishi uchun kontsentualno'y sifatli modeldan foydalanish tavsiya etiladi. Model standart metodlarga asoslangan bo'lib, uni asosi «Ehtimollar va qarorlar» daraxti bo'lib, qarorlarni ketma-ketligini aniqlash uchun foydalanishlar, bu muammo ikki xil xarakterga ega, investitsion loyihaagi ishtirokka asoslangandir. Ikki tomonni sotuvchi va xaridor, buyurtmachi va bajaruvchi. Bir tomondan buyurtmachi mumkin qadar kontrakt qiymatini kamaytirishga intiladi, bunda muddat va sifat bo'yicha barcha talablar bajarilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan bajaruvchi - buyurtmalar portfeli tashkil etilganda maksimal foyda olishga intiladi.

Bajaruvchini foydasi - buyurtmalar portfelin baholashda quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi mumkin.

$$P = (k = U_1)r(U_1) (k=U_2)r(U_2)...(k=U_p)r(U_p)$$

bunda p - firma foydasi.

k - firmani boshlangich kapitali.

U_i - firmani imkoniyatli foydasi.

(i=1,2,3,...,p): p - loyihalashni bajarishdagi hodisalar soni; R_(ui) har bir tugallanishni ehtimolligi.

Loyihalarni investirlash davomiyligi va miqdorlarini o'sishi murakkablik va xilma-xillik, ularni tadbiq etishda muhitni yuqori dinamikligi, raqobatlilik inflyatsiya va boshqa salbiy omillar - loyihani ro'yiobga chiqarishda - tavakkalchilik darajasini o'sishiga olib keladi.

Tavakkalchilikni sifatli boshqarishda - loyiha ishtirokchilari qarorlari investorlar diapazonini yo kengaytiradilar yoki qisqartiradilar.

Tavakkalchilik darajasini investorlarga yuqlanmoqchi bo'lsa, loyiha ishtirokchilari loyiha moliyalashtirish uchun tajribali investorlarni jalb qilishi qiyin bo'ladi. Shuning uchun loyiha ishtirokchilariga fikr almashish vaqtida tavakkalchilikning qaysi qismini o'ziga olishni xohlashi masalasida maksimal egiluvchanlik tavsiya etiladi.

Loyiha ishtirokchilari tomonidan tavakkalchilikni quyi qismini olish xohishi bildirilsa tajribali investorlarni o'z talablarini pasaytirishga undashi mumkin.

9.3. Ortiqcha xarajatlarni qoplash mablag'lari ma'nbalari

Ko'pchilik katta loyihalar uchun ularni tadbiiq qilinishidagi to'xtalish bo'lib buyurtmachi uchun ishlar qiymatini o'sishiga olib keladiki. Bu esa loyihani boshlangich qiymatining o'sishiga ham sabab.

Masalan: elektr bilan ta'minlash liniyalarini uz vaqtida ulab bermaslik natijasida, to'xtalish bo'lganligi uchun pudratchi to'laydigan jarima, buyurtmachini xarajatlaridan kamroq bo'ladi. Bunday holatdan chiqish uchun, loyihada ishtirok etishga sug'urta kompaniyalarini jalb qilish zarur.

Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplashga rezerv strukturasi (tarkibini) aniqlash 2 yo'nalishda olib boriladi:

— yo'nalishda rezerv 2 bo'lakka bo'linadi: umumiy va maxsus.

Umumiy rezerv smetadagi o'zgarishlarni qoplashi kerak.

Maxsus rezerv - narx oshishida ustamalarni, alohida pozitsiyalar bo'yicha xarajatlar o'sishini, shuningdek kontraktlar bo'yicha da'volarni to'lashni o'z ichiga oladi. Rezerv strukturasi tashkil etish uchun yo'nalish chiqimlar turi bo'yicha ko'zda tutilmagan xarajatlarni aniqlash.

Masalan: mehnat haqi uchun, materiallar, subkonstraktlar,

Bunday diferensiyalash tavakkalchilik darajasini aniqlashga imkon yaratadi. Bu yo'nalish ko'zda tutilmagan xarajatlar ustidan nazoratni ta'minlaydi, nisbatan katta bo'lmagan loyihalarga qo'llaniladi. Ko'zda tutilmagan xarajatlar rezervi boshlang'ich smetaga kirgan chiqimlar turi bo'yicha aniqlanadi.

Rezervni qoniqarsiz ishlash natijasida yuzaga kelgan chiqimlar kompensatsiyasi uchun ishlatilmasligi kerak. Umuman rezerv quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin: loyiha bo'yicha yangi aniqlangan ishlar uchun assignovanie ajratishda bajarilayotgan ish uchun assignovanie ko'paytirish byudjetni vaqtinchalik tashkil etish, shunday ishlarni hisobga olib, zaruriy assignovaniey ajratilmagan - loyihalar ustida ishlashda yuzaga kelgan, ko'zda tutilmagan chiqimlar kompensatsiyasi. Rezervni joriy xarajatlari bo'lajak tavakkalchilikni qoplash uchun qoldiqlar bilan ta'minlashda baholanishi kerak.

Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun rezerv ajratilgan ishlarni bajargandan keyin, ko'zda tutilmagan xarajatlarni rejali va haqiqiy taqsimlanishini taqqoslash mumkin va shu asosda ko'zda tutilmagan xarajatlardan foydalanishni loyiha tugaguncha aniqlanadi. Bu vaqtda ajratilgan rezervni foydalanilmagan qismi loyiha rezerviga qaytarilishi mumkin. Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun ketgan mablag'ni bir qismi - umumiy rezerv deb ataluvchi qismi – yuqori rahbar nazoratida bo'ladi.

Loyihani moliyalashtirishda uni foydali tomonlarini belgilash asosiy shartlardan biridir. Moliyalashtirish 2 asosiy masalani bajarishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- investitsiyalar oqimini ta'minlash loyiha rejali bajarishi zarurdir;
- kapital chiqimlar va investitsiyalarni optimal tarkibi hisobiga loyiha tavakkalchiligi va afzalligini ko'rsatishdir. Loyihani moliyalashtirish rejasi-tavakkalchilikda asosiy vositadir, loyihani hayotga layoqatsizligi, tavakkalchiligi - eng katta tavakkalchilik.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni eng asosiy jihatlaridan biri o'lchash usullaridir. Boshqa iqtisodiy fanlarga qaraganda tavakkalchilikni boshqarishda matematik usullardan keng foydalanish tavakkalchilikni hisob – kitob qilishda obyektiv aniqlikka erishildi.

2. Tavakkalchilikni baholashda asosiy qo'llaniladigan usullardan miqdoriy o'lchashdir.

3. Tavakkalchilikni o'lchash usullaridan foydalanishda asosiy e'tiborni foydani qaratilishi kerak.

4. Tavakkalchilikni o'lchash usullarida bevosita loyiha davrida qo'llanilishi yaxshi samara beradi.

5. Tavakkalchilikni o'lchash usullarini takomillshtirish unda foydalanilgan koefitsiyentlariga bog'liqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilikda qanday o'lchash usullari mavjud?
2. Tavakkalchilikni baholash qanday bosqichlardan iborat?
3. Tavakkalchilikni baholashda loyihani o'rmini belgilab bering.
4. Tavakkalchilikni o'lchash usullarini tahlil qilishni ko'rsatib bering.

5. Tavakkalchilikni baholashda qanday tashqi va ichki omillarga e'tibor berish zarur?

6. Tavakkalchilikni baholashda qanday iqtisodiy ko'rsatkichlarni bilasiz?

7. Tavakkalchilikni baholash qanday loyihalarga asoslanadi?

8. Tavakkalchilikni o'lchashda qanday matematik usullar qo'llaniladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: «Ўзбекистон», 2003.

2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. — Т.: Адолат, 1999-2005.

3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. — М.: Финансы и статистика, 2004.

4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. — М.: Экономика, 2002.

5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. — М.: Дело, 2004.

6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. — М.: Инфра — М, 2005.

7. Тепман М.Н. Риск в экономике. — М.: ЮНИТИ, 2002.

8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. — М.: 2003.

9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

X BOB

TAVAKKALCHILIK KOEFFITSYENTI VA UNING TAHLILI

10.1. Tavakkalchilik koeffitsyenti tushinchasi

E-bilan biror iqtisodiy ko'rsatgichning bajarilish sohasini belgilaylik. Malumki bu iqtisodiy ko'rsatgichning bajarilishi r_1, r_2, \dots, r_n miqdorlarga bog'liq bo'lib, uni quyidagicha belgilash mumkin

r_i . Ko'rsatgichning E-ga tushishi r_i miqdorlardan bog'liq (masalan kapital kiritish miqdori).

$N = N(E)$. Esa iqtisodiy ko'rsatgichning E sohaga tushishi natijasida yuzaga keladigan N qaytimni ifodalovchi funksiya bo'lsin (masalan kritilgan kapital miqdoridan qaytish).

$f(x)$ -esa x iqtisodiy ko'rsatgichning zichlik funksiyasi bo'lsin. Masalan x-iqtisodiy ko'rsatgichning E sohaga tushish ehtimoli, agar E-ning chegaralari (a, b) lar bo'lsa

$$P(E) = P(a < x < b) = \int_a^b f(x) dx \text{ bo'ladi.}$$

$$H_n = \sum_{i=1}^n H(E'_i) \int_{x_{i-1}}^{x_i} f(x) dx; \quad E'_i = \frac{x_{i-1} + x_i}{2} \text{ deb belgilaymiz.}$$

H_n -ko'rsatgichlarning musbat sohaga ya'ni reja bajariladigan musbat sohadagi qaytimlar bo'lsin. Unda reja bajarilmaganligi (manfiy) sohasidagi qaytimlarni H_n bilan belgilasak.

$$H_c = \sum_{i=1}^n H(E_i^*) \int_{x_{i-1}^*}^{x_i^*} f(x) dx; \quad E_i^* = \frac{x_{i-1}^* + x_i^*}{2}$$

bo'ladi. Bu yerda miqdorlardagi rejalashtirilgan miqdorlardan chapda yotgan miqdorlarni ifodalaydi.

Shunday qilib reja bajarilmagandagi iqtisodiy ko'rsatgich qaytimi H_n - ning, reja bajarilgandagi qaytim H_n -ga nisbatini tavakkalchilik koeffitsyenti deymiz va quyidagicha belgilaymiz $K = \frac{H_c}{H_n}$

Ma'lumkim $0 < H_c < \infty$ va $0 < H_n < \infty$ bo'ladi. Agar $H_c = 0$ bo'lsa $K = 0$ tavakkalchilik koeffitsyenti nolga teng, yani tavakkalchilikning yo'qligi, agar $H_n = 0$ bo'lsa $K \rightarrow \infty$ tavakkalchilik darajasi juda kattaligi yuzaga keladi.

Tavakkalchilik koeffitsyentining boshqacha ifodasi quyidagicha.

$$K_2 = \frac{M^-}{M^+}$$

bu yerda z -iqtisodiy ko'rsatkichning rejalashtirilgan miqdori.

M^- -ko'rsatkichning z kichik qiymatining kutilmasi.

M^+ -ko'rsatkichning z dan katta qiymatining kutilmasi. Ya'ni x biror faoliyat yuritish natijasidagi iqtisodiy ko'rsatkichning qiymati bo'lsa, unda

$$M^- = M\{x - z / x < z\} = M(x / x < z) - z \quad M^+ = M\{x - z / x \geq z\} = M(x / x \geq z) - z$$

10.2. Tavakkalchilik koeffitsiyentining tahlili. Foyda keltirish funksiyasi

I (x)-bilan foyda keltirish funksiyasini belgilaymiz, bunda x -biror iqtisodiy ko'rsatkich qiymati (masalan x qaror qabul etuvchining kiritiladigan kapitalining qiymati). Qaror qabul qilish natijasida biror natijaga (hosil, daromad va boshqalar) erishiladi, uning qiymatin z bilan belgilasak, biror taqsimotga ega bo'lgan tasodifiy qiymat bo'ladi.

Aniq pul mablag'i, qaror qabul etuvchi noaniqlik evaziga olmokchi bo'lsa, tasodifiy miqdor Z bo'lib, Z -ning pul ekvivalenti deb hisoblaymiz. Z -ning kutilgan qiymatini pul ekvivalenti bo'lsa, Z -ning kutilgan qiymatini pul ekvivalenti farqi tavakkalchilik mukofoti deyiladi.

Tavakkalchilik mukofotini P -bilan belgilasak, unda qaror qabul etuvchi shaxs ikki holatdan: tasodifiy qiymat Z va $E(z) - \pi$ mablag'larini, birini tanlashni befarq qiladi. Boshqa tomondan agar qaror qabul qiluvchi z qabul etadigan qiymatlari haqida axborotga ega bo'lganda uni $E(z)$ mablag'iga sotgan bo'lar edi. Shu sababli pul ekvivalentini sotilishi narxi ham deyiladi.

Ma'lumki x -ning turli qiymatlari uchun tavakkalchilik mukofoti bir xil bo'lmaydi.

Shu bilan birga mukofot hajmi z -ning taqsimot (asosan uning matematik kutilma va dispersiyadan) bog'liq bo'ladi. Shunday qilib.

$$\pi = \pi(x, z)$$

funksiyasi bo'ladi. Pul ekvivalent (sotuv narxi) $\pi_0(x, z)$ - ham x va z ning funksiyasi bo'ladi:

Sotuv narxi va tavakkalchilik mukofoti orasidagi bog'lanishini quyidagicha ifodalanadi:

$$\pi_0(x, z) = E(z) - \pi(x, z)$$

Qaror qabul etuvchining subyektiv bahosi va afzal ko'rishi foyda keltirish funksiyasi (X) orqali ifodalanadi. Shu sababli tavalchilik mukofoti va sotuv bahosi orasidagi munosibat quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$U(x + E(z) - \pi(x, z)) = E\{U(x + z)\}, \text{ yoki}$$

$$U(x + E(z) - \pi)$$

Kutiladigan qiymatlar haqiqatda bor deb farz etib, bu bog'lanishlardan $\pi_o(x, z)$ va $\pi_b(x, z)$ larni bir qiymatli ifodalash mumkin, chunki funksiyasi jiddiy monoton kamayuvchi funksiyadir.

Tavakkalchilik mukofoti qiymati belgisini $U(x + E(z) - \pi)$ funksiyasining formasi orqali aniq ko'rsatish mumkin: agar $(U''(x) > 0)$ $\pi < 0$ qabariq bo'lsa va $\pi < 0$ bo'ladi, agar $(U''(x) < 0)$ botik bo'lsa $(U''(x) < 0)$ va $\pi > 0$ bo'ladi.

Sotilish narxi $\pi_o(x, z)$ bilan birga sotib olish narxi $\pi_b(x, z)$ ham ifodalash mumkin.

Bu shu ma'noni bildiradi, agar qaror qabul etuvchi tasodifiy miqdor z ifodalovchi qiymat haqidagi axborotga ega bo'lmasa u qo'shimcha mablag' to'lab z ning bo'lajak qiymatini saqlab qoladi usha mablag' to'lab z ning bo'lajak qiymatini saqlab qoladi usha mablag' $\pi_b(x, z)$ dir.

$$U(x) = E\{U(x - \pi_b(x, z) + z)\}$$

Tavakkalchilikni inkor etishda Z -ning kutiladigan qiymati nol bo'lsin dispersiyasi ham nolga intilsin, ya'ni $E(z) = 0$ $\sigma^2 \rightarrow 0$

$U(x - \pi) = E\{U(x + z)\}$ chap va ung tomonlarini darajali qatorga kiritib, tavakkalchilik mukofotini aniqlaymiz.

$$U(x - \pi) = U(x) - \pi U'(x) + o(\pi^2)$$

$$E\{U(x + z)\} = E\left\{U(x) + zU'(x) + \frac{1}{2}z^2U''(x) + o(z^3)\right\} = U(x) + \frac{1}{2}\sigma^2U''(x) + o(\sigma^2)$$

Qatordagi yuqori darajadagi hadlarini e'tiborsiz qoldirib quyidagini hosil qilamiz.

$$\pi(x, z) = \frac{1}{2}\sigma^2 r(x) + o(\sigma^2) \text{ bunda } r(x) = -U''(x)/U'(x)$$

$E(z) \neq 0$ bo'lgani uchun $\pi(x, z) = \pi(x + \mu, z - \mu)$ lardan foydalanib

$$\pi(x, z) = \frac{1}{2}\sigma^2 r(x + E(z)) + o(\sigma^2) \text{ hosil qilamiz.}$$

— funksiyasi, tavakkalchilikdan loaqal bosh tortish funksiyasi x -urni va $r(x)$ funksiyasi deyiladi.

Faraz etaylik-belgi foyda keltiruvchi funksiya $U(x)$ tarkiban chiziqli ekvivalenti bilan ifodalanishni ko'rsatsin

$$U(x) \sim a + bU(x), \quad b > 0$$

Unda differensial tenglama

$$r(x) = -\frac{U''(x)}{U'(x)}$$

ning foydalik funksiyasi $U(x)$ nisbatan yechimi $U(x) \sim \int e^{-\int r(x) dx} dx$ bo'ladi.

Yuqorida $r(x)$ nisbatan o'tkazilgan amallar natijasidan foydalanib $U(x)$ yo uning ekvivalentini aniqlash mumkin.

$r(x)$ tashkil etish uchun $r(x)$ va $\pi(x, z)$ orasidagi munosabatni foydalanib. $\pi(x, z) = \frac{1}{2}\sigma^2 r(x)$ $r(x) = \frac{2}{\sigma^2}\pi(x, z)$ ni topamiz. $\pi(x, z)$ -yuqorida o'rnatilgan funksiya amalda $r(x)$ -ning doimiligi muhim ahamiyatiga ega.

Agar $r(x) = \text{const}$ bo'lsa,

$U(x) \sim x$, faqat va faqat, agar $r(x) = 0$

$U(x) \sim e^{-cx}$ faqat va faqat, agar $r(x) = c > 0$

$U(x) \sim e^{-cx}$ faqat va faqat, agar $r(x) = c < 0$ bo'lsa.

Tavakkalchilikdan global bosh tortish. Qaror qabul (va uning foydalik funksiyasi) tavakkalchilikdan bosh tortuvchi (tavakkalchilikni rad etuvchi) bo'ladi, agar harqanday x va z tavakkalchilik mukofoti manfiy bo'lmasa: ya'ni: $\pi(x, z) \geq 0$ bo'lsa.

Agar har qanday x yo z uchun $\frac{\partial \pi(x, z)}{\partial x} \leq 0$ bo'lsa tavakkalchilikda jiddiy bosh tortiladi deyiladi.

Agar $r(x)$ ga nisbatan kamayuvchi funksiya bo'lsa ya'ni $r(x)$ bo'lsa.

Tavakkalchilikdan bosh tortish global kamayadi. Agar tengsizlik jiddiy bajarilsa unda tavakkalchilikda jiddiy bosh tortish deyiladi. Maxsus qayd etish kerak agar tavakkalchilikda global bosh tortish kamayuvchi bo'lganda tavakkalchilikdan loqaqal bosh tortish ham x nisbatan kamayuvchi funksiya bo'lsa va teekoria unda tavakkalchilikdan bosh tortishni loqaqal va globalga ajratishga urini yuk.

Foydalilik funksiyasi tavakkalchilikdan boshtortish kamayuvchi bo'lsa unda kuya ikki fikr haqiydir.

Agar $U(x)$ - (x_1, x_2) inte r valida tavakkalchilikdan bosh tortish kamayuvchi bo'lsa, $U(x) = U(a + bx)$ $b > 0$ bo'ladi va $[a + bx_1, a + bx_2]$ intervalida tavakkalchilikdan bosh tortish kamayuvchi funksiya bo'ladi va teskarisi.

Agar $U_1(x), \dots, U_n(x)$ (x_1, x_2) intervalida tavakkalchilikdan boshtortishi kamayuvchi funksiyalar bo'lsa unda ularning chiziqli kombinatsiyasi ham shu interval (x_1, x_2) tavakkalchilikdan boshtortishi kamayuvchi funksiya bo'ladi.

$$U(x) = \sum_{i=1}^n C_i U_i(x)$$

Tavakkalchilikka proporsional mukofot va proporsional tavakkalchilikdan loaqal boshtortish agar tavakkalchilikka mukofotni va tavakkalchilikka loaqal bosh tortishni x nisbatan solishtirsak unda tavakkalchilikka proporsional mukofot va tavakkalchilikdan loaqal boshtortishni proporsionalligi haqida gap yuritish mumkin. (Bu funksiyalarni $\pi^*(x, z)$ va $r^*(x)$ bilan belgilaymiz)

$$\pi^*(x, z) = \frac{1}{x} \pi(x, z) \text{ va } r^*(x) = xr(x)$$

Agar tavakkalchilikdan proporsional loaqal bosh tortishning funksichsi $r^*(x) = \text{const}$ bo'lsa unda $U(x) \sim x^{1-c}$ faqat va faqat $r^*(x) = c < 1$

$U(x) \sim \log x$ faqat va faqat $r^*(x) = 1$,

$U(x) \sim x^{-c-1}$ faqat va faqat agar $r^*(x) = c > 1$ bo'lsa.

Tavakkalchilik natijasiga ko'ra undan boshtortish. Yuqorida keltirilgan tavakkalchilikdan boshtortishning loaqal va global ko'rinishlaridan boshqa turlari ham bor.

Faraz qilaylik qaror qabul qiluvchi W mablag'i bo'lsin. Uning tavakkalchilik bo'lgan munosabatini tasodifiy o'zgaruvchi z ifodalovchi noaniq oqibatli hodisa misolida ko'ramiz. Z ning faqat ikkita oqibatga ega $\{z = \lambda\}$ va $\{z = 0\}$

$P\{z = -\lambda\} = p$ va $P\{z = 0\} = 1 - p$ bo'lsin. y - bilan sug'urta mukofotini qaror qabul qiluvchi to'laydigan sug'urta mukofotini y bilan belgilaymiz. Buni p ehtimoli bilan yuzaga keladigan λ - miqdordagi zararni qoplash uchun ajratiladi.

Unda $U(w - y) = p^{U(w-\lambda) + (1-p)U(w)}$

Qaror qabul qiluvchi uchun tenglamaning ikkala tomoni ham birxil etiborga ega ya'ni u xatmida aniq zararga erishish yoki $\pi(x, z) > 0$ ehtimoli bilan zararga erishishi bir xil etiborga egadir.

Foyda keltiruvchi funktsioner, aniqrog'i qaror qabul etuvchining xatti harakatini biz tavakkalchilikdan zararning ma'lum hajmi bilan bilan boshtortadi deymiz, agar $\lambda > 0$ uchun y/λ usuvchi bo'lsa.

Endi tasodifiy o'zgaruvchi z quyidagi taqsimot qonuni bilan olamiz.

z	0	γ
p	$1-p$	p

ya'ni z faqat ikki qiymatga

0 va γ erishib ehtimollar $P(z = \gamma) = p$ $P(z = 0) = 1 - p$ ishonchlik ekvivalenti

γ deb shunday summani belgilaymiz, u quyi tenglamadan aniqlanadi.

y^* shunday mablag'ki uni qaror qabul etuvchi r ehtimol γ yutiq o'rniga olishga rozidir.

Foydalilik funksiyasi anigi qaror qabul etuvchini xatti-harakatini yutiq hajmi bilan tavakkalchilikdan yuz o'grish deymiz agar $\gamma > 0$ uchun y^*/γ kamayuvchi bo'lsa.

Yana quyidagi belgilanishni kiritamiz $S(x, w) = x \cdot r(w+r)$.

Bu belgilashda foyda keltirish funksiyasi U uchun quyidagi urinlik.

Foydalik keltirish funksiyasi U m - dan kichik yutiq uchun tavakkalchilikdan ma'lum hajmidagi yutiq bilan yuz o'girish deyiladi, agar $s(x, w)$ funksiyasi x nisbatan $0 < x < m$ da usuvchi bo'lsa.

Umumiy holda foydalik funksiyasi U , tavakkalchilikdan uning natijasi hajmiga ko'ra bosh tortish deyiladi agar $S(x, w)$ o'suvchi funksiya bo'lsa.

Hajmiga ko'ra tavakkalchilikni rad etuvchi foydalilik funksiyasi uchun, quyidagi teorema o'rinli:

Agar $U_1(x) = U(a+bx)$ $b > 0$ $x_1 < x < x_2$ intervalda foydalilik funksiyasi bo'lsa unda $U(x)$ ham foydalik funksiyasi bo'lib tavakkalchilikni hajmiga ko'ra rad etish bo'lib u $a+bx_1 < x < a+bx_2$ interval va teskariyalda bo'ladi.

Tavakkalchilikni natija hajmiga ko'ra rad etuvchi foydalik funksiyalar summasi shart emas yana shu kabi funksiya bo'lishi ikki ko'rinishdagi tavakkalchilikni rad etish funksiyalari orasidagi munosabat quyidagi ayniyat bilan ifodalanadi.

Bir necha uzgaruvchan foyda funksiyasida tavakkalchilikning mustaqilligini hisobga olgan holda $U(x)$ ning x_i o'zgaruvchili bog'liq funksiyasini $r_1(x)$ bilan belgilab quyidagicha aniqlaymiz.

$$r_i(x) = -\frac{U_i''(x)}{U_i'(x)}$$

$$\text{bunda } U_i''(x) = \frac{\partial^2 U(X)}{\partial x_i^2} \quad U_i'(x) = \frac{\partial U(X)}{\partial x_i}$$

x_i o'zgaruvchiga muvofiq keladigan tavakkalchilik $x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, x_{i+1}, \dots, x_n$ o'zgaruvchilardan bog'liq emas deyiladi, agar $r_i(x)$ funksiya $x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, x_{i+1}, \dots, x_n$ bog'liq bo'lmasa, ya'ni $r_i(x)$ doimiy yoki x_i ning funksiyasi bo'lsa.

Qisqa xulosalar

1. Tavakkalchilikni koefitsiyentlar asosida hisob-kitob qilish noaniqlikni reallik aylantirishga imkoniyat yaratadi.

2. Tavakkalchilikni hisob – kitob qilishda asosiy koefitsiyentlardan biri miqdoriy funksiya hisoblanadi.

3. Tavakkalchilikni boshqarishda koefitsiyentlar turkumidan foydalanish yo‘qotishlarni oldini oladi.

4. Noaniqlik darajasiga aniqlik kiritish natijasida tavakkalchilik foydasi ko‘tarildi.

5. Tavakkalchilik koefitsiyentlari pirovard natijada korxonada yoki tadbirkorlik uchun ishlab chiqarish imkoniyatlarni oshiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilik koefitsiyentlarini tushuntirib bering.

2. Tavakkalchilik koefitsiyentlarini aniqlash usullarini aytib bering.

3. Tavakkalchilik koefitsiyentlari orqali noaniqlik darajasini pasaytirishni ko‘rsatib o‘ting.

4. Koefitsiyentlarni hisob – kitob qilishda qanday usullardan foydalaniladi?

5. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda tavakkalchilikni qaysi koefitsiyentlariga e‘tibor berilishi kerak?

6. Tavakkalchilikda zararni qoplashni qanday usullari mavjud?

7. Tavakkalchilikni boshqarishda qanday koefitsiyent turlaridan foydalaniladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: «Ўзбекистон», 2003.

2. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар, бозор муносабатлари ва механизмини ривожлантириш борасида қабул қилинган Қонунлар тўплами. — Т.: Адолат, 1999-2005.

3. Балабанов И.Т. Риск и менеджмент. — М.: Финансы и статистика, 2004.

4. Загулин М.С. Основы бизнеса и менеджмента. — М.: Экономика, 2002.

5. Мескон А. и др. Основы менеджмента. — М.: Дело, 2004.

6. Первозванский А. А., Первозванская Т. Н. Финансовый риск: расчет и риск. М.: Инфра — М, 2005.

7. Тепман М.Н. Риск в экономике. — М.: ЮНИТИ, 2002.

8. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. — М.: 2003.

9. Черникова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. СПб.: Питер, 2000.

XI BOB TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH VA SUG'URTA

11.1. Sug'urtalash uchun rezerv fondi

Tavakkalchilikni boshqarish uchun ko'pincha sug'urtalashdan foydalaniladi. Buning uchun rezerv fondini o'lchovini ma'lum ishonch darajasi bilan statistik usul bilan hisoblab, quyi ikki savolni belgilaymiz.

1. Kelajakda mumkin bo'lgan ziyonni qoplash uchun sug'urta orqali yig'ilgan rezerv fondini hajmini aniqlash.

2. Rezerv fondini tashkil etishda uchraydigan tavakkalchilik quyi hollari:

A) agar rezerv fondi yetarli bo'lmay, etishmagan summani 100%li qarz orqali qoplash mumkinligi;

B) Ortiqcha rezerv fondini saklash uchun 100%li to'lov stavkada bo'lsa.

Birinchi savolni ko'rib chiqamiz. Buning uchun «zarar kvotasi» tushinchasini kiritamiz. «Zarar kvotasi» keltirilgan zarar summasini yig'ilgan sug'urta to'lovlari nisbatini olamiz:



$$\text{Zarar kvotasi} = \frac{\text{Zarar summasi}}{\text{Sug'urta to'lovlari}}$$

Sug'urta tashkilotlari uchun turli yillarda zarar summasi zarar kvotasi orqali belgilanadi ma'lum davr uchun zarar xatmi aniqlash uchun shu davr zarar kvotasini tahlil etish natijasida aniqlash mumkin. Bu axborot esa unga tasodifiy holatlar ta'siri natijasida yuzaga kelishini ko'ramiz. Shu bilan birga bu tasodifiy qiymatini taqsimot qonunini aniqlash mumkin.

Asosiy masala agar biz kelasi yilda zarar kvotasi qancha bo'lishini bilsak unda biz zahira fondining aniq qiymatini aniqlashimiz mumkin. Kvotasini sug'urta to'lovlari summasiga ko'paytirib rezerv fondining xatmini topamiz.

Shunday qilib biror ishonch darajasi bilan zarar qoplaydigan rezerv fondining hajmini aniqlash masalasi quyidagi masala zarar chegarasini (kvotasini) shunday miqdorini aniqlash kerak. U avvaldan hisoblangan kvota miqdoridan ko'p bo'lmasligi lozim.

O'tgan yillar uchun zarar kvotasi miqdori tasodifiy omil sifatida aniqlab uni taqsimot grafigini zichlik va taqsimot funksiyalarni ifodalash mumkin. Agar x bilan zarar kvotasi miqdorini belgilasak unda $f(x)$ zichlik $F(x)$ taqsimot funksiyalari quyidagi ko'rinishni oladi.



$F(x)$ -ning

x -nuqtadagi qiymati $X < x_0$ bo'lish ehtimolini aniqlaydi


$$F(x_0) = P(X < x_0)$$

Masalan $x^* = 0,55$ va $F(0,55) = 0,80$ bo'lsa unda zarar kvotasining miqdori 0,55 kichik bo'lish ehtimoli 0,80 teng bo'ladi ya'ni ishonch darajasi 80% bilan zarar kvotasi 55% hajmida rezervlanishi biz shunday mablag'ga ega bo'lamiz, u bilan 80% holatda yuzaga kelgan zararni qoplay olamiz.

Agar taqsimot funksiyasi $F(x)$ va zaruriy ishonch darajasi a belgilangan bo'lsalar unda bizni vazifamiz shunday x^* topish kerak.


$$F(x^*) = a \text{ bo'lsin.}$$

Grafikda x^* ni $F(x)$ ning a -ga munosib qiymatdagi grafikdagi nuqtasini ox o'qiga loyihalasini tushirib topamiz.



x^* -ning qiymati kerakli rezrev fondini qiymatini beradi.

Rezrv fondining miqdorini o'zgartirish ishonch darajasiga munosiban quyidagi ko'rinish orqali bajariladi.



Yana quyidagi misolni ko'rib o'tamiz Biz o'rganayotgan obyektlarning sug'urtalash bitimi emas deb olamiz chunki turli «tarmoqlarda» kutiladigan zararlar hajmi turlichadir. Masalan davlat tashkilotidagi tarmoqlar uchun 30% atrofida, qishloq xo'jalik tarmoqlarida 100% tashkil etadi. Turli olimlarning tarmoqlarga ta'siri ham turlichadir. Ehtimollarning taqsimoti tarmoqlar ichida biroz qiyinlik tug'diradi agar tarmoqlar ulushi xalq xo'jaligi strukturasi o'zgaruvchan bo'lsa.

Masalan, hisoblash qiyinchiliklar quyidagicha yengib o'tiladi har bir tarmoq uchun alohida zichlik funksiyasi aniqlanadi keyin umumiy zichlik funksiyasi quyidagicha olinadi.

$$f(x) = \frac{d_1}{D} f_1(x) + \frac{d_2}{D} f_2(x) + \frac{d_3}{D} f_3(x)$$

$$F(x) = \frac{d_1}{D} F_1(x) + \frac{d_2}{D} F_2(x) + \frac{d_3}{D} F_3(x)$$

bu yerda d_1, d_2, d_3 - tarmoqlarning sug'urta to'lovlari $D = d_1 + d_2 + d_3$ $f_i(x)$ $F_i(x)$ tegishli tarmoqlarning funksiyalari.

To'la Gosstrax bo'yicha zarar kvotasining yillik taqsimoti kerak bo'lsa uning uchun zarar kvotasining taqsimot qonuni va uning parametrlari ma'lum bo'lishi kerak edi.

Barcha tarmoqlar tahlili uchun zarar kvotasi 1967y(1968y)dan 1973 yilgacha ma'lum edi. Bu 6-7 tarmoqlar nuqtalari uchun taqsimot qonunini tipini matematik kutilma dispersiyasini aniqlash imkondan tashqari edi.

1970-1973yillar uchun berilgani asosida taqsimot qonuning aniqlash mumkin edi, chunki har bir tarmoq uchun zarar kvotasining 20 qiymatiga (4 sektor uchun 80 ko'rsatgichga) ega edik. Agregirlashga qishloq xo'jalik sektori uchun 150 ko'rsatgichga ega edik.

Bu berilganlar asosida xalq xo'jaligi darajasida zarar kvotasining taqsimot qonunini aniqlashga ega bo'ldik.

Ma'lumki zarar kvotasining taqsimot qonuni va uning parametrlari viloyat darajasida o'zaro turlicha bo'lishi mumkin va mamlakat taqsimot qonuni va parametrlariga o'xshash bo'lmasligi ham mumkin. Ammo o'zaro katta farq qilish ehtimoli juda kichik.

Olingan axborotlarga asoslangan holda shuni aytish mumkin ayrim tarmoqlar ichida zarar kvotasiga berilganlarning viloyatlarga tegishli ekanligi katta ta'sir o'tkazmaydi.

Shu sababli zarar kvotasining taqsimot qonuni x sug'urta to'lovlari tasodufiy miqdor sifatida barcha viloyatlar uchun bir xil deb qabul etamiz x-tasodufiy miqdorning matematik kutilma va dispersiyalarning $M(x)$ va $D(x)$ bilan belgilaymiz.

d_1, d_2, \dots, d_{20} turli viloyatlar uchun sug'urta to'lovlari mablag'i bo'lsin. Unda butun mamlakat zararlar kvotasini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Y = \frac{d_1 x_1 + d_2 x_2 + \dots + d_{20} x_{20}}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}}$$

$$E(Y) = \frac{d_1 E(x_1) + d_2 E(x_2) + \dots + d_{20} E(x_{20})}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}} = \frac{(d_1 + d_2 + \dots + d_{20}) E(x)}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}} = E(x)$$

$E(x_i) = E(x)$ bo'lgani uchun

$$D^2(Y) = \frac{d_1^2 D^2(x_1) + d_2^2 D^2(x_2) + \dots + d_{20}^2 D^2(x_{20})}{(d_1 + d_2 + \dots + d_{20})^2} = \frac{d_1^2 + d_2^2 + \dots + d_{20}^2}{(d_1 + d_2 + \dots + d_{20})^2} D^2(x)$$

$C_i = \frac{d_i}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}}$ belgilasak

$$D^2(Y) = (c_1^2 + c_2^2 + \dots + c_{20}^2) D^2(x)$$

$c_i < 1$ $c_i^2 < c_i$ $(c_1^2 + c_2^2 + \dots + c_{20}^2) < c_1 + c_2 + \dots + c_{20} = 1$ $D^2(Y) = D^2(x)$ bo'ladi.

Bunday mamlakat bo'yicha zarar kvotasining Dispersiyasi viloyatlar dispersiyasidan kichik bo'ladi.

Endi katta miqdordagi berilganlarni qayta ishlov berishda uchraydigan qiyinchiliklarni qanday yengib o'tishni o'rganamiz.

Axborotlarni ishlov berishda tasorufidangi xo'jaliklar berilganini

birgalikda olindi, chunki mulkdorlik ko'inishi zararga ta'sir etuvchi omil bo'lmaydi.

Yana yillik o'rtacha zarar kvotasi karib o'zaro tengdir qishloq xo'jaligi kooperativlarning o'rtacha zarar kvotasi biroq kichikroqdir. Chunki qishloq xo'jaligi uchun ko'rilgan yillar biroq «omadli»edi, bunday kooperativlar ko'plab sug'urtalashdi, davlat xo'jaliklar esa yo'q.

11.2. Tarmoqlar zarar kvotasining matematik kutilma va dispersiyasi

Tarmoqlar zarar kvotasining matematik kutilma va dispersiyalarni hisoblashda keskin farq etuvchi zarar kvotalarining qiymatlari ayrim qiyinchiliklar yaratdi. Masalan viloyat bo'yicha davlat korxonalarini zarar kvotalari o'zaro 10-50% o'zaro farq qilsa ayrim yillarda shunday viloyatlar uchralar edikim zarar kvotasi 800% tashkil etadi.

Agar bu zarar kvotasi 800% hisobga kushsak dispersiyani uzi 70-80% tashkil etadi ammo bu holat 100yilda bir marta yuzaga keladi. Agar bu qiymatni etiborga olinmasa, tanlanma o'zgarib matematik kutilma va dispersiyaning qiymati kamayib ketadi.

Buning uchun sodda yo'l topiladi keskin o'zgaruvchi qiymatlar chegarasini belgilab qo'ydik (masalan davlat tasorufidagi xo'jaliklar uchun 100% qishloq xo'jalik korxonalarini uchun 200%)

Taqsimot tiplarini o'rganish shuni ko'rsadiki uning zichlik funksiyasi biz o'rganayotgan miqdor gamma taqsimotga yaqinroq ekan.

$$f_r(x/\lambda, p) = \frac{x^{p-1} e^{-x/\lambda} \lambda^p}{\Gamma(p)} \quad \text{bo'lib}$$

$$E(x) = \frac{p}{\lambda} \quad D^2(x) = \frac{p}{\lambda^2} \quad p, \lambda \quad \text{lar taqsimot parametrlari.}$$

11.3. Tijorat tavakkalchiligi

Tijorat tavakkalchiligini tahlil etish uchun iqtisodiy sistemani ayrim elementlarga quyi sistemalarga ajratib matematik metod, usullar, modellardan foydalanib shu bilan birga mo'taxassislar tajribasi va eksperimentlar hisoblash texnikasini amalda qo'llab aniqlikni har bir sohaga elementlariga bog'liq ravishda tahlil etish mumkin. Shunday qilib tavakkalchilikni tahlil etish nazariyasidan foydalanib bajariladigan faoliyatining natijasining ehtimolini avvaldan aniqlab tavakkalchilikka

iqtisodiy matematik modeillardan foydalanib baholash mumkin. Bu metod va modellar asosida tavakkalchilik darajasini pasaytirish yoki uning bo'lajak xavfidan kutilish mumkin. Ya'ni bu metodlar asosida tadbirkor uz faoliyati natijasiga foydali bo'lgan qarorga kelishi mumkin. Yaponiya, AKSh iqtisodida firmalar, tashkilotlar, kompaniyalar iqtisodining o'sish jarayonida ko'plab ishlab chiqarishda tavakkalchilikka bog'liq bo'lgan faoliyat yuritib tavakkalchilik strategiyasini tuzadilar. Buning uchun korxonalar kelajagini aniq tahlil etib, zamonaviy, sistemali rejalar tuzib, uni sivilizatsiyalashgan biznes va marketingga asoslangan holda tuziladi. Tavakkalchiliq tijoratda haqiqiy yo'nalishini aniqlab beradi.

Tijorat tavakkalchilikni tahlilini tavakkalchilik darajasini minimallashtirish uchun korxonalar rahbarining birinchi vazifasi qaysi miqdorda mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan mahsulotni qaysi bozorda sotishni aniqmaslik sharoitida aniqlab o'lmog'i zarur. Bunday faoliyatni oldi sotding bashorat etish ehtimollik xarakteriga ega, ya'ni bashorat etilgan bajarilishi ham bajarilmasligi ham mumkin. Shu sababli bashorat etilgan natijalar qanchalik aniq tahlil etilsa aniqmaslik va tavakkalchilik darajasi kamayadi. Ya'ni tavakkalchilik darajasi kamayadi. Ya'ni tavakkalchilik darajasining pasayishi kelajakni to'g'ri baholash natijasida qabul qilingan qarorlarga bevosita bog'liqdir. Ma'lumki har qanday tijorat faoliyati firmaning ichki xujjati, biznes rejani tuzish bilan va bu reja asosida tijorat tavakkalchiligining dasturini tuzish bilan boshlanadi. Tavakkalchilik dasturining tahlili ko'pincha tavakkalchilik asosida yuritadigan korxonalar uchun zarurdir. Bunday korxonalarda talab hajmi va strukturasi, marketing axborotlarining etishmovchiligi xavfli holatlarining yuzaga kelishi, ashaddiy konkurentlar, raqobatchilar va bu raqobatchilarning o'sishi shu bilan birga korxonaning o'zini kelajakda rivojlanishi xarakterlidir.

Tavakkalchilik dasturlarni tuzishda bashorat etish natijalaridan foydalanish uchun iqtisodiy matematik usullardan foydalanish ko'p qulayliklar yaratadi. Bu usul asosida tavakkalchilik dasturining bir necha variantlarni tuzib, faoliyat yuritishdan yuzaga kelgan holatlar uchun kerakli va o'sha holatga munosib dastur variantidan foydalanish mumkin. Bunday dasturlar tashkilot faoliyatida ishonchsizlik darajasini ma'lum miqdorda kamaytiradi. Yaponiyaning har bir to'rtinchi korxonasi tavakkalchilikni oldini olish dasturiga ega.

Tijorat tavakkalchilikni tahlil etish va axborot bazasi. Tijorat

tavakkalchilikni baholashda axborotlar tizimi bilan ta'minlanish asosiy negizidir.

